

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

ZOYIROVA GO`ZAL NE`MATOVNANING

“YOZUVCHI ESSESIDA MAHORAT MASALASI
(SH.XOLMIRZAEV IJODI MISOLIDA)”

mavzusidagi

5 120 100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistr akadem
darajasini olish uchun yozgan

МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, professor
AHMEDOVA Sh.N

Buxoro – 2017

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

«Tasdiqlayman» ____
Fakul'tet dekani A.A. Haydarov
« » _____ 2017-y.

ZOYIROVA GO`ZAL NE`MATOVNANING

**“YOZUVCHI ESSESIDA MAHORAT MASALASI
(SH.XOLMIRZAEV IJODI MISOLIDA)”**

mavzusidagi
5 120 100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistr akadem
darajasini olish uchun yozgan

МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, professor
AHMEDOVA Sh.N.

Rasmiy hakam:

dots. Z. Q. AMONOVA

Buxoro – 2017

«Ma'qullayman» _____
Ilmiy rahbar: f.f.doktori,
professor Axmedova SH.N.
 « » _____ **2015-y.**

«Tasdiqlayman» _____
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası mudiri Sh.N.Ahmedova
12.11. 2015-y.

BuxDU filologiya fakulteti shzbek adabiyoti magistri **Zoyirova Go'zalning**
“YOzuvchi essesida mahorat masalasi SH.Xolmirzaev ijodi misolida)” mavzusidagi
 magistrlik dissertatsiyasi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan
TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	oktabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	noyabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	dekabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	yanvar		
	3. II va III bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	fevral		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	mart		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
BMI ni rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
BMI ni himoya qilish		iyun		

Magistr

Zoyirova Go'zal

Ilmiy rahbar

Axmedova SH.N.

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek tili va adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan
KO`CHIRMA

29-noyabr', 2015-y.

Qatnashdil: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

***Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni
tayinlash.***

Kafedra qaror qiladi:

1. Ozbek tili va adabiyoti kafedrası **magistri Zoyirova Go`zal** magistrlik dissertatsiyasi **“YOzuvchi essesida mahorat masalasi SH.Xolmirzaev ijodi misolida)”** mavzusi shaklida tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi **Mardonova Mohinurning** malakaviy bitiruv ishiga f.f.doktori, professor **Axmedova SH.N.** ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi
Yig`ilish kotibasi

Sh.N.Ahmedova
G.Y.Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan
KO`CHIRMA

Buxoro sh.

5-may, 2017-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

1.Uzbek adabiyoti kafedrasi magistri Zoyirova Guzalning
“YOzuvchi essesda mahorat masalasi SH.Xolmirzaev ijodi misolida)”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ish muhokamasi.

Kafedra yigilishi qaror qiladi:

1. Uzbek adabiyoti kafedrasi magistri Zoyirova Guzalning
“YOzuvchi essesda mahorat masalasi (SH.Xolmirzaev ijodi misolida)”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin
va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

2. Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga ichki taqrizchi etib, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent Z. Q. Amonova tayinlansin.

3. Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga tashii taqrizchi etib, filologiya fanlari
nomzodi, BuxTI dotsenti G.Iurbonova tayinlansin.

Yig`ilish raisi

SH.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

**BuxDU filologiya fakul'teti Uzbek adabiyoti kafedrası magistri Zoyirova
Guzalning "YOzuvchi essesda mahorat masalasi (SH.Xolmirzaev ijodi
misolida)" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

ILMIY RAHBAR XULOSASI

Mavzuning dolzarbligi. Alisher Navoiy ijodini o'rganish doimo dolzarb masala bo'lib kelgan. Shu jihatdan maskur ish ham ilmiy qimmatga ega.

Belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik darajasi. Talaba berigan vazifani imkon qadar bajara olgan.

Bajarilgan ishga talabaning munosabati. Bitiruvchi talaba ishga mas'uliyat bilan yondoshgan.

Talabaning adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish ko'nikmalari. Talaba mavzuga oid materiallarni o'rganib chiqdi va unda mustaqil bayon eta olish ko'nikmalari shallanmoqda deyish mumkin.

Talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasi , ya'ni pedagogik topshiriqlarni yecha olishi, mustaqil qaror qabul qila olishi va h.k

Talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasi etarli, pedagogik topshiriqlarni yecha olish imkoniyatiga ega, mavzu yuzasidan mustaqil qaror qabul qila oladi.

Olingan natijalarning amaliyotga ta'lim jarayoniga qo'llash imkoniyati hamda talabaning ixtisosligi bo'yicha beriladigan kvalifikatstiyani olishga loyiqligi. Malakaviy bitiruv ishi o'z ichiga olgan masalalarni o'zbek adabiyoti xazinasidan o'rin olgan yuksak asarlarda ifoda etilishi, ularning badiiy qimmatini belgilab chiqish, dostonidagi ishq vodiysining o'ziga xosligini aniqlash va anglash katta ahamiyatga ega. Shu bois olingan natijalarni amaliyotga ta'lim jarayoniga qo'llash imkoniyati mavjud.

Mardonova Mohinur ixtisosligi bo'yicha beriladigan kvalifikatstiyani olishga loyiq. Ishni rasmiy himoyaga navsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

professor SH.N.Axmedova

yil may

Fakultet ilmiy kengashning 2017-

bayonnomasi bilan tasdiqlangan

BuxDU filologiya fakulteti Uzbek adabiyoti kafedrasi magistri Zoyirova Guzalning «YOzuvchi essesda mahorat masalasi (SH.Xolmirzaev ijodi misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAK

XULOSASI

No	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi-10 ball	talabga qisman javob beradi-7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan-8 ball	grant loyihasi bo'yicha - 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha-6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan-5b.	yetarli asoslan-magan-3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas - 5 ball	aniq emas - 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalan-ganlik darajasi	to'la- 7 ball	qisman - 5 ball	yetarli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi - 8 ball	ilgari olingan - 6 ball	to'la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor - 6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas - 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar	aralash shaklidan - 5	referaktiv xarakterdan - 3

		asosida - 8 ball	ball	ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq – 8 ball	o'rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMI ni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMI ga qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi:

prof. Shermatov A.

A'zolari:

1. dots. Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof. Ahmedova Sh.N. (a'zo)

3. dots. To'qсанov Q. (a'zo)

4. dots. Bekova N.(a'zo)

-iyun, 2017-y.

Uzbek adabiyoti kafedrası magistri Zoyirova Guzalning «YOzuvchi essesda mahorat masalasi (SH.Xolmirzaev ijodi misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bo’yicha rasmiy hakam

TAQRIZI

Mavzuning dolzarbligi. _____

Bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mos kelishi_____

Materialning mantiqiy bayon etilishi_____

Ishga oid manbalarning to’la va yetarlicha tanqidiy tahlil etilganligi_____

Ishning mustaqil bajarilganligi_____

Olib borilgan tajriba ishlari samaradorligining to’la va to’g’ri baholanganligi_____

Xulosalarning to’liq izohlanganligi_____

Ishning amaliy ahamiyati_____

Ishdagi

kamchiliklar_____

Ishning talab darajasida rasmiylashtirilishiga
izoh_____

Ishning himoyaga loyiqligi_____

Rasmiy hakam:

f.f.n. BuxTI dotsenti G.Kurbonova

BuxDU filologiya fakul'teti Uzbek adabiyoti kafedrası magistri Zoyirova Guzalning «YOzuvchi essesda mahorat masalasi (SH.Xolmirzaev ijodi misolida)» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining

ANNOTATSIYASI

Adabiy tanqid badiiy asarning, adabiyotning yuksakligi uchun xizmat qiladi. Bu jabhada adabiy tanqid janrlaridan biri esse va uning turli ichki ko'rinishlari, xillari, taraqqiyotining o'rni va roli muhimdir. Har bir davr, har bir yozuvchi, tanqidchi essenavisligi o'ziga xos xususiyatlari va taraqqiyot yo'llari bilan ajralib turadi, shu bois adabiyotshunoslikda esse janri rivojlanishi, shakllanish yo'llari, bosqichlarini o'rganish muhim vazifalardan biridir. SHu bilan birga har bir munaqqid, yozuvchi badiiy asar haqida maqola, taqriz, esse yozar ekan, o'ziga xos uslubga va qarashlarga ekanligini namoyon etadi, adabiy tanqidiy asarlari bilan bu jarayonni boyitishga hissa qo'shadi. Bu silsilada O'zbekiston xalq yozuvchisi SH.Xolmirzaev esselari alohida sahifanim tashkil etadi. SHundan kelib chiqib, yozuvchi esselarini tadqiq etish essenavislik tarixining taraqqiyot bosqichlarini belgilashda muhimdir.

Ishning asosiy ob'ekti sifatida SHukur Xolmirzaev esselari olindi. SHu bilan birga adib bilan bir davrda yashagan ijodkorlar tomonidan yaratilgan esselarga ham murojaat qilindi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida o'zbek adabiyotining etuk vakili, adib SHukur Xolmirzaev yaratgan esselarni monografik tarzda o'rganish maqsad qilib olingan. Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni echish belgilandi: o'zbek adabiyotida yozuvchi essenavisligi taraqqiyotini o'rganish va SH.Xolmirzaevning essenavislikda tutgan o'rnini ko'rsatish; yozuvchi esselarining mavzular va obrazlar olamini tadqiq etish; adibning esselarini tasnif qilish; obrazlar olamini yoritib berish; adib esselarini tahlil etish jarayonida uning o'ziga xos uslubini belgilash; uslubi va mahoratini o'rganish orqali mahoratini ochib berish.

O'zbek tanqidchiligining rivojiga katta hissa qo'shgan adib SHukur Xolmirzaevning essenavislik faoliyati o'zbek adabiyotshunosligida yaxlit holda

tadqiq etilmoqda. Etuk adib esselari va maqolalari mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan monografik tarzda yoritib baholanmoqda. Birinchi navbatda, mazkur ish SHukur Xolmirzaevning ko'p jihatdan to'laqonli ilmiy biografiyasini yaratishga xizmat qilishi bilan muayyan qiymat kasb etadi. Bularning barchasi ishning mustaqil jiddiy tadqiqot sifatidagi ilmiy yangiligini belgilaydi.

Ushbu tadqiqotning natijalari va xulosalaridan o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida yozuvchi va munaqqidlarning essenavislikdagi mahorati muammolarini o'rganishda, o'zbek adiblari va tanqidchilari ijodiga kengroq baho berishda nazariy manba tarzida foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning natijalari akadem litsey va kollejlarda o'zbek adiblari ijodini o'rganish bo'yicha ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlar olib borish, oliy o'quv yurtida adabiyotshunoslikda adib va munaqqid mahorati muammolarini o'rganish, yozuvchi, shoirlar, adabiyotshunos va tanqidchilar haqida esselar, adabiy portretlar yaratish mavzularida kurs ishlari, referatlar yozishda qo'l keladi.

Magistr

Zoyirova G.N.

Ilmiy rahbar

Axmedova SH.N.

REJA:

KIRISH

Ishning umumiy tavsifi

I BOB. O`ZBEK ADABIYOTIDA YOZUVCHI eSSENAVISLIGI TARAQQIYOTI.

1.1. Esse janriga oid ilmiy-nazariy qarashlar talqini.

1.2. Adibning hayot va ijod olamiga bir nazar

1.3. SH.Xolmirzaev esselari tasnifi

II BOB. SH.XOLMIRZAEV – eSSENAVIS ADIB SIFATIDA

2.1. SH.Xolmirzaev esselarining mavzular olami.

2.2. esselardagi obrazlar olami, muallifning obraz yaratish mahorati

2.3. esseda portret yaratish masalasi

SH.XOLMIRZAEVNING eSSENAVISLIKDAGI MAHORATI

3.1. esselarda muallif “men”i talqini

3.2. Adibning uslubiga xos xususiyatlar ifodasi

3.3. YOzuvchi mahoratining asar tilida aks etishi

X U L O S A

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.

Mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, «xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi»¹. Bu mulohazalar adabiy tanqidning adabiy jarayonga tobora faol yaqinlashishiga va adabiyotimizning g'oyaviy estetik taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shishiga katta ta'sir ko'rsatadi. SHu bilan birga yozuvchi va tanqidchilarning etuk asarlari g'oyaviy yuksak, ilmiy chuqur, printsiptial va tahlillar mukammal bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Adabiy tanqid badiiy asarning, adabiyotning yuksakligi uchun xizmat qiladi. Bu jabhada adabiy tanqid janrlaridan biri esse va uning turli ichki ko'rinishlari, xillari, taraqqiyotining o'rni va roli muhimdir. Har bir davr, har bir yozuvchi, tanqidchi essenavisligi o'ziga xos xususiyatlari va taraqqiyot yo'llari bilan ajralib turadi, shu bois adabiyotshunoslikda esse janri rivojlanishi, shakllanish yo'llari, bosqichlarini o'rganish muhim vazifalardan biridir. SHu bilan birga har bir munaqqid, yozuvchi badiiy asar haqida maqola, taqriz, esse yozar ekan, o'ziga xos uslubga va qarashlarga ekanligini namoyon etadi, adabiy tanqidiy asarlari bilan bu jarayonni boyitishga hissa qo'shadi. Bu silsilada O'zbekiston xalq yozuvchisi Sh.Xolmirzaev esselari alohida sahifani tashkil etadi. SHundan kelib chiqib, yozuvchi esselarini tadqiq etish essenavislik tarixining taraqqiyot bosqichlarini belgilashda muhimdir. Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi ana shular bilan belgilanadi.

Adabiy tanqid jamiyat taraqqiyotida, adabiyot rivojida mustaqil va mustahkam mavqega egadir. Uning janrlaridan biri esse adabiy tanqidning yirik ko'rinishlaridan biri bo'lib, adabiyotning yuksalishida, adabiy jarayonda ma'lum darajada ahamiyatga ega. SHukur Xolmirzaev esselari va uning tabiatini, xillarini

¹ Каримов И. Адабиётга эътибор - маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент. Ўзбекистон. 2010. 6-бет.

o`rganish zarurligi bugunning, zamonaviy adabiyotshunoslikning talabi hisoblanadiki, tanlangan mavzuning muximligi ana shunda yorqin ko`rinadi.

Esselar yozuvchi ijodini har tomonlama, chuqur o`rganishi, ayniqsa, adabiyotdagi muhim bir muammoni ko`tarib chiqishi, boshqa munaqqid va olimlarning shu masalaga diqqatini tortishi, kitobxonning ilmiy-estetik tafakkurini o`stirishga ko`maklashishi jihatidan ham o`rganishga loyiq.

Adabiyot rivojida muhim o`rin egallagan so`z san`atkorlarini hayoti va ijodini o`rganish doimo adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan bo`lib kelgan. Ular badiiy ijod bilan shug`ullanishdan tashqari adabiyotshunoslik, adabiy tanqid muammolariga ham befarq bo`lmay, adabiy jarayonda faollik ko`rsatdilar. XX asrning boshlarida CHO`lpon, A.Fitrat, S.Ayniy, A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor singari adiblar adabiyotning rivojiga, adabiyotshunoslik taraqqiyotiga katta hissa qo`shdilar. Bu an`anani keyingi davr adiblari davom ettirdilar. “Xalqimiz yillar, asrlar davomida orziqib kutgan ozodlikka erishib, o`z taqdirini o`z qo`liga olgandan keyin har qanday tahdid va xatarlarga qaramasdan, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, mustaqillikni mustahkamlash, erkin va farovon hayot qurish maqsadidida amalga oshirayotgan ishlarimizni, eng muhimi, bu borada qanday og`ir yo`llardan, qanday murakkab bosqichlardan o`tishga to`g`ri kelayotganini chuqur anglab etishimiz kerak”<sup>1</sup>.SHuning uchun bu murakkab yo`lda ijod etgan har bir yozuvchi, har bir olim hayotini va ijodini o`rganish, tadqiq etish adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.

**Tadqiqot ob`ekti va predmetining belgilanishi.** Ishning asosiy ob`ekti sifatida SHukur Xolmirzaev esselari olindi. SHu bilan birga adib bilan bir davrda yashagan ijodkorlar tomonidan yaratilgan esselarga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida o`zbek adabiyotining etuk vakili, adib SHukur Xolmirzaev yaratgan esselarni monografik tarzda o`rganish maqsad qilib olingan. Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni echish belgilandi:

¹ Каримов И.А. Адабиётга эътибор- маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент. Ўзбекистон, 2009, 14 - бет.

- o'zbek adabiyotida yozuvchi essenavisligi taraqqiyotini o'rganish va SH.Xolmirzaevning essenavislikda tutgan o'rnini ko'rsatish;
- esse janriga oid nazariy qarashlarni o'rganish;
- yozuvchi esselarining mavzular va obrazlar olamini tadqiq etish;
- adibning esselarini tasnif qilish; obrazlar olamini yoritib berish;
- adib esselarini tahlil etish jarayonida uning o'ziga xos uslubini belgilash;
- adib asarlariga, xususan, esselariga mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan baho berish;
- adib ijodiga, essenavisligiga xos xususiyatlarni aniqlash, uning uslubi va mahoratini o'rganish orqali mahoratini ochib berish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

1. O'zbek adabiyotida mustaqillik yillarida essenavislikda yangilanish jarayonlari kechayotganligi.
2. Essenavislikka bag'ishlangan tadqiqot va maqolalarda janrning turlicha talqini masalasining olib chiqilganligi.
3. Essenavislikda milliy ruhning kuchayishi, zamonaviy qahramonlar yaratishdagi yangilanishlar va uning taraqqiyot tamoyillaridagi oldinga siljish, o'zgarishlar ekanligini yorituvchi tadqiqotlar soni oshayotganligi.
4. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti shakl va mazmun jihatidan yangicha ruhdagi adabiyotga aylanib bormoqda. Bunda esse janridagi o'ziga xosliklarni ochish yo'lidagi izlanishlarning ko'payayotganligi va bunda SH.Xolmirzaevning o'rnini ko'rsatilganligi.
5. Adabiyotshunoslik oldida ana shu ijobiy o'zgarishlarni tahlil va talqin etish muammosi turganligi.
6. Istiqlol davri o'zbek essenavisligidagi ijodiy izlanishlarning SH.Xolmirzaev ijodi misolida umumlashtirilganligi.
7. Esse janri nazariyasining keng miqyosda tadqiq etilganligi. Janr poetikasidagi o'zgarishlar tadqiqiga yangiliklar kiritilganligi va bunda

SH.Xolmirzaevning qo`shgan hissasi ko`rsatilganligi.

9. essenavislikda janrning ilmiy-nazariy asosini tashkil etuvchi yondashuv va usullar talqini. Adib esselari tahlili.

10. Adib esselari tasnifi va badiiy-estetik tamoyillarning yangicha talqini masalasi.

11. O.YOqubov, P.Qodirov, SH.Xolmirzaev kabi ikki asr bo`sag`asida ijod etgan iste`dod sohiblari asarlari talqinlaridagi yangilanish tamoyillari.

13. Adabiy jarayondagi yangilanish va essenavislikdagi bahs-munozaralarga munosabat.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** O`zbek adabiyotshunosligida esse janri haqidagi mulohazalar ba`zi tadqiqotlarda ko`rinadi. Masalan, adabiyotshunos O`.O`taev munaqqid I.G`afurov ijodida adabiy tanqidning maqola, taqriz, ijodiy portret, ochiq xat, dialog, bahs, adabiy fel`eton, adabiy o`ylar, adabiy qahramonlarga xatlar, badia kabi janrlar uchrashini qayd qiladi<sup>1</sup>. Adabiyotshunos N. Rahimjonov, qoraqalpoqlik olim B. Paluanovning nomzodlik dissertatsiyasida, adabiyotshunos olim M.Qo`chqorovanning nomzodlik dissertatsiyasida esse janri, uning xususiyatlari, SH.Axmedovanning o`zbek adabiy tanqidi janrlariga bag`ishlangan doktorlik dissertatsiyalarida adabiy-tanqidiy esse janrining tabiati, taraqqiyoti tadqiq etilgan¹.

B.Valixo`jaevning «O`zbek adabiyotshunosligi tarixi» kitobi mumtoz adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi adabiyotshunoslik va adabiy tanqid janrlari haqida ilmiy-nazariy qarashlarga boyligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda

¹ Ўтаев Ў. Танқид ва услуб. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 59.

¹ Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилolari.Т.Фан, 1991.; Б.Палуанов Қорақалпоқ адабиётида эссе жанри. Филол. фанлари номзоди дис. ... автореф. Нукус, 2002. – 23 б.; Қўчқорова М. Нозирги ўзбек адабиётида эссе жанри. Филол. фанлари номз. ... дис.автореф. – Тошкент: 2004. – 23 б.; Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидининг жанрий таркиби. - Ф.ф.докт.....дисс. Тошкент. 2008. 286-бет.

esse haqida alohida to'xtalmasa-da, olim uning belgilari mumtoz adabiyot va adabiyotshunoslikda mavjudligini ko'rsatadi².

esseistika alohida soha sifatida allaqachonlar shakllanib ulgurgan, essening turli ko'rinishdagi shakllari yaratilgan bo'lsa-da, uning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganishga XX asrning 90-yillaridan boshlab kirishildi (N.Rahimjonov), uning janriy xususiyatlari haqida (M.Qo'chqorova), qoraqalpoq adabiyotida esse janri paydo bo'lishi va shakllanish muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot yaratildi (B.Paluanov). Ikkala tadqiqotda ham sof belletristik ijod namunalari bo'lgan badiiy esselar o'rganilgan. SH.Axmedova esa adabiy-tanqidiy esselarni o'rgangan.

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida yozuvchi, shoirlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy-biografik xarakterdagi tadqiqotlar oltmishinchi-etmishinchi yillarda ko'plab yaratilgan. SHu bilan birga Fitrat, CHo'lpon, A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor kabi yozuvchilarning adabiy-tanqidiy merosiga, faoliyatiga bag'ishlangan shu tipdagi asarlar ham shu yillarda ancha yaratilgani ma'lum. O'zbek yozuvchisi SHukur Xolmirzaev essenavislik faoliyatiga, qarashlariga bag'ishlangan ba'zi maqolalar, tadqiqotlarni hisobga olmaganda, uning shu sohadagi faoliyati yaxlit holda kam o'rganilgan. Adabiyotshunos olimi M.Qo'chqorovanning nomzodlik dissertatsiyasi ayni shu muammoni tadqiq etishga qaratilganligi bilan ilmiy-nazariy qimmatga egaligi ko'rinadi. Olima SH.Xolmirzaev esselarini sof belleteristik esse nuqtai nazaridan tadqiq etgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidagi ko'rsatmalar, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishga doir qarashlari, milliy mafkura ma'naviy qadriyatlarga doir nazariy asarlari tashkil etadi.

² Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Т.: 1993.

Ishning ilmiy-nazariy yo`nalishini belgilashda I.Sulton, H.YOqubov, M.Qo`shjonov, O.SHarafiddinov, N.Karimov, B.Nazarov, A. Rasulov, U.Normatov, N.Rahimjonov, SH.Axmedova, M.Qo`chqorova kabi adabiyotshunos olimlarning asarlari metodologik asos bo`lib xizmat qildi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ishda analitik va qiyosiy- tipologik tahlil metodidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotning natijalari va xulosalari adabiyotshunoslikda tanqidiy–biografik metod namunalarini yaratish, yozuvchilar ijodini o`rganish va shu orqali adabiyot va adabiyotshunoslik taraqqiyotida ularning rolini ko`rsatish, tadqiq etish tajribasiga samarali ulush bo`lib qo`shilishi shubhasiz. SHuningdek, yana ishning xulosalaridan o`zbek tanqidchiligida yozuvchi va munaqqidlarning esse namunalari yaratish muammolarini o`rganishda, o`zbek adiblari va tanqidchilari ijodiga kengroq baho berishda nazariy manba tarzida foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning natijalari akadem litsey va kollejlarda o`zbek adiblari ijodini o`rganish bo`yicha ma`ruzalar o`qishda, amaliy mashg`ulotlar olib borishda, oliy o`quv yurtida adabiyotshunoslikda adib va munaqqid mahorati muammolarini o`rganish, yozuvchi, shoirlar, adabiyotshunos va tanqidchilar haqida esselar, adabiy portretlar yaratish mavzularida kurs ishlari, referatlar yozishda qo`l keladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O`zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining rivojiga katta hissa qo`shgan, jonkuyar va faol adib SHukur Xolmirzaevning essenavislik faoliyati o`zbek adabiyotshunosligida yaxlit holda tadqiq etilmoqda. Etuk adib esselari mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan monografik tarzda yoritib baholanmoqda. Birinchi navbatda, mazkur ishimiz SHukur Xolmirzaevning ko`p jihatdan to`laqonli ilmiy biografiyasini yaratishga xizmat qilishi bilan muayyan qiymat kasb etadi. Bularning barchasi ishimizning mustaqil jiddiy tadqiqot sifatidagi ilmiy yangiligini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining e`lon qilinganligi.** Ushbu ish yuzasidan quyidagi maqolalar e`lon qilindi:

Ishning tuzilishi va joriylanishi. Magistrlik dissertatsiyasi ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat ko`rinishda tuzilgan. U Buxoro Davlat universiteti «O`zbek adabiyoti» kafedrasining 2017 yil, ---sonli kengaytirilgan maxsus yig`ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

1 BOB. O`ZBEK ADABIYOTIDA YOZUVCHI eSSENAVISLIGI TARAQQIYOTI.

1.1. Esse janriga oid ilmiy- nazariy qarashlar tahlili.

XX asr boshlari yangi o`zbek adabiyoti o`z ruhiga mos yangi mazmun va shaklga ega adabiy tanqidni taqozo etdi. SHu bois bu davrda Fitrat, Cho`lpon, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy kabi adiblar badiiy ijod bilan bir qatorda adabiyotshunoslik sohasida ham faoliyat ko`rsatdilar.

XX asrning 30-yillarida adabiy tanqidni rivojlantirishga Oybek, G`afur G`ulom, Uyg'un, Hamid Olimjon, Otajon Hoshim, Sotti Husayn, Izzat Sulton va boshqalar, 40-yillarda esa M. Shayxzoda, A.Qahhor va boshqalar katta hissa qo`shib keldilar. Har bir davrda, bu davr adabiyoti, adabiy tanqidi rivojida munaqqidlar bilan bir qatorda adiblar ham faollik ko`rsatdilar. Bu sohada, ayniqsa, iste`dodli o`zbek adibi Sh.Xolmirzaevning o`rni alohida e`tiborga

molik. Adib ustozlar an`analarini davom ettirib, badiiy ijod bilan birga adabiy jarayonga e`tibor bilan qaradi, adabiy tanqid rivojiga, uning takomiliga o`z hissasini qo`shib keldi. Adabiy tanqidning kurashchanlik ruhini, adabiyotni yuksaltirish jarayoniga ta`sirini, xalqimizni estetik tarbiyalash borasidagi rolini, ijtimoiy mavqeini oshirish masalalariga e`tibor qaratdi. SHu bois o`zbek tanqidchiligida o`ziga xos o`ringa va o`ziga xos uslubga ega bo`lgan iste`dodli adib, o`zbek tanqidchiligi taraqqiyotiga muhim hissa qo`sha olgan munaqqidlardan biri Sh.Xolmirzaevning esse yaratishdagi mahoratiini tadqiq etishga bag`ishlangan magistrlik dissertatsiyamiz mavzusining dolzarbligi ana shular bilan belgilanishi haqida ishning kirish qisimda to`xtalgan edik. Bu masalaga kirishishdan oldin esse janri, uning o`ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritish zarurligi ko`rinadi.

Adabiyotshunoslikda “tutqich bermas janr” deb ta`riflangan (M.Epshteyn) esseda adabiyotshunoslik, estetika, falsafa masalalari erkin tahlil va talqin qilinadi. Aslida esse adabiy, falsafiy, tarixiy, biografik, publitsistik, diniy, sof belletristik va adabiy-tanqidiy mazmunga ega bo`lib, xarakteridan kelib chiqib, barcha fanlar, tabiat va jamiyatning turli tomonlariga tegishli voqelik, shuningdek, adabiyot olami, yozuvchining hayoti va ijodi, asarlari tahlili qalamga olinadi.

erkin tuzilishga ega, juz`iy mavzularda, shaxsiy mulohaza va qarashlarni ifodalovchi esseda adabiyotning, adabiyotshunoslikning turli sohalaridagi da`vo va xulosalardan foydalanish orqali muallif o`zining shaxsiy qarashlarini dalillashga intiladi. esseda adabiyotshunoslik qonun-qoidalariga to`la-to`kis rioya qilish, boshqa janrlarda bo`lgani kabi dalillar ilmiy jihatdan har tomonlama isbotlangan bo`lishi ko`pam talab qilinaverilmaydi¹.

¹ Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – 477 с.

essening boshqa janrlardan ajralib turadigan xususiyatlari adabiyotlarda turlicha ko`rsatiladi. Bu haqda filologiya fanlari doktori SH.Axmedova doktorlik dissertatsiyasida adabiyotlar sharhiga quyidagicha to`xtaladi: “Ingliz adabiyotshunosligida esse adabiy janr sifatida adabiy atamalar lug’ati va entsiklopedik lug’atlarga kiritilgan. Ularda janrga xos qisqalik, erkin kompozitsiyalilik, maxsus fan tarmoqlariga xos mulohazakorlik belgisi, essening janriy chegarasi aniqlanmasligi, aniq bir to`xtami yo`q ekanligi e`tirof etiladi. Rus adabiyotshunosligida esse janriga: “Unchalik katta hajmga ega bo`lmagan, erkin kompozitsiyali, maxsus mavzuga bag’ishlangan, shaxsiy mulohaza va taassurotlar asosiga qurilgan belleteristik janr”,-deb ta`rif berilgan Bu fikrni tasdiqlab va qo`shimcha qilib, M.Qo`chqorova yozadi: “To`g`ri, jahon essechiligidagi bir necha lirik, fantastik xarakterga ega bo`lgan esselarni hisobga olmaganda, esse sof nasriy ijod namunasi”¹. Nazarimizda, bu fikr essenini bir oz chegaralab qo`ygandek. Chunki essening falsafiy, publitsistik, siyosiy, adabiy-tanqidiy ko`rinishlarini hisobga oladigan bo`lsak, ular faqat “sof” badiiy ijod namunasi bo`lmay, imkoniyatlari keng janrligi yaqqol ayonlashadi.

“Esse (frantsuzcha – urinish, sinov, ocherk). Adabiy shakl, muallifning shaxsiy qarashlarini bayon qiluvchi katta bo`lmagan nasriy matn”².

Bu fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin: esse har xil mavzularda, turlicha mazmunda yaratiladigan (lirik, falsafiy, belletristik, publitsistik, tanqidiy va h.k.), erkin fikrlashga, muallif “men”i, his-tuyg’ularining chuqurligi va teranligiga asoslanadigan janr bo`lib, unda ijodkor o`rni muhimdir. esse juda keng imkoniyatlarga ega, uning erkinligi (hech kimga buysunmasligi), teranligi xos xususiyatlaridan biridir”³.

N.Rahimjonov essegga xos jihatlarni fikrning erkin, tabiiy ifodasi ekanligida, u qalbdagi his-tuyg’ular jo`shganda, fikr pishib etilganda bir turtki tufayli

¹ Qўчқорова М.

² Интернет маълумотларидан.. Эссе.

³ Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидининг жанрий таркиби. Ф.ф.докт.дисс.....Тошкент. 2008. 158-бет.

qog'ozga "sochilishi" deb to'g'ri ko'rsatadi.

Bizningcha, esega xos xususiyatni ko'pincha yozuvchilar to'g'ri belgilab berganlar. Asqad Muxtor essen "erkinlik" janri deb atagan. SH.Xolmirzaev "Bu janr hikoya, ocherk janridan juda yosh bo'lishiga qaramay, yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi, ya'ni esse yozguvchi adib tasvirlayotgan yoxud bayon etayotgan voqea-hodisaga-yana o'sha gap: inson qismatining ma'lum davri bo'lagiga nisbatan o'z munosabatini (ocherkdagi kabi) ochiq-oshkora bildirib turishi barobarida (bu yo'rug'da) o'z ko'nglida tug'ilgan qandaydir hishayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bimalol yozish imkoniga egadir. Demak, aytish mumkinki, esse janri ocherk bilan hikoya o'rtasidan o'sib chiqqan janr-tasvir usulidirki, u maqola- maqola ilmiy bo'ladimi, badiiyoq bo'ladimi, baribir,- maqolaga xos unsurlardan ham foydalanadi, to'g'rirog'i, ularni-da, o'ziniki qilib oladi", -deydi.

Tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan SH.Xolmirzaev esselari sof belleteristik hamda adabiy-tanqidiy janr sifatida badiiy adabiyot, adabiyot tarixi va hozirgi jarayonning muayyan muammolari, yozuvchi hayoti, ijodi to'g'risidagi mushohada va muhokamalar majmui sanaladi. SHuningdek, o'zbek tanqidchiligida esse va badia atamaları turlicha ishlatiladi. N.Rahimjonov esse va badia istilohlarini ajratmay almashtirib qo'llaydi. M.Qo'chqorova esa "esse badiaga nisbatan keng tushuncha" deb hisoblasa-da, ularning farqli jihatlarini chuqur ochib bermaydi. Negaki, badiada ham esega xos barcha xususiyatlar mavjud, shu bois ularni sinonim sifatida ishlatish eng to'g'ri yo'ldir. Muallif ta'kidlagan "turli xil fanlarga xos mulohaza va taassurotlarni aks ettirish" adabiy-tanqidiy esseda ko'p uchraydi. SHu bois esse-roman, badia-roman, esse-qissa, badia-qissa atamasi qorishiq holda ishlatilaveradi. Bizningcha, mumtoz adabiyotshunoslikda badia so'zi esse ma'nosida ishlatilmagan. U turli janrlar tarkibida qorishiq tarzda namoyon bo'lgan. SHuning uchun jahon adabiyoti va adabiyotshunoslik ilmidagi "esse" atamasini qo'llash joiz.

esse uslubida ifoda vositalarining chegarasizligi ko'zda tutiladi: obrazlilik bilan birga turli fanniy-ilmiy omillar, statistik raqamlar, tarixiy va biografik

ma'lumot, xullas, ko'p sohalardan dalil va mantiqiy vositalar keltirilishi mumkin. SHaxsiy mulohaza esseda muallif badiiy hofizasining quvvati, saviya sajiyasi va doirasi, hayotiy tajribasi, hikmatgo'ylik mahorati, tafakkur qobiliyatini ko'rsatib turadi, zero, bu janrga ko'pincha falsafaga moyil mulohazakor nosirlar murojaat qiladilar¹.

esseda inson va jamiyatning ma'naviy tafakkurini shakllantiruvchi erkin mulohazalar ifodalanadi. SHuning uchun essening barcha ichki ko'rinishlarida ijodkor shaxsi, uning tafakkur olami, dunyoqarashi bosh qahramon sifatida gavdalanadi. essenavis adib yoki munaqqid o'z asarida muayyan adabiy-badiiy hodisalar haqidagi o'z taassurot va mulohazalariga, san'atkor tarjimai holi va badiiy asar qahramonlarining real hayotiga doir qiziq voqealar tasviri, tabiatning dilbar manzaralari, turli shahar va qishloqlar badiiy peyzaji, tahlil etilayotgan mavzu va hodisalar haqida kitobxon bilan bevosita erkin muloqot qilishga keng o'rin beradi.

erkin, hech qanday tazyiqsiz, majburiyatsiz mushohada yuritish, mulohazakorlik va fikrlashish madaniyatining yuqoriligi essening asosiy xususiyatlaridan biridir. SHunday fikr yuritish, suhbat mazmuni, mohiyatan turli xil ilmiy, badiiy shakllarda (yozuvchi va tanqidchi dialogi, qaydlar, badiiy etyud, kundalik) namoyon bo'lmoqda.

essening tarixiga bir nazar. XV1 asrda yangi tafakkur ko'rinishini adabiy jarayonga olib kirgan farang mutafakkiri M.Monten' "Esselar" asarida janrning nazariy asoslarini yaratdi. Muallif asarning "Kitobxonga" deb nomlangan muqaddima qismida shunday e'tirof etadi: "Kitobxon, bu - samimiy asar. Men bu asarni eng yaqin jigarbandlarimga atab yozganman. Qandaydir shon-shuhrat orttirish uchun emas, kitob orqali ma'naviy qiyofam, fe'l - atvorim, sajiyamni qayta tiklab eslashlarini istayman....bu kitobning mazmuni – men o'zim..."¹. SHu

¹ Ахмедова Ш.

¹ Монтень М.Опыты. 3 книг. М-Л: Академия на СССР. 1958. Книга.1.– 189 с.
Кўчирма Ш.Ахмедованинг диссертациясидан олинди. 162-бет.

bois Montening ko'pgina esselarida janr nuqtai nazaridan chiqib keladigan o'ziga xos formulasi mavjud,- deb yozadi epshteyn.

Haqiqatan ham yozuvchi essesda, eng avvalo, uning “men”i aks etadi. esseda ijod etuvchi san'atkorning adabiy o'ylari adabiylik va emotsionallik bilan chatishib ketgan fikr-mulohazalarning ko'rkam sintezini tashkil etadi. Bu jihatdan, ayniqsa, Mirtemir, P.Qodirov, A.Muxtor, SH.Xolmirzaev kabi yozuvchilar esselarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Zotan, esse janrining asosiy xususiyatlaridan biri - tanqidchi hissiy tafakkurining teran namoyon bo'lishidir.

Fransuz adabiyotida vujudga kelgan falsafiy – estetik, badiiy xulosalarida inson va jamiyat ruhiyatini shakllantiruvchi fikrlarni o'zida aks ettirgan **esse** janri o'zbek adabiyotida XX asrning 60-yillarida adabiy o'ylar, xotiralar, qissa, maqola tarzida paydo bo'ldi. Hayotiylikka asoslangan badiiy tafakkurning namoyon bo'lishi esa, 90-yillarda bu janrning yaqqol namoyon bo'lishini ta'minladi. Va shu yillardan boshlab bu janrning ilmiy-nazariy jihatlar ham o'rganila boshlandi.

O'zbek adabiyotida SH.Xolmirzayevning essegga bergan ta'rifiga mos keluvchi belgilarni mumtoz adabiyotimiz namunalarida ham uchratamiz. Xususan, Alisher Navoiyning, “Xamsat-ul muttaxayyirin” asari bu janrning sinkretik tarzda ancha oldin paydo bo'lganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida “manoqib” atamasiga shunday ta'rif berilgan: “Manoqib (arab. fazilat) – buyuk kishilar, atoqli san'atkorlar, shuningdek din namoyondalari haqida yozilgan xotira asar. Manoqib, asosan, shu kishilarning hayot yo'li bilan tanishish yoki maslakdosh bo'lgan kishilar tomonidan yozilgan”¹. Demak, manoqib o'z zamonasining shoir va yozuvchilari haqidagi risolaga o'xshash asarlar sanaladi. Manoqiblarning aynan essegga yaqinligini bilish uchun esa, XX asr o'zbek adabiyotida yaratilgan yozuvchi Shukur Xolmirzayevning esselariga nazar tashlash kifoya. Agar Alisher

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент.??????????????

Navoiy o'z manoqiblarida do'stlari, ustozlari Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Abdurahmon Jomiylar haqida o'z xotiralari va ular bilan yuz bergan adabiy, ilmiy, siyosiy suhbatlar, yozishmalarini bayon etgan bo'lsa, Shukur Xolmirzayev ham o'z esselarida so'z san'ati namoyondalari : Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, O'lmas Umarbekov, Odil Yoqubov kabi qalamkash do'stlari, rassom Ro'zi Choriyev, xalq artisti Botir Zokirov, rejissor B. Nazarov, ustози Matyoquv Qo'shjonov va ko'plab jamoat arboblari bilan bo'lib o'tgan qiziqarli voqealarni o'z kitobxoniga so'zlab beradi. Shu bilan birga essening janriy talablariga mos ravishda o'z ichki kechinmalarini ham bayon etib boradi. Bu qiyoslash orqali biz esse mumtoz adabiyotimizdagi manoqibning aynan o'zi degan fikrdan yiroqmiz. Garchi esse janri fransuz adabiyoti orqali rus adabiyotidan kirib kelgan bo'lsa-da uning janriy xususiyatlari va o'ziga xosliklarini o'zbek mumtoz adabiyoti namunalaridan izlagan to'g'riroq. Bu essening o'zbek adabiyotiga xos bo'lgan milliy xususiyatlarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Demak, olam va odamning ruhiyatiga xos sinoatlarni hayotiy tajribalar asosida falsafiy mushohada etishga asoslangan esse janri o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham ma'lum davrni bosib o'tgan va alohida janr sifatida maydonga kelgan.

Navoiy bu ulug' zotning ijodiy didi yuksak bo'lganini alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, bir ajib voqea bo'lganini xotirlaydi va asariga kiritadi:

“Pahlavon iltifot yuzidin ma'xud dasturi bila egnimni tutar erdi, muqaddima bunyod qildikim:

— Seni bu kun derlarkim turkcha she'rni yaxshi aytursen va turkcha nazm aytur eldin eshitib, bizga bu so'zni musallam tutarlar. Bizning bir savolimiz bor.

— Javob beray, siz bori savolingizni ayting.

Dedi:

– Savolimiz budurki, turkiyo‘y, shuaro din ulcha she‘rlari ro‘zgor safhasida sabtdur, qaysi yaxshiroq aytibdurlar? Va sening aqidang aning yaxshi aytmoqig‘a borur, sen begonursen?

Faqir dedim:

– Borchax yaxshi aytibdurlar, men begonurmen.

Pahlavon dedi:

– Sen takalluf va kasri nafsni qo‘y, voqe‘ yuzidin so‘z aytki, buki: borini begonurmen dersen, borchax xud birdek emas, albatta tafovut bor.

Faqir ayttingim: – Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning ustodi va maliku-l-kalomidur.

Dedi: Nechuk Sayid Nasimiy demading?

Faqir dedim:

– Xotirg‘a kelmadi va bar taqdir kelmoq, Sayyid Nasimiyning nazmi o‘zga rang tushubdur, zohir ahli shuaro sidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g‘arazing majoz tariqida aytur el erdi.

Pahlavon e‘tiroz yuzidin kinoyatomuz dediki: – Ravo bo‘lg‘ayki, Sayyid Nasimiy borida Lutfiy nazmini pisand qilg‘aysen va hol ulkim, Sayyid Nasimiyning nazmi zohir yuzidin majoz tariqig‘a shomildur va ma‘ni yuzidin haqiqat tariqig‘a va yuqori bitgan baytni o‘qudikim, faqir bu sahar aytib erdim. Chun matla‘ni o‘qudi, o‘zga ab‘yotin ham mutaoqib bayon qildi va taxallusikim, bu nav‘ voqe‘ bo‘lubturkim:

Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko‘rsa ranj,

Yo‘q ajab, nevchunki, xom etgan kishi ranjur erur.

«Navoiy»ni «Nasimiy»g‘a tag‘yir berib o‘qudi va filvoqe‘ bu baytda Navoiy lafzidin Nasimiy lafzi munosibroqdur va faqir mutaajjib bo‘ldum. Ohistaroq

ilgimni jaybimg'a elttim va mulohaza qildim: o'zum bitib jaybimg'a solg'on musavvada mavjud erdi, hayratu taajjubim ortti. Va Pahlavon hamul aytgan so'zni ioda qiladur erdi va ul she'rning abyotin mukarrar o'qur erdi. Va bu faqir betahammul bo'lub so'rdumkim, ul ish kayfiyatini ma'lum qilg'aymen. Ul o'zin yiroq tutti va o'z so'zida rusux ko'prak zohir qildi. Faqir mubolag'a qilg'on soyy Pahlavon ham mubolag'a ko'rguzdi. Zarurat yuzidin so'rdumki:

– Bu she'rni qachon yod qilib tutub erding?

Dedi: – O'nikkiyil bo'lg'ayki, Bobur mirzoning majlisida bu she'r o'tarerdi, menga bag'oyat xushkeldi, bitib olib yodtuttum.

Bori har hol bila bukun o'tti, ul tak'yasig'a bordi. Tongla hamul dastur bila yana keldi, yana suhbat bo'ldi, yana bu so'z orag'a tushdi. Yana faqir so'rdum va illoh qildimkim, bu ish kayfiyatini ma'lum qilg'aymen. Bu qatla xud dediki:

– Ul vaqtiki, men bu she'rni yod tuttim, kushtigirlardin ham nechasi bor erdilar ham o'rgandilar, – deb uch-to'rt piyoda sort kushtigirniki, aning bila kelib erdilar tilab dediki: «O'qung, andoqki mening bila o'rganib erdingiz». Alar dag'i paydarpay ravon o'qudilar. Faqirg'a taajjub ustiga taajjub voqe' bo'ldi va Pahlavon so'zi sidqida mubolag'a qilur erdi. Agarchi mubolag'a xojat emas erdi, nevchunkim, sidqi da'vosida necha tonuq ham o'tkardi.

Oqibat andoq ma'lum bo'ldikim, egnimni ulaydurg'onda jaybimda qog'oz ko'rubtur, ohistaliq bila ul qog'ozni chiqorib ko'rubtur va ma'lum qilibdurki, ushbu yaqinda aytilg'on she'rdur. U qog'ozni ochuq yonida qo'yubdur va yod tutubdur ...” (26-27).

Holot – lug'atdaholatningko'pligi – “holatlar”, “ahvol”; adabiyjanrsifatidama'lumbirmu'tabarzot ilm va adabda mumtoz so'fiyning hayoti va fazilatleri haqida hikoya qiluvchi asarni anglatadi. Masalan, Alisher Navoiyning “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi asarlarni kiritishimiz mumkin. Bunday asarlarda bir kishining hayotini aks

ettirish bosh maqsad qilib qo'yilsada, ma'lum bir jamiyatdagi umumiy ahvol, shart-sharoitlar, o'sha davrga xos bo'lgan chizgilar ham aks ettiriladi⁴.

Manqaba(t) – lug'aviy ma'nosi "yaxshi sifat", "maqtov"; istilohda ma'lum bir ulug'zot – ulug' pirlardan birining fazilatlari maqtalgan asar, risola. Manqabalar uchun xuddi G'arbdagidek xalq hikoyatvari voyatlar uslubiy asos bo'lib xizmat qildi. Lekin ularning eski hikoyat va rivoyatlardan farqli jihati ilohiyot mafkurasining ustuvorlik kasb etishidir. Sodir bo'layotgan har bir hodisa ilohiy taqdir va ilhom natijasi ekani manoqiblarning muhim xususiyati sanaladi. Shuning uchun ham ularda asosan payg'ambar, avliyo yoki unga tenglashtirilgan shaxsning hayotidagi g'ayri oddiy hodisalar tavsif qilinadi. *Manoqib* – manqabaning ko'pligi.

"Ko'zga tashlangan etakchi belgilariga ko'ra ham badialar ko'proq lirik janrlarga yaqin turadi. Jamiyat hayotini, davrini, voqelikni, odamlar taqdirini, san'atkor "men"i orqali idrok etish va estetik baholash printsipligiga ko'ra ham ana shunday fikrga kelasani kishi"². To'g'ri, esseda lirik janrga xos xususiyatlar bor, ammo ular publitsistik ruh, hujjatli nasr, falsafiy o'y-mulohaza, lirik kechinma, real hayot-voqelik dalillari, hodisalarning organik uyg'unligi yagona bir qorishqlik (sinkretik)da zuhur topayotir. SHu ma'noda she'riyat, nasr va dramada kuzatilgani kabi esseda ham diffuziylanish (shimilish, singish) hodisasi ro'y bermoqda. SHu bilan barobar, umumlashma xarakterdagi ilmiy-nazariy fikrlar, erkinlikning ustuvorligi esselar tabiatini belgilaydi va uni tanqidning alohida bir janri sifatida qarash imkonini beradi. Uning adabiy o'ylar deb nomlangan shakli borki, ular ko'proq yozuvchilar ijodida uchraydi.

Adabiy o'ylar. YOzuvchining adabiy o'ylari san'atkor ijodiy laboratoriyasiga yo'l ko'rsatishi, adabiy jarayon, adabiyot haqidagi umumlashma kuzatishlari, ulardan ilmiy-nazariy xulosa chiqarishi jihatidan adabiy tanqid rivojida katta ahamiyatga ega. Bu siradagi asarlarda o'ylar, adabiy-tanqidiy

⁴Комилов Н. Дарвеш Саййид Насан таърифида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1990. - № 6. – Б. – 8.

² Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилolari. 28-бет.

qarash va adabiy kuzatishlar qorishiq holda keladi. SHuni qayd etish kerakki, taniqli yozuvchilar asarlari adabiyot rivojida qanchalik katta o`rin tutsa, ularning adabiy-tanqidiy maqola, adabiy o`y, qaydlari ham adabiyotshunoslik kamolida shunchalik muhim o`rin tutadi. Zotan, yozuvchi ushbu yo`nalishdagi asarda tanqidchi va tadqiqotchi sifatida namoyon bo`ladi. Tanqidchi I.G`afurov ham ilk kitobini adabiy o`ylar shaklida kitobxonlarga taqdim etgan edi. Hassos shoir erkin Vohidov adabiy jarayonning sergak kuzatuvchisi sifatida qator maqolalar, xotralar, esselar yaratdi. Uning «SHoiru she`ru shuur» nomli kitobi biz tilga olayotgan masala nuqtai nazaridan e`tiborga loyiq. Mazkur kitob "YOzuvchi va davr" ruknida nashr etilgan bo`lib, bu yo`nalishda Mirtemir, Asqad Muxtor, A.Oripov, O`.Hoshimov kabi ijodkorlarning asarlari nashr etilgan. Kitobdan e.Vohidovning ijodiy faoliyati davomida yozgan va adabiy jarayonning ma`lum bosqichlarida ko`tarilgan muammolar aks etgan maqolalar, adabiy o`ylar, mumtoz she`riyatimiz talqinlari, adabiyotimizga kirib kelgan yosh avlod haqidagi mulohazalar, safar xotiralari, shoirning adabiy- tanqidiy qarashlari o`rin olgan. e. Vohidov kitobning janrini "Adabiy o`ylar" degan nom bilan ham ataydi, oxirida "Adabiy esselar" ham deyiladi. Aslini olganda, mazkur kitob haqiqatdan ham ijodkorning adabiy o`ylaridan iborat.

XX asr 60-yillaridan boshlab, Mirtemir, Zulfiya, H.G`ulom, SHukrullo, A.Oripov, O`.Hoshimov kabi atoqli shoir va yozuvchilarning adabiy-estetik qarashlarini o`zida mujassamlashtirgan esselari nashr etildi. Bu hol adabiy tanqidning yangi kamolot pallasiga kira boshlaganidan, adabiy-tanqidiy va estetik tafakkurning yangi bosqichga ko`tarilayotganidan darak beradi. Ushbu turkumdagi asarlarda adiblarning o`z ijodi, shaxsiyati, tabiati xususidagi, shuningdek, badiiy adabiyot, adabiy jarayon, milliy madaniyatimiz xazinasini ijodiy boyitgan asarlarning tug`ilishi, yozilish jarayoniga doir fikr-mulohazalari keng o`rin olgan.

O`zbek adabiyotshunosligida essening adabiy o`ylar deb atalgan shakli- A.Muxtorning "YOsh do`stlarimga", P.Qodirovning "O`ylar", A.Oripovning

"Ehtiyoj farzandi", e.Vohidovning "SHoiru she`ru shuur", O`.Hoshimovning "Notanish orol" to`plamlarini asosan ana shunday esselar tashkil qiladi⁵.

Esseda janrida qalam tebratuvchi ijodkorning adabiy o`ylari, mushohadalari adabiylik va emotsionallik bilan chatishib ketgan fikr-mulohazalarining ko`rkam sintezini tashkil etadi. Bu jihatdan, ayniqsa, e.Vohidovning adabiy o`ylarini alohida ta`kidlab o`tish mumkin.

YOzuvchi essesining o`ziga xosligi, avvalo, quyidagi belgilarda ko`rinadi: ularda faqat muallif individualligining muhri hisoblangan ichki emotsional to`lqin kishini o`ziga jalb etadi, bu narsa adibning nozik ijodiy tabiati, aniq nuqtai nazari bilan xarakterlanadi, qolaversa, bunday ruhiyat manzaralarining tovlanishlari esseda badiiy etyudlarni, qaydlarni, qatra-qatra fikr-o`ylar silsilasini tashkil etadi. YOzuvchilarning adabiy o`ylarida tasavvur, his-tuyg`u, fikrlarning o`zaro bog`lanishi, tafakkurning kuchli parvozi uning keng o`quvchilar ommasi ko`ngliga olib kirgan asosiy fazilatlaridan ekanligida ko`zga tashlanadi. Bunday analitik tafakkur kitobxonni seahrlaydi.

Adabiy-tanqidiy esse. «Erkinlik janri» esseda imkoniyatlar chegara bilmaydi, «ushlab bo`lmas, chegaralari aniqlanmas» (M.Epshteyn) janrda fikr-tuyg`ular oqimining quyilib kelishi, erkin mulohazalarning ustuvorligi essenavislar uchun qulaylik tug`diradi. SHu bois bu janr falsafaga moyil yozuvchi va munaqqidlar ijodida ko`p uchraydi.M.Qo`shjonovga bag`ishlangan faslda bu haqda yana to`xtalamiz.

esselar sof falsafiy, publitsistik, adabiy- tanqidiy, tarixiy-biografik, sof badiiy xarakterda yozilishi mumkin. YOzuvchi tanqidi ko`pincha esse janrida yoziladi. Unda hayot va ijod tajribasidan kelib chiqqan xulosalar, qarashlar, kuzatishlar aks etadi. Bu tipdagi asarlar bizda ham ancha ilgari avliyolar haqidagi manoqiblar shaklida, adiblar va tarixiy shaxslar haqida ("Makorimul-axloq","Temurnoma") memuarlar shaklida mavjud edi. Aslida madaniyat arbobi, ijodkor shaxs haqidagi roman tipi Evropa adabiyotida o`tgan asrda shakllangan edi. Unga frantsuz yozuvchisi Andre Morua asos soldi. XX asr boshlarida

⁵ Ахмедова Шоира. Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари. Тошкент. 2008. 124- бет.

Gor'kiy taklifi bilan Romen Rollan shu tipdagi ko'plab tarixiy-biografik romanlar ijod qildi. O'zbek adabiyotida yaratilgan bunday esse-romanlarni mavzu jihatdan uchga bo'lib o'rganish mumkin:

1. O'tmishning ulug' mutafakkirlariga bag'ishlangan esselar. Bu tipga A.Qayumovning "Abu Ali ibn Sino", "Beruniy", "Alisher Navoiy", I.Timofeevning "Beruniy" (1986), SH.Sultonov va K.Sultonovlarning "Umar Xayyom" (1987), Radiy Fishning "Jaloliddin Rumiy" (1988) asarlarini kiritish mumkin.

2. Mashhur shaxslarga bag'ishlangan esse-romanlar, akademik tarixshunos olim Bo'rivoy Ahmedovning "Ulug'bek" va "Amur Temur", K.YUsupovning "General Sobir Rahimov", B.Reksov va T.Sedovning "Usmon YUsupov" asarlari misol bo'la oladi.

3. XX asr o'zbek adabiyoti va san'ati namoyondalariga bag'ishlangan esse-romanlar (Ajoyib kishilar hayoti" seriyasi).

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotida esse janri o'ziga xos o'rin egallab, yozuvchilar, shu bilan birga munaqqidlar ijodidan o'rin ola boshladi. Uning turli shakllari vujudga kelib, adabiyotni, adabiyotshunoslikni boyitib kelmoqda. Iste'dodli adib SH.Xolmirzaev ijodida ham bu janr muhim o'rin egallaydi, adib mahoratini, uslubini qiyofasini namyoon etuvchi xususiyat kasb etib keldi.

1.2. Adibning hayot va ijod olamiga bir nazar

Zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakillaridan bin **Shukur Fayzullo o'g'li Xolmirzayev** 1940-yil 24-martda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida dunyoga keladi. Otasi asli Bulung'urlik bo'lib, 1937-1938-yillarda Boysunga ketishga majbur bo'lgan. Shukur Boysundagi o'rta maktabni tugatib, 1957-1962-yillarda ToshDUning filologiya fakultetida o'qiydi. Shundan so'ng u Toshkentdagi bir qator nashriyot, gazeta va jurnallarda mehnat qiladi. Shukur Xolmirzayev

buyuk aktyor Shukur Burhonov rahbarligida tashkil etilgan to'garakda Gamlet rolini o'ynagan, Ofeliya rolini o'ynagan Saida ismli qizga uylangan. Adib Shukur Burhonov haqida hujjatli esse, Matyoqub Qo'shjonov haqida "**U ustoz — men shogird**" nomli hujjatli esse- xotira qissa yozgan. Adibning birinchi qissasi «Oq otli» (1962) deb, birinchi hikoyasi «Xatarli so'qmoqda» deb nomlangan. Uning ilk qissasi «Oq otli» tog' bolalari hayotidan hikoya qiladi.

Shukur Xolmirzayev yozuvchilar uyushmasining «Oubek» mukofoti, Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, Termiziy mukofoti laureati, O'zbekiston xalq yozuvchisi, (1991). "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi bo'lgan edi.

Asarlari: "Tog'lar orasida" (uning kitob holidagi nomi "Oq otli", 1962, birinchi qissasi), "To'lqinlar" (uning kitob holidagi nomi "Bukri tol", 1963. Bu qissani Sh.Xolmirzayev talabalik yillari yozgan va u Abdulla Qahhorning tabrigiga sazovor bo'lgan. Unda muallif muhit va sharoit tasviriga yetarlicha e'tibor bermagan), "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" (1964, «yoshlar haqida qissa» deb ta'riflangan), "Bulut to'sgan oy" (1997) kabi qissalari, "So'nggi bekat" (1976, adibning roman janridagi dastlabki asari), "Qil ko'prik", "Yo'lovchi" (1987), "Olabo'ji" (1991), "Dinozavr" (1996, **asar** qahramonlari: Mahkam, Jamoliddin, Shaxlo, Abzal, Toirov va boshq.) kabi romanlari, "Yovvoyi gul", "Bahor o'tdi", "Bitiktosh", "Yashil "Niva"", "Ozodlik", "Hayotabadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Ustoz", "Ko'k dengiz", "Tabassum" (1984), "Bodom qishda gulladi" (1985), "Shudring tushgan bedazor", "Qadimda bo'lgan ekan", "Quyoshku falakda kezib yuribdi" (bu hikoya ma'lum ma'noda «Dinozavr» asari eskizidir), "Navroz, navro'z" (asar qahramonlari: Sulton, Obid Odiljonovich, Joniql Jondorov), "Xumor" (hikoyada bir millat, bir mamlakatning ma'lum bir bosqichdagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida o'z xarakterini o'zi ochish yo'sinida yoritilgan), "Zov ostida adashuv" («Hayvonlarni, jonivorlarni o'z nomlari bilan atashmaydi, masalan, polvon — ayiq, arg'amchi — ilon, jondor — bo'ri» deyilgan) kabi hikoyalari, "Taqdir bashorati" (1968), "Yo'llar, yo'ldoshlar" (1973), "Yur, tog'larga ketamiz" (1976), "Cho'loq turna" (1978), "Tuproq ko'chalar" (1978), "Qush tili" (1982), "Qahramonning so'nggi kunlari" (1984),

"Tog'larga qor tushdi" (1986), "Abdulla Nabi o'g'lining so'nggi kunlari" (1983), "Esiz, Eshniyoz" (1988) kabi hikoya va qissalari, "Qora kema", "O'zbeklar", "Qariya" (bu hikoyada bozor kunlarida jarchilik qilib mol egasidan cho'tal oladigan, sholi yetishtiruvchi koreyslarga qish kunlarida laqqa cho'g' yetkazib beradigan, pishiqchilik mahalida bozordagi qovun-tarvuz po 'choqlarini chelakka yig'ib yuradigan" Qo 'ziboy chol obrazi berilgan) va boshq.

Shukur Xolmirzayevning ijodi o'quvchilik yillaridan boshlandi. Shukur Xolmirzayevning talabalikda yozilgan «To'lqinlar» (1963) povesti zamondoshlarimizning murakkab taqdirini qalamga olinishi va o'ziga xos mahorati bilan Abdulla Qahhorning e'tiborini tortgan va ulkan adib student Shukurga maktub bitib, uni qutlagan edi. Bu haqda yana to'xtalamiz.

Shukur Xolmirzaevning hikoyalarini o'qir ekamiz, qalbimizda qandaydir bir tuyg'u hukm suradi. Bu tuyg'u o'z yurtiga, tabiatiga muhabbat, qalbi pok, halol, o'z vijdoniga qilcha bo'lsa ham qarshi ish tutmaydigan odamlarning amal qilgan ishiga tasanno aytish hissidir.

Yozuvchining «O'n sakkizga kirmagan kim bor?» (1965), qissasi avlodlar qismatiga, aniqrogi o'z avlodi — tengqurlari hayotiga bag'ishlangan bo'lib, voqelik ilk muhabbat iztiroblari tarixida tasvirlanadi. Muallifning keyingi ijodi — «Olis yulduzlar ostida» «Hayot abadiy», «Og'ir tosh ko'chsa...» hikoyalar to'plami, «So'nggi bekat», «Qil ko'prik» «Yo'lovchi», «Olabo'ji» romanlaridir.

Shukur Xolmirzayev ijodining alohida xususiyati shundaki, bu adib o'zbek milliy hikoyachilik san'atini ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'tardi. Uning povest va romanlari hech qolishga sig'mas, tesha tegmagan obraz, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi.

San'atkor dramaturgiyaga qo'l urib, «Qora kamar» asarida bosmachi tamg'ali o'zbek vatanparvarlarini ilk bor ulug' ozodlik, mustaqillik g'oyasi uchun qahramonona kurash olib borgan fidoyi millatparvarlar qiyofasida haqqoniy badiiy aks ettirib berdi. Shukur Xolmirzayev asarlari turli tillarga tarjima qilingan.

Keyingi yillarda adibning «Bodom qishda gulladi» (1968), «Soʻnmas olov» (1985)' «Toglarga qor tushdi» (1987) asarlari yaratildi. Yaqinda esa uning «Olaboʻji» romani nashr etildi. U 1989 yilda Hamza nomidagi Davlat mukofotiga, 1991 yilda Oʻzbekiston xalq yozuvchisi unvoniga musharraf boʻlgan.

Shukur Xolmirzayev oʻzbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshib kelgan sanʼatkorlardan biri boʻlib qoladi. Adabiyotshunoslik adib ijodini oʻrganishga eʼtibor bilan qaradi. Uning hikoyalari, roman va qissalariga oʻz vaqtida baho berdi, hozirgacha yozuvchi ijodi oʻrganilib kelinmoqda. Masalan, adabiyotshunos olim U.Normatov SH.Xolmirzaev ijodiga toʻxtalar ekan, “Dinozavr” romani mavzu-materiali, mazmun–mundarijasi jihatidan oʻta zamonaviy asarligini ochib beradi. Unda shu kunning nafasi ufurib turibdi, mamlakatdagi, jamiyatdagi tub burilish, bozor iqtisodiga oʻtish jarayonida odamlar tabiati, ruhiyati, taqdirida, oʻzaro munosabatlarida yuz berayotgan oʻzgarish, evrilishlar qalamga olinadi, odamlarning shu kungi kayfiyati xuddi koʻzguga solib koʻrsatiladi. SHuni taʼkidlab aytish mumkinki, hozirgi tub burilish asosidagi odamlar ruhiyatidagi oʻzgarishlar, ularning kayfiyati oʻzbek adabiyotida birinchi marta “Dinozavr” orqali roman koʻzgusida oʻz aksini topganligini tanqidchi U Normatov toʻgʻri qayd etadi¹. Ammo tanqidchi adibning boshqa asarlariga toʻxtalmaydi. Adib va adabiyotshunos olim X. Doʻstmuhammedovning "Hozirgi oʻzbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi"deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida adibning hikoyanavislik mahorati oʻrganilgan.

Adibning oʻzi ham adabiy jarayonga oʻz munosabatini bildirib borgan edi. Atoqli adib SHukur Xolmirzaevning zamonaviy oʻzbek nasri, xususan, yoshlar prozasi muammolariga bagʻishlangan dastlabki munozaraga «Kechirasiz, janob Carpenter, vaqtim ziqroq» sarlavhali maqolasi² turtki berdi. Unda bugungi nasrimizdagi etakchi anʼanaviy realistik uslub bilan birga modern uslubida ham

¹ Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т. “Маънавият” , 2000, 53-бет.

² Ш. Холмирзаев «Кечирасиз, жаноб Карпентер, вақтим зiqроқ»// ЎзАС, 2000, 27.07.

asarlar yaratilayotgani qayd etiladi. Muallif yosh yozuvchilarning qissa va hikoyalarga e'tiborini qaratadi. Realistik uslub imkoniyatlarini yuqori baholagan holda, «modern» uslubida yaratilayotgan asarlarga ham xolis baho berishga harakat qiladi. Jumladan, u yozuvchi SH.Hamroevning qissa va hikoyalari haqida gapirib, ular «...mening realistik usulimdan ming chaqirim narida, ko'proq xayolga, xayolning ham pinhoni o'yinlariga qurilgan va daf'atan kishiga beo'xshov bo'lib tuyilsa-da, siz unga ishonasiz», – deb yozadi.

SH.Xolmirzaevning katta bahs-munozaraga turtki bergan maqolasi adabiy tanqid oldiga bir talay dolzarb masalalarni qo'ydi. YOshlar nasridagi «g'alati» tajribalarning ildizlari qaerda; nasrdagi yangilanishlarda adabiy ta'sir, taqlidning qanchalik «xizmati» bor; yangi nasr namunalari qanday mezonlardan kelib chiqib yondashmoq lozim; modern uslubdagi asarlarda usul, til masalalariga yangicha yondashishning yo'llari qanday; ushbu yo'nalishdagi asarlar milliy voqelikka qanchalik mos yoki bu asarlar modernizmga xos universallik bilan uyg'unmi va hokazo. Ko'rinadiki, SH.Xolmirzaev nafaqat yozuvchi, balki adabiy jarayonni sergaklik bilan kuzatib, unga munosabat bildiradigan tanqidchi sifatida ham o'zining munosib o'rniga ega.

1.3. SH.Xolmirzaev esselari tasnifi

Mustaqillik yillariga kelib, esseistikaning rivojlanishi birmuncha tezlashib, yozuvchi va tanqidchilar bevosita adabiy jarayon bilan bog'liqlikda essening turli ko'rinishlarini yaratishga e'tibor qarata boshladilar. Bu janr, ayniqsa, SH.Xolmirzaev ijodida munosib o'rin egallaydi. esse, aytish mumkinki, adib ijodida yuqori bosqichga ko'tarildi. SHuning uchun o'zbek adabiyoti va tanqidchiligida o'ziga xos o'ringa va uslubga ega bo'lgan, iste'dodli o'zbek yozuvchisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi SHukur Xolmirzaev esselarini tadqiq etish magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Umuman, SH. Xolmirzaevning bu davrda ham yozuvchi, ham munaqqid, ham otashin publitsist, adabiyot jonkuyari sifatida ijodkorlar orasida faol ekanligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Adibning kizi S.Xolmirzaeva «Esselar» deb nomlangan 4 –jildga kirish suzi yozar ekan, otasi xakida «Adabiyotda bulsin, xayotda bulsin umrim yulida iz koldirgan SHaxslar xakida bir-bir esse yozib koldirishni ilgaritdan uylab yurardim», deb yozgan edilar bir makolalarida,- deb yozadi.

esse ilmiy va badiiy tafakkur uyg'unlashuvi hosilasidir. YOzuvchi tanqidi ham ko'pincha esse janrida yoziladi. Unda hayot va ijod tajribasidan kelib chiqqan xulosa, qarash, kuzatishlar aks etadi. esse taraqqiyoti adabiy tanqidning yangi kamolot pallasiga kira boshlaganidan, ilmiy va estetik tafakkur sintezining yangi bosqichga ko'tarilayotganidan darak beradi. esseda san'atkorning ijodi, shaxsiyati, tabiati, asarlarining yozilish jarayoniga aloqador fikrlar erkin ifodalanadi. SHu bois 70-yillardan e'tiboran ijodkorning hayot va adabiyot masalalariga doir adabiy o'ylar shaklidagi esselari faol yaratila boshlandi. Ularning markazida ijodkorning qat'iy va aniq nuqtai nazari turadi, ya'ni ijodkorning intellektual darajasi essening bosh qahramoni vazifasini o'taydi.

Tanqidchining adabiy-tanqidiy hamda estetik qarashlari esseda aks etsa-da, ularga ilmiy-estetik butunlik baxsh etuvchi narsa bu san'atkor "men"i prizmasidan o'tkazilgan va estetik baholangan voqelik, hayot hodisalari, adabiy jarayon hamda adabiy hodisalarning muayyan tarzdagi mohiyatining in'ikosi bo'lib, u avvalo, san'atkorning qat'iy nuqtai nazari, estetik bahosi orqali anglashiladi.

O'zbek adabiyotida yaratilgan esselarni tasnif qilish bu yo'nalishga e'tibor kuchayganligidan dalolat beradi. esse mazmun-mohiyatiga ko'ra tasnif qilingan⁶. Nazarimizda, bu tasnifda qorishqlik hukmron. Aslida mazmun-mohiyatiga ko'ra, yuqorida qayd etganimizdek, falsafiy, tarixiy, publitsistik, ijtimoiy-siyosiy va h.k.

⁶ Qўчқорова М. Нозирги ўзбек адабиётида эссе жанри. Филол. фанлари номз. ... дис.автореф. – Тошкент: 2004. – 12 б.

turlarga ajratilsa, aniqlik ko`zga yaqqol tashlanadi. Keyin ularning o`zini ham ichki shakllar bo`yicha tasnif qilish imkoniyati tug`iladi. Masalan, janriga ko`ra sof belletristik esse: esse-roman, esse-qissa, esse-hikoya va h.k. YOki adabiy-tanqidiy essening o`zi asosan ikki xil ko`rinishda namoyon bo`ladi:

- 1) yozuvchi essesi (adabiy o`ylar);
- 2) tanqidchi essesi.

Ular ham, o`z navbatida, yana ichki turlarga bo`linadi. Masalan, janriga ko`ra, tanqidchilikda ham esse-roman, esse-qissa yaratiladi.

B.Paluanov essenini roman-esse (“Qoraqalpoqnoma”), reportaj-esse (“Qalbim qomusi”), interv`yu-esse (“Javob”) kabi turlarga bo`ladi. Bu bo`linishda ham faqat sof badiiy ijod namunalari hisobga olingan. Tadqiqotchi yana xotira-esse kabi turni ham eslatadi. Ba`zan esdalik-esse atamasi ishlatiladi(Said Ahmadning “Nazm chorrahasida” asari).

Adabiyotshunoslik ilmining bugungi taraqqiyoti, estetik tafakkur kamolotini essesiz tasavvur qilish qiyin. SHu bois esse ham mavzu mohiyati, ifoda maqsadiga ko`ra har xil bo`ladi. Sof badiiy esse, adabiy o`ylar, adabiy-tanqidiy esselar yozilishi mumkin. Tarixiy yoki adabiy esseda tanqidiy unsurlar bo`lishi mumkin, lekin bu ularning adabiy-tanqidiy essegga tengligini anglatmaydi. Adabiy esse asosan yozuvchining hayot hodisalariga oid ijtimoiy kuzatishlari mag`zini chaqishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Adabiyotshunos SH.Axmedova yuqorida tilga olingan dissertatsiyasida hozirgi o`zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligidagi esse taraqqiyoti uning turli shakllari mavjudligini ko`rsatishiga ko`ra quyidagi turlarini ajratadi.

- a) adabiy o`ylar;
- b) esse-roman;
- v) esse-xotira;

g) esse-qissa.SHulardan ba`zilariga to`xtaladi⁷. SH.Axmedova o`z tadqiqotida sof belletristik esse haqida batafsil fikr yuritmaydi.

⁷ Axmedova SH. Ўзбек адабий танқидининг жанрий таркиби. ДД. 189-бет.

SHukur Xolmirzaev ijodida esa sof belletristik esse namunalari, shu bilan birga esse-xotiralar ko'p uchraydi.

SH.Xolmirzaev esselari tasnifi.

esse –yozuvchi xotiralari, uning o'y-kechinmalari, u his qilgan,uning aql-idrokin band etgan tasvirlar bayonidir. Bu janrning adabiyotimizga kirib kelganiga uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. O'zbek adabiyotini nasrning turli janrlari bilan bir qatorda esse janri bilan ham boyitgan va bu borada o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkor SHukur Xolmirzaevdir. Ijodkor essenini "...inson qismatining ma'lum davri bo'lagiga nisbatan o'z munosabatini ochiq-oshkor bildirib turish barobarida o'z ko'nglida tug'ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bemalol yozish imkoniga ega" bo'lgan "yorqin janr, bundan tashqari, u agar ta'bir joiz bo'lsa, "razmersiz janr", deya ta'riflaydi⁸.

"Essening hajmi va shakllari xilma-xil. Ikki-uch satrdan iborat kichkina bir hayotiy manzarani yoki voqealar tasvirini ifodalashi, fikr yoki kechinmaning aforistik talqinidan to epik janrga xos katta hajmli asar ham bo'lishi mumkin". SH.Xolmirzaev ijodida roman, qissa, hikoyalari katorida esse va badi'alari ham salmoqli o'rin tutadi. Adibning "Tog'larga qor tushdi" to'plamiga beshta essesi kiritilgan: "Tog'larga qor tushdi", "Takdir bashorati", "Oldi ortingga qara", "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro'zi CHoriev", "Tanqidchiga uch maktub". SHu jihatdan qaraganda, SH.Xolmirzaev ijodida essening turli xil yo'nalishlari uchrashi kuzatiladi. Adibning qizi yozuvchi saylanmasining to'rtinchi jildiga yozgan so'zboshisida ularni quyidagi turlarga ajratadi. Masalan, badiiy, tarixiy, xotiraviy, publitsistik yo'sindagi esselar.

⁸Шукур Холмирзаев: Эссе – эркин ижод // Ўзбекистон адабиёти ва санъати.. 2003-йил, 16-сон.

1. Badiiy esselar: "Taqrdir bashorati" (SHukur Burhonov haqida), "Binafsha hidlang, amaki".

2. Tarixiy esselar: "Qadimgi Baqtriya tuprog'ida"

3. Xotiraviy esselar: "Ay, SHuhrat akam-a...", "Odil aka haqida o'ylasam..."

"Bu kishim – ustoz, men –shogird"

SH.Xolmirzaevning barcha esselarini mavzu jihatdan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1) **San`at ahli haqidagi esselar:** "Binafsha hidlang, amaki" turkumi, "Odil aka haqida o'ylasam...", "SHaydolik", "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro`zi CHoriev", "Tanqidchiga uch maktub", "Taqrdir bashorati", "Ay, SHuhrat akam-a", "Yo'llar ayro tushdi, ammo...", "SHimol yog'dusi" va "Kashf etmoq zavqi", "U kishim - ustoz, men - shogird";

2) **Jamoat arboblari haqidagi esselar:** "Arbob armoni" turkumidagi "O'ldirsa mard o'ldirsin", "Vasvasa", "Mahalliy patriot", "Saboqlardan biri", "Bu yo'llar-ko`p qadim yo'llar"; "Haqiqat bor ekanku!", "Vatanga xizmat beminnat bo'ladi";

3) **Tarixiy-ijtimoiy mavzudagi esselar:** "So`nmas o't", "Oldi ortingga qara";

4). **Publitsistik esselar:** "Jamiyatning maqsadi ya`ni mafkura bobida o'ylar", "Adabiyot o'ladimi?" va h.k.

"Binafsha hidlang, amaki" muallifning eng yirik esselaridan sanaladi. Mazkur esse dastlab yozuvchi O'lmas Umarbekov haqida yozilgan. Bu ijodiy jarayon haqida SH. Xolmirzaev shunday yozadi: "Do'stimiz («marhum» deyishga til bormaydi), ajoyib yozuvchi, dilkash-dilrabo inosn, 60-yillarda adabiyotimizga kirib kelgan bir guruh iste'dodlarning jo`raboshisi bo'lgan, mehribon O'lmas Umarbekov haqida (o`zim ko`rgan-kechirgan-bilgan voqealar, uchrashuvlar, gurunglar asosida) bir kattagina esse yozgan edim.

Tabiiy, Umarbekov bahonasida o'sha iste'dodlar haqida ham, umuman, 60-yillar avlodi to`g'risida, aniqrog'i, ularning shakllanish jarayoniga doir

bildigimni-da, essega singdirganimni bilmay qolgandim"¹. Adib e`tirof etganidek, 60-yillarda adabiyot maydoniga kirib kelgan bir guruh iste`dodli shaxslar haqida esse-xotira yozish g`oyasi yozuvchi ijdodida daf`atan yuz berdi. Darhaqiqat, "Binafsha hidlang, amaki" turkum esselari o`z-o`zidan davomiylilikni taqozo etdi. Bu to`rtta esse — "Binafsha hidlang, amaki" (O`Umarbekov haqidagi), "Farg`ona yo`llarida" (U.Nazarov haqidagi), "Issiq jon" (SH.Xolmirzaev va A.Oripov haqidagi), "Binafsha hidlang, amaki" (B.Zokirov haqidagi) esselari birlashib, ularning barchasida O`lmas Umarbekov obrazi markaziy o`rinda turadi. Xotiralarning "Binafsha hidlang, amaki" deb atalishining ham o`ziga yarasha tarixi bor. Birinchi turkumda O`Umarbekov bilan SH.Xolmirzaev o`rtasida "Gulchi qiz" hikoyasi xususida tanqidiy suhbat bo`lib o`tadi. Aynan shu suhbatdagi O`Umarbekov qahramoni nutqidan olingan "Binafsha hidlang, amaki" jumlası esse sarlavhasiga asos bo`lgan. SH.Xolmirzaev muallifga hikoyadagi lavhaning ishonarsiz chiqqanligini aytganida yozuvchi o`zining badiiy-estetik idealini yaratmoqchi bo`lganligini bildiradi. Darvoqe, binafsha ramziy ma`no tashigan. Hikoyada binafsha g`aflatda yotgan millatni uyg`otish, hushiga keltirish uchun bir vosita ramziy obraz hisoblanadi. Xuddi shu shartli simvolik obrazli jumladan SH.Xolmirzaev unumli foydalanib, 60-70-yillar avlodi haqida bitilgan xotiralarini "Binafsha hidlang, amaki" deb nomlaydi. Dastlab O`Umarbekovning insoniy ijodkor sifatidagi qiyofasini kashf etishga bel bog`lagan hikoyanavis keyinroq Uchqun Nazarov, Botir Zokirov, O`tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Nizom Komilov, Turg'un Azizov, Mutal Burhonovlarning o`ziga xos tabiatini, xarakterini voqealar zahirida yanada tinikroq aks ettirdi.

"Binafsha hidlang, amaki" turkum esselarida qahramonlarning o`zaro suhbatı ma`lum bir soha doirasida, ya`ni ijod haqida kechadi. Aynan san`atning turfa turlari: kino, qo`shiqchilik, teatr san`ati xususida qahramonlar o`zaro bahslashadi. Ayrim kitobxonlar uchun asarda kechayotgan jarayonlar, voqealar

^{1 1} Холмирзаев Ш. Сайланма. Эсселар. 4-жилд. "Шарқ" НМАК. Тошкент. 2007. 144-бет. (бундан кейин олинган кўчирмаларда шу китобнинг бети кўрсатилади).

zerikarli, tushunarsiz bo'lishi tabiiy. Biroq essenavis xotira-esseda millat g'ururini ko'tarishga bel bog'lagan ijod axdining nafaqat oddiy insoniy qiyofasini, shu bilan birga san'atkorona iztirobi, faqatgina o'sha shaxsga tegishli bo'lgan fojea va yuksalish- larni ochib bergan.

essening kompozitsion kurulishiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, yozuvchining o'ziga xos uslubi ochiladi. O'lmas Umarbekovga bag'ishlangan esseda voqealar Uchqun Nazarov hovlisida bir osh pishgunga qadar bo'lgan vaqt, yangi kitob nashri munosabati bilan tashkillashtirilgan ziyofat asarga asos qilib olingan.

"Farg'ona yo'llarida" qismida vodiya safar chog'idagi to'rtta ijodkor do'st: Uchqun Nazarov, O'tkir Hoshimov, Nizom Komilov va muallifning kechinmalari hikoya kilinadi. esega Uchqun Nazarov bilan SHukur Xolmirzaevning konflikten munosabatlari asos qilib olingan. SH.Xolmirzaev hikoyalaridagi singari xarakter yaratish uslubiga sodik qolib, "Farg'ona yo'llarida" essesida Uchqun Nazarovning injiq, kibrli, o'jar qiyofasini chizib bersa; o'zining tog'liklarga xos magrur, qat'iyatli, kuchli oriyatkashlik jihatlarini namoyon qiladi. "Farg'ona yo'llarida" essesida ilk bor uchrashganda o'z-o'zidan ikkita inson o'rtasida paydo bo'ladigan ichki antipatiya ta'sirida yuzaga keladigan dilxiraliklar Uchqun Nazarov va ijodkorlarni kutib oluvchi shaxe timsolida ishonarli hayotiy misollarda ko'rsatilgan. esseda bunday holat orqali Uchqun Nazarovning ran ko'tarmaydigan tabiatidagi o'jarlik aks ettiriladi. SHu bobda bugungi kunda mohir ustoz tarjimon Nizom Komilovning xarakter va dunyoqarashiga boshqa qismlardagiga qaraganda kengroq to'xtalgan. Birinchi bobda u kichik bir personaj obraz sifatida ishtirok etadi. essening turkum sahifalarida Nizom Komilovning yuzaga chiqmay qolgan ijodiy iste'dodidan voqif bo'lamiz. Tug'ma iste'dodning o'rtamiyona darajada rivojlanmay qotib qolib ketganidan afsuslanasan kishi. "Farg'ona yo'llarida" qismida Nizom Komilovning kuvnoq tabiat ekanligi, hazil-mutoyibaga o'chligi namoyon bo'ladi va bu kitobxonni zavqlantiradi.

Sh. Xolmirzayevning “Taqrdir bashorati” essesinde boshqalaridan farqi shuki, unda adibning o’zi bilan bog’liq biror bir epizod yo’q. Ya’ni esseda Sh. Xolmirzayev umuman ishtirok etmaydi. Ammo bu esse ham yozuvchi xayolini band etgan voqea-hodisalar haqida bo’lib, muallif ularni shoshmasdan, teran bayon etadi. Esseda Shukur Burhonovning teatr sahnasiga kirib kelishi, ijodiy izlanishlari va muvaffaqiyatlari yetarlicha yoritib berilgan. Essening bir necha o’rinlarida ramziylik ko’zga tashlanadi. Xususan, Sh. Xolmirzayev Shukur Burhonovning katta teatrga kirib kelishiga otasi qarshilik qilayotganini, uning o’zini esa teatr yoki o’qishni tanlashi kerakligini ramziy voqeylik bilan ifodalaydi. Ya’ni laylakning “tap-tap” qanot qoqib uchishni o’rganayotgani, shamolga qarshi chiqib bo’lsa-da, parvoz qilishga harakat qilayotganlik tasvirini chizadi. Siltanib tepaga ko’tarilib borayotgan laylak uchish qiyin bo’lsa-da, ortga qaytmaydi. Buni ko’rgach esa, Sh. Burhonov bir qarorga keladi. Xuddi laylak kabi qarshiliklarga qaramay qilishi kerak bo’lgan ishni qiladi. Adib Sh. Burhonovning ijodiy yo’li haqida gapirar ekan, taqdiriga san’at osmonida parvoz etish yozilganligini yana bir ramziy voqeylik bilan ta’kidlaydi. Buni Sh. Burhonov ijro etgan “Shoh Edip” asaridagi bosh obraz va shu xususida uning muxlislari bilan suhbat chog’ida aytgan so’zlari orqali ifodalaydi: “Bilmasdim, artistlik ham mening peshonamga yozilgan ekanmi...”

Ushbu essening o’ziga xos jihatlaridan yana biri unda ota va farzand o’rtasidagi munosabat ham mohirona tasvirlangan. Agar Sh. Burhonov teatrni tanlasa, “oq qilaman” degan ota, u ijro etgan polni ko’rib, do’sti orqali o’g’lini uyga taklif qiladi. Esseda ota-o’g’il bilan bog’liq tafsilotlarni o’qir ekansiz, ko’z o’nggingizda o’ylovli, qattiqqo’l, salobatli, mehribon ota gavdalanadi. Uning o’g’liga “siz”lab murojaat etishi esa, qahramonimizning kelajagiga to’sqinlik qilgan esa-da, otaga nisbatan yomonroq xulosaga kelishimizga yo’l qo’ymaydi. Hatto bir o’rinda otasi o’g’li haqida uning o’z oldida “Endi darbadar yurmasinlar, uylariga qaytsinlar”, - deydi. Muallif ota-o’g’il o’rtasidagi holatning yaxshilanganligini bildirish uchun boshqa hech qanday so’z

keltirmaydi. Otasining shu so'zlaridan keyon Sh. Burhonov uyiga qaytib keladi.

Sh.Xolmirzayev kasbdoshi Abror Hidoyatov bilan tengma-teng ijodiy kurashga bel bog'lagan Sh.Burhonovning o'ynagan rollarini shunchaki sanab o'tmaydi, balki, ularning har biriga daxldor sabab va oqibatlarigacha ko'rsatib beradi. Ya'ni Sh.Xolmirzayev Sh.Burhonovning hammaga ma'lum faoliyati ma'lumotlari bilan cheklanmay, uning oilasi, atrofidagi oliyjanob odamlar va qahramonining shaxsiy kechinmalari bilan ham o'rtoqlashadi. Bu esa essening badiiy quvvatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Birinchi bobga xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotida yozuvchi essenavisligi taraqqiyot yo'liga kirganligi kuzatiladi. YOzuvchi essesi turli shakllarda rivojlanib bormoqda. SHu bilan birga o'zbek adabiyotshunosligida esse janriga oid ilmiy-nazariy qarashlar, tadqiqotlar sharhi janrning nazariyasi ham shakllanib borayotganligini ko'rsatadi. esse yaratayotgan ijodkorlar orasida SH.Xolmirzaevning alohida o'rni borligi yaqqol ko'rinadi. essening turli xil shakllari orasida SH.Xolmirzaev ijodida sof belleteristik ijod namunalari ko'p uchraydi. Adibning hayot va ijod olamiga nazar tashlash orqali uning keng qirrali yozuvchi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Uning esselari turli mavzularda, turli insonlarga bag'ishlab yozilganligi bilan ajralib turadi.

II BOB.SH.XOLMIRZAEV – eSSENAVIS ADIB SIFATIDA

2.1.SH.Xolmirzaev esselarining mavzular olami.

Shukur Xolmirzaev ijodga munosabat borasida ham o'ziga xos yo'lni tutdi. Uning talqinicha, ijodkorlik - qismat, hayot kechirish vositasi emas, aksincha, yashashning shakli. “Yozuvchi kim?” degan savolga shunday javob yozadi: “Rub`i maskundagi ming turfa qiliqli, ming bir tashvishli, ming-ming qiyofali odamlar orasida yana bir qurum bandai mo'minlar borki, ularning har biri ham o'zicha ayri shaxs bo'lsalar-da, mushtarak bir jihatlari bilan bir-birlariga o'xshaydilar va umumlashtirib aytganda, bitta vazifani bajaradilar: “bajaradi” deyish iddaoga, bahoga, hatto buyruqqa mengzab ketadi, yo'q: ular shu vazifani ado etishga mahkumlar, ularning qalbi-shuuri shuni hargiz talab etadi va bu vazifani ado etish - nafas olishdek bir holdirki, ular bu yo'ldan bir santim orqaga qaytolmaydilar”. Boshqa bir suhbatida u yozuvchilikni bulbulning sayrashiga o'xshatadi: “Bulbul nega sayraydi? “Biz uchun” deb o'rgatishgan bizga. Holbuki, u o'zi uchun - ya`ni sayrashi kerakligi uchun sayraydi: illo, sayramasa - o'ladi. Yozuvchilik ham - shu!”.

Faqat badiiy ijod doirasida qolib ketmasdan, adabiyotshunoslikka doir tadqiqotlarni ham tanqidiy ko'z bilan o'rgangan Sh.Xolmirzaevning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xos. U o'rni kelganda adabiyotshunoslik, tanqidchi va olimlar, ularning adabiyotdagi maqomi xususida ham to'xtalib o'tadi. Adib fikricha, qo'lga qalam tutgan kishi ijod haqidagi ilmiy asoslardan xabardor

bo'lishi shart. "SHofyor olam mashinaning mashinadan farqini, chavandoz yigit otning otdan farqini bilganidek, adib degani ham adabiyot ilmidan baholi qudrat xabardor bo'lishi kerak. Bu - aksioma" deb ta'kidlaydi u suhbatlardan birida. Masalan, adib Usmon Azim hikoyalarida yozgan so'zboshisida san'at asarlariga qo'yiladigan talablarga quyidagilarni kiritadi: mukammallik, tugallik, ruh birligi va xarakter. Xuddi shu o'rinda SHukur Xolmirzaev yana ta'kidlaydi: "Men bu yo'riqdayam o'z qanoatlarimga suyanaman!".

So'zboshida muallifning ijodiy mehnatiga baho beriladi, asarlarining umrboqiylikka da'vosi sezilsa, bu ham izohlanadi: masalan, dunyoviy adabiyot durdonalari bilan qiyoslanishi mumkin. Qolaversa, muallifning muayyan janrga va u orqali milliy adabiyotga yoki adabiyotshugoslikka olib kirgan yangiligi, asarlarining ma'naviy qiymatini ham ochib berishga harakat qilinadi, shu mavzuda bahs yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda, Sh.Xolmirzaev so'zboshilari mukammallik kasb etganini ko'rish mumkin.

Adib asarlarida ham dolzarb mavzuni qalamga olar ekan, bu bilan o'tmishda bo'lganidek, hozirgi ijtimoiy jarayonlarga shunchaki munosabat bildirish, nimanidir tasdiqlash, ulug'lash yoki nimanidir rad etish, qoralashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan emas; balki so'z san'atining asl tabiati, maqsadi, vazifasidan kelib chiqqan holda jamiyatdagi ana shu tub burilishi pallasida yuzaga chiqayotgan inson jumbog'i, aniqrog'i, inson tabiati, ruhiyatining turfa jilvalari, yangi qirralari, turli nag'malari, sir-sinoati bilan qiziqadi.

Butun asarlarida bo'lgani kabi, adabiy tanqidiy qarashlarida ham "jamiyat qitig'i"ga tegadigan o'tkir gaplarni aytish, jiddiy ijtimoiy-axloqiy muammolarni ko'tarish bilan e'tibor qozonish qiyin; inson qalbi, tabiati haqidagi haqiqatning yangi jihatlarini kashf etish yo'li bilangina hozirgi ma'rifatli, didli kitobxon ko'ngliga yo'l topish mumkin deb hisoblaydi.

Ilmiy-badiiy essenavislik taraqqiyotida ikki yo'nalish alohida ko'zga tashlanadi: birinchi yo'nalishdagi esseda san'atkorlarning hayot va voqelik haqidagi ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy masalalar xususidagi fikr - o'ylari ustuvor bo'lsa; ikkinchi yo'nalishdagi esseda badiiy ijod masalalari, uning xalq hayotida,

shaxsning har tomonlama garmonik rivojlanishida tutgan o`rni va roli, ijodiy biografiya xususidagi fikr-mulohazalar etakchi mavqeni tashkil etadi. Birinchi yo`nalishga, bizningcha, yozuvchi o`ylari, ikkinchi yo`nalishga adabiy-tanqidiy esse mansubdir. SH.Xolmirzaev ijodida ikki yo`nalishga oid esselar mavjudligi ko`rinadi.

SH.Xolmirzaev esselarida hayotiy, adabiy-axloqiy masalalar xususida bahs yuritilar ekan, ularni yagona bir kontsepsiya birlashtirib turadi. Bu – mazkur mavzular, masalalarga hayot va insoniy burch, ijodkor mas`uliyatidan kelib chiqib, yondoshish, falsafiy o`y-mulohazalarga berilish, xotiralar va ulardan muayyan ijtimoiy umumlashmalar chiqarishga intilishdir.

Adib esselarida hayot, tiriklik, zamondoshlarining qalb manzaralari haqidagi mushohadalarida yozuvchilik nigohi, dalillarni, voqea-hodisalarni shoirona idrok etish, estetik baholash etakchilik qiladi. Jamiyat hayotini, voqelikni, odamlar, yaqinlari taqdirini san`atkor “meni” orqali idrok etish va estetik baholash xususiyatlari ustuvorligi ko`rinadi esselarda.

SHuning uchun O`zbekiston xalq yozuvchisi SH.Xolmirzaevning o`zbek adabiyotida esse janrining rivojlanishida muhim o`rni bor. Uning ijodida essening turli xil yo`nalishlarini – badiiy, tarixiy, xotiraviy, publitsistik yo`sindagilarini ko`rish mumkin. Bu esselar turli mavzularda, turli insonlarga bag`ishlangan. “Qo`lingizdagi kitobni varaqlar ekansiz, SH.Burhonovning turli obrazlardagi qiyofasi, R.CHorievning bolalarcha, sodda qah-qah otib turishi, zavqlanib o`zi haqida so`zlashlari, odil akaning shaxs sifatida, adib sifatida haqiqatni himoya qilishlari, shuhrat akaning barvasta, bag`rikeng, g`amxo`r, mehribon chehrasi ko`z oldingizdan ketmay qoladi”¹. "Binafsha hidlang, amaki!" essesda XX asr 60-yillar avlodining bir guruh adiblari, ziyolilari – O`.Umarbekov, A.Oripov, U Nazarov, B.Zokirov, T.Azizov, O`.Hoshimov, N.Komilovlarning o`zaro do`stlashuvi, ularning ijodga kirib kelishi, adabiyotga munosabati gavdalanadi. Bu esselarda , ijodkorlarning, xususan, SH.Xolmirzaevning adabiy qarashlari, o`sha davr adabiy jarayoniga munosabatlari ham keng tasvirlanadi. Ayniqsa, ularni birlashtirib turuvchi Adabiyot mavzusi kitobning qat-qatiga singdirib yuborilgani, o`quvchida badiiy adabiyotga, uning yaratuvchisi – yozuvchiga nisbatan mehr uyg`otishi jihatidan katta ahamiyatga ega.

¹ Холмирзаева С. Кириш сўз. / Китобда. Шукур Холмирзаев. 4-жилд. Тошкент. 2007. 6-бет.

Adib o`zining o`sha vaqtlarda dunyo adabiyoti bilan tanishayotganligini e`tirof etar ekan, o`zi yashagan davr adabiyo jarayoni, adabiyotning ahvoliga ham baho beradi: “ Holbuki, o`sha paytda bizning adabiyotimiz, jumladan, nasrimiz ham, nazmimiz ham sho`ro siyosatiga butkul bo`ysundirilgan, unga chap berib, biron-bir haqiqatni atygan adiblar ham bir kunmas-bir kun qo`lga tushishshar edi. Ikkinchidan, ana shu siyosat- mafkuraning biron joyda “etagini ochib ko`rsatgan” adib, shubhasiz, “qahramon” kabi sanalar, ardoqlanar ediki, uning ushbu asarini chop etgan noshiru muharrirlar ham tegishli mahkamalarda o`zlarini “bilmay qolgan” qilib ko`rsatishsa-da, ichlarida mamnun bo`lib yurishardi...

Bundan tashqari (Umarbekov Uchqun Nazarovning uyida aytganidek) milliy qadriyatlarni ko`tarish, buning uchun o`tmishga (jumladan, o`tgan yillarda yozilib qolingan asarlarga ham) ochiq-xolis nigoh bilan qarash, pirovardi, o`tmish – o`zimizniki ekani, uning porloq sahifalarini ham teskari ma`noda o`qimoqda ekanimizni asta-sekin oshkor etish – har bir iymonli ziyolining pinhona dardi- vazifasi- burchi bo`lib borayotgan edi” (187-bet).

Qo`shiqchi B.Zokirovga bag`ishlangan esse "Binafsha hidlang, amaki!" turkum esselari orasida Botir Zokirovga bag`ishlangan esse-hikoya eng ta`sirchan yozilgan. Ma`lumki, turkumning birinchi qismida Botir Zokirov personaj obraz sifatida ishtirok etadi. U bir chekkada o`z xayollari bilan parishonxotir o`tiradi. Hatto kitobxon uning esseda ishtirokini ilg`amay ham qolishi mumkin. Faqatgina xayol dunyosidan uni o`zaro suhbatga jalb qilgan qahramonlar luqmasi orqaligina Botir Zokirovning ham borligi esga tushadi. SH.Xolmirzaev uning xayolchan tabiatini quyidagi satrlarda shunday ifodalaydi: "... u kishi qandaydir parishonhol ko`rinar, hamsuhbatining gapini tinglamayotganga o`xshar, illo nuqul nari-beriga qandaydir nuqtalarga qarar-tikilar, ammo aftidan suhbatdoshining deylik, so`roqlariga aniq-aniq javoblar qaytarardi"(153-bet).

Essenavis esse- xotiralarida kuzatganimizdek, aksariyat xotiralar ekspozitsiyasi kutilmagan tashrif, favkulodda tadorik yoki kul`minatsion nuqta bilan boshlanadi. CHunonchi, Botir Zokirov haqidagi esse xonandaning vafoti haqidagi yarim tundagi telefon qo`ngirog`idan boshlanadi. Demak, esse

to'g'ridan-to'g'ri echim bilan boshlangan. Bemahal telefon qo'ng'irogi asarga fojeiy tus, ohang bergan. Xususan: "Telefon jiringlashidan uyg'onib ketdim... soatga karab oldim. To'rt yarim... Tabiiy jahlim chiqqan: kim u - shunday paytda bezovta qilgan? Qishloqdan bo'lsaydi: tiichlik bo'lsin-da...". Albatta, kitobxon bunday favqulodda bir holatga duch kelib, vokeaning davomiga qiziqib koladi. Bu fojining mashxur xonandaning oila a'zolariga, qolaversa do'stlariga ta'sirini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. SH.Xolmirzaev esse janrining xolislik va haqqoniylik printsipligina binoan Botir Zokirovning sevgan ayollari haqida ham oshkora hikoya qiladi. Xotira-esseda xonandaning tugma noyob qobiliyati bilan jismoniy dardi ham yozuvchi tomonidan e'tirof etiladi. Og'ir qismatga qaramasdan o'zida yashashga kuch, matonat, iroda topa olgan qahramonning saboq bo'lishga arzigulik hayoti kitobxonni larzaga soladi.

Essening "Issiq jon" qismida esa ikkita voqea hikoya etilgan. Har ikkisi ham kasalxona bilan bog'liq aniq voqealar zamiriga qurilgan. Birinchisi, SH.Xolmirzaevning kasalxonaga tushishi va do'stlar tashrifi, ikkinchisi, Abdulla Oripovning kasalxonaga tushishi va do'stlar tashrifi bilan bog'lik. Ijodkorlar bir-biriga kinoyali, obrazli gap-so'zlar bilan murojaat etishadi. Ayniqsa, quyidagi suhbatda metonimik ko'chim orkali ijodkorlariig kosa tagiga nimkosa tarzida hazillashishi yorokin ifodalarda berilgan:

- "Odamlar" kutishyapti. "Sevgim-sevgilim" deb kelipti biri. "Yo'lchivoy" adashib qolgan ekan, o'zim boshlab keldim! Pad'yom"(202-bet)

"Odamlar" deyilganda shu asar muallifi Uchqun Nazarov, "Sevgim-sevgilim" deyilganda muallifi O'lmas Umarbekov. "Yo'lchi" deyilganda shu rolni ijro etgan aktyor Turg'un Azizov nazarda tutilgan. Xotiralarda ularning yaqin do'sti bo'lgan tabib-vrach Anvar Maksudov ham ishtirok etadi.

SHukur Xolmirzaevning essechilikdagi izlanishlarida rassom Ro'zi CHoriev haqidagi esse ham alohida o'ringa ega. SHu o'rinda adabiyotshunoslikda rassom va yozuvchi-shoirning do'stona ijodiy munosabatlari va muloqotlariiii ilmiy tadqiq etish e'tiborga molik masala ekailigiii aytib o'tish lozim. CHunki adabiyot tarixidan ma'lum, Alisher Navoiy va Behzod,

G'.G'ulom va bir talay rassom va haykaltaroshlar, shuningdek SH.Xolmirzaev va R.CHorievlarning ijodiy munosabatlari, badiiy ijod psixologiyasini o'rganishda falsafa, psixologiya, adabiy jarayon fanlari uchun ham kapa manba bo'lib, fikr yuritish uchun keng imkoniyatlar beradi.

SH.Xolmirzaevning "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro'zi CHoriev" essesi rassomning ellik yoshga to'lishi munosabati bilan yozilgan. esse-xotira kutilmagan tashrif bilan boshlanadi, yozuvchi do'stining tug'ilgan kuni munosabati bilan rassom ustaxonasiga boradi. esse- xotira rassom va adib o'rtasida kechgan muloqotdan iborat. Ifoda tabiatiga ko'ra mazkur esse-xotirani dialog-esse deyish mumkin. SH.Xolmirzaev esselariga xos etakchi uslubiy ko'rinish shundan iboratki, u qahramonlarni so'zlatib ko'yib, ruhiyatini, ichki dunyosini ochishga intiladi. essenavis suhbat jarayonida onda-sonda luqma tashlab turadi, savollar beradi. Ro'zi CHorievning nutqi g'aliz chiqqandek, hiyla to'mtoqdek tuyuladi. Lekin yozuvchi bu bilan suhbatning tabiiyligini saqlab qolish, yana muhimi, rassomning "g'adur-budur" nutqi, gapirish tarzini ko'rsatish bilan barobar fe'l-atvorini — rassomlik nigohini zohir etadi. Suratlari, polotnolari uchun bo'yoqlar, ranglar tanlashdan oldin voqelik ranglarini, qanchalik nozik fasohat bilan tanlashini namoyon etadi. Ana shu to'pori ifoda yo'sini asarning badiiy saviyasiga putur etkazgandek tuyulishi mumkin. Bu zohiriy taassurot aslida, esseda suhbat o'rning, ustaxonaning tanlanishida ham ramziy ma'no bor. Rassom ustaxonasi, jihozlari, turli xil polotno va kartinalar tasviri asar tabiiyligini ta'minlagan.

SHukur Xolmirzaevning essechilikdagi izlanishlarida rassom Ro'zi CHoriev haqidagi esse ham alohida o'ringa ega. SHu o'rinda adabiyotshunoslikda rassom va yozuvchi-shoirning do'stona ijodiy munosabatlari va muloqotlarini ilmiy tadqiq etish e'tiborga molik masala ekailigini aytib o'tish lozim. CHunki adabiyot tarixidan ma'lum, Ali- sher Navoiy va Behzod, G'.G'ulom va bir talay rassom va haykaltaroshlar, shuningdek SH.Xolmirzaev va R.CHorievlarning ijodiy munosabatlari, badiiy ijod psixologiyasini o'rganingda falsafa, psixologiya,

adabiy jarayon fanlari uchun ham katta manba bo'lib, fikr yuritish uchun keng imkoniyatlar beradi.

SH.Xolmirzaevning "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro'zi CHoriev" essesi rassomning ellik yoshga to'lishi munosabati bilan yozilgan¹. esse-xotira kutilmagan tashrif bilan boshlanadi, yozuvchi do'stining tug'ilgan kuni munosabati bilan rassom ustaxonasiga boradi. esse- xotira rassom va adib o'rtasida kechgan muloqotdan iborat. Ifoda tabiatiga ko'ra mazkur esse-xotirani dialog-esse deyish mumkin. SH.Xolmirzaev esselariga xos etakchi uslubiy ko'rinish shundan iboratki, u qahramonlarni so'zlatib ko'yib, ruhiyatini, ichki dunyosini ochishga intiladi. essenavis suhbat jarayonida onda-sonda luqma tashlab turadi, savollar beradi. Ro'zi CHorievning nutqi g'aliz chiqqandek, hiyla to'mtoqdek tuyuladi. Lekin yozuvchi bu bilan suhbatning tabiiyligini saqlab qolish, yana muhimi, rassomning "g'adur-budur" nutqi, gapirish tarzini ko'rsatish bilan barobar fe'l-atvorini — rassomlik nigohini zohir etadi. Suratlari, polotnolari uchun bo'yoqlar, ranglar tanlashdan oldin voqelik ranglarini, qanchalik nozik fasohat bilan tanlashini namoyon etadi. Ana shu to'pori ifoda yo'sini asarning badiiy saviyasiga putur etkazgandek tuyulishi mumkin. Bu zohiriy taassurot aslida, esseda suhbat o'rning, ustaxonaning tanlanishida ham ramziy ma'no bor. Rassom ustaxonasi, jihozlari, turli xil polotno va kartinalar tasviri asar tabiiyligini ta'minlagan.

SHukur Xolmirzaev "Saylanma"sining 4-jildi adib esselarining ma'lum qismini o'z ichiga olgan bo'lib ular bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, tadrijiy tartibda berilgan. Uning esselari kitobxonni dastlabki satrlaridanoq o'ziga rom etib qo'yadi. Xususan, "Qadimiy Baqtriya tuprog'ida" nomli esseda muallif o'zining vatan, xalqlar va ularning urf-odatleri haqida o'z bilganlarini bayon etadi. Momosidan eshitgan ertak, cho'pchaklarini bir-bir xotirlaydi. Ularni kitobxon bilan birga mag'zini chaqishga intiladi. Xalqlar, dinlar, ajdodlarimiz haqida aslida har birimizning qon-qonimizga singib ketgan, ammo ko'p-da

¹ Холмирзаев Ш. Сайланма. Эсселар. 4-жилд. "Шарқ" НМАК. Тошкент. 2007. 55-бет. (бундан кейин олинган кўчирмаларда шу китобнинг бети кўрсатилади).

yodga olavermaydigan tushunchalar to'g'risida so'zlaydi. O'zining yashagan vohasi, aholining etnik kelib chiqishi va shu bilan bog'liq afsonalarni hikoya qilib beradi. Bularni o'qigan kitobxon ham, o'zining atrofidagi odamlar, yashab turgan joyining tarixini bilishga qiziq boshlaydi, yoshligida xuddi adib kabi biror-bir eshitgani bormi, ularni yodga oladi, sog'inib xotirlaydi. esseda nafaqat afsona, cho'pchaklar, balki, aniq tarixiy dalillarni ham keltiradi.

esseni o'qish jarayonida Surxon xalqi butun ruhiyati bilan o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanadi. Bu esa adibning o'ziga xos samimiy bayon etish uslubi va hissiyotlarga boyligidan dalolat beradi. U o'z esselarida so'z san'ati vakillari, adabiyot, san'at ahlining etuk namoyondalari, qalamkash do'stlari, jamoat arboblari, boshqa kasb egalari bo'lsa-da, badiiy adabiyotni chin dildan sevuvchi, uni tushunuvchi insonlar haqida sermazmun voqealarni hikoya qiladi. Bu xususida adib shunday yozadi: "Adabiyotda bo'lsin, hayotda bo'lsin umrim yulida iz qoldirgan shaxslar haqida bir-bir esse yozib qoldirishni o'ylab yurardim"⁹. SHukur Xolmirzaev o'zining bu niyatini juda yuqori darajada esselarida ifodalay olgan.

⁹. Холмирзаев Ш. Сайланма. 4-жилд. Тошкент: Шарқ, 2007. 527 бет.

2.2. esselardagi obrazlar olami, muallifning obraz yaratish mahorati

Adib qissalaridagi singari aksariyat hollarda esse qahramonlari ham Surxon kishilaridir. Jumladan, Oysha momo, Xayrulla ("Bir vujudda ikki jon"), Zoyir Mamajanov ("SHimol yog'dusi"), Mengziyo Safarov ("Oldi ortingga kara") singari esselarida tog'lik kishilarga xos qaysarfe'llik, jaydarilik, mardlik fazilatlarini mujassam.

"Binafsha hidlang, amaki" turkum esselarida ilgari surilgan umumiy mushtarak g'oya - bu samimiy do'stlik mavzusining o'q chiziq singari o'tishidir. Bu turkumga kirgan xotira-esselarda bir-biriga yaqin Uchqun Nazarov, SHukur Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov, Nizom Komilov, Turgun Azizov, Anvar Maqsudov, Abdulla Oripovlarning o'zaro do'stona munosabatlari haqida turli xil hayotiy, maishiy voqealar, ijodiy safar va gurgunlar hikoya qilingan. Ammo ularning boshini biriktiruvchi, ularga bosh-qosh bo'lib turgan shaxs, shubhasiz, O'lmas Umarbekov edi. Bu obraz barcha turkum esselarda faol ishtirok etmasada, bu qahramon, albatta, essening echimida yoki tugunida ko'zga tashlanadi, muallif xotiralarida eslanadi. SHuning uchun ham SH.Xolmirzaev bu xotira-esselarni "O'.Umarbekov haqidagi esselar" deb ataydi. Bu esse-xotiralarda insonning yaxshi-yomon kunlarida "haqiqiy do'st, albatta, bir-biriga suyanchiq bo'lishi kerak" degan juda katta tarbiyaviy-ma'rifiy g'oyaga urg'u beriladi.

SH.Xolmirzaev xotiralarida o'nga yaqin shaxslar harakati, holatini baravar ravishda kuzatib, har birining qiligi, odati va holatini batafsil tasvirlash orkali takrorlanmas memuaristika iamonalarini yaratdi. YAna shuni ta'kidlash joizki, SH.Xolmirzaev fakat A.Qahhor, O'.Umarbekov, U.Nazarov, O'.Hoshimov, A.Oripov, M.Burhonov, B.Zokirov, M.Qo'shjonov, Ro'zi CHoriev, M.Safarovlar kabi mashhur kishilari haqidagi emas; fermer, millioner o'zbek dexqoni (Qurbon Amirkulov), tadbirkorlar, jamoatchi shaxs (Alp Jamol), onasi (Oysha momo) haqida ham betakror esselar yaratdi. "SHukur aka ana shu shaxslar haqida maroq bilan, ehtiros bilan, yayrab-suyib yozdi. Ayni chog'da barcha esselarda yozuvchining "men"i - shaxsi ham "mana men" deb bo'y ko'rsatib turibdi. Tilga olingan har bir voqea-hodisada adibning sinchkov nigohi yaqqol seziladi. SHu

ma'noda yozuvchi o'zining mukammal tarjimai holini ham yaratdiki, bu adabiyotimiz tarixida bir yangilik bo'ldi"¹.

“San'atkorlarimizning ijodkorlar haqidagi esdalik-esselari keyingi paytlarda alohida bir yo'nalish kasb etdi. Qush tilini qush bilganidek, san'atkor tabiatini, ijodning ko'z ilg'amas o'ziga xos qirralarini hamkasblaridan bo'lak kimsa shunchalik nozik ilg'ashi va obrazli ifodalab berishi qiyin. SHu boisdan ham san'atkorlar haqida san'atkorlar bitgan sahifalar qalbiimizni nurli yog'dulari ila isitadi”². SHu jihatdan qaraydigan bo'lsak, esse-xotirada U.Nazarov, O'.Umarbekov, F.Musajonov, A.Oripov, O'.Hoshimov singari shoir va yozuvchilar, kompozitor M.Burhonov, aktyor T. Azizov, milliy estrada asoschisi B.Zokirovlar ziyoli qatlam - yozuvchi, shoir, kompozitor, telemuhandis, rejissyor, aktyor singari san'at ahllari qahramon sifatida ishtirok etadi. Ularning ahvoli-ruhiyasi, adabiy hamkorligi, kechagi kunga va kelajakka munosabati batafsil hikoya qilinadi. Voqealar ishtirokchisi bevosita yozuvchining o'zi, u voqealarni ko'r-ko'rona hikoya kilmaydi. Har bir qahramonning botiniy va zohiriy olamini yozuvchi yangidan kashf etishga harakat qiladi. YOzuvchi ijodkor do'stlariining bir-biriga munosabatini, jamiyat va adabiy hayot haqidagi fikrlarini xolis hikoya qiladi. O'lmas Umarbekovga bag'ishlangan esseda yozuvchining badiiy niyati 60-yillar avlodining fikri-zikri o'z millatini dunyoga tanitish, xalqining an'ana-qadriyatlarini e'zozlash, garchand mustamlaka sharoitida bo'lsa-da, millat g'ururi, or-nomusini himoya qilishga chog'langan avlodning sa'y-harakatlarini ko'rsatishdan iborat edi. essenavis shu niyatda ziyoli qatlamning uchrashuvlarini, suhbat- yigilishlarini, ijodiy safarlarini hikoya qiladi. Ularning o'zaro suhbatida mavjud jamiyatga nisbatan norozilik kayfiyati seziladi. Bu xususan, A.Oripovning "Bulbul" she'ri bilan bog'liq lavhada yanayam yaqqol ko'zga tashlanadi: "Qarasam, bu ramziy (ayni chog'da realistik) she'r davra ishtirokchilarining lablariga istehzoli tabassum hadya etib, ularni bir-biriga ancha

¹ Шодмон Отабек. Адабиёт қисмат бўлса... / Ш.Холмирзаев замондошлари хотирасида. Т. 2010. –Б. 112.

² Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилолари. 11-бет.

yaqinlashtirib qo'yibdi: go'yoki davrada "bulbullar" o'tirishibdi-yu, birlarining ko'nglini izohsiz anglab turishibdi". SH.Xolmirzaev zamonaviy o'zbek ziyolisini diqqat bilan kuzatadi, ulardan kichkina bo'lsa-da, milliy fazilat izlaydi. CHunki sir emas, o'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib xalqimiz vakillari orasida yurish-turish va kiyinish, so'zlash va muomala madaniyatida ruslashish boshlangan, 60-70-yillarda esa bu "madaniylashish" avj pallasiga chiqqan edi.

Adib esselarida muallifning yillar davomida to'plagan tajribasi, badiiy adabiyotni qalbdan his etishi, intellektual darajasi, asarlari kabi samimiy qiyofasi ham aks etadi. Xarakteridagi uyatchanlik, oriyatlilik, to'porilik, andishalilik, qo'rslik kabi jihatlarni ham yashirib o'tirmay, kitobxonga bayon etadi. Bu "Farg'ona yo'llarida" essesinde yorqinroq ko'zga tashlanadi. Unda ijodkor do'stlarning Farg'onaga dam olgani borgani va sayohat voqealari hikoya qilinadi. Do'stlarining ra'yini qaytarmaslik uchun pulsiz bo'lsa ham ular bilan yo'lga chiqqan SHukur Xolmirzaev safar chog'ida do'stlar o'rtasida bilinar-bilinmas nomutanosibliklar borligini sezadi va bu do'stlikni "samimiy emas" degan xulosaga keladi. Bu borada o'zining xayoliy kechinmalarini ham bayon etadi: "Nega bu odamning ra'yiga bunchalik qarash kerak? YOshi ulug'ligi uchunmi? Puli ko'pligidanmi? YO do'stlikning taomili shunday bo'ladimi, o'zi?.. "Do'stlik qandaydir tenglikni ham taqozo etmaydimi?"

Muallif qahramonlarning xarakterini o'rganishda ob'ektiv kuzatuvchi, ayrim o'rinlarda personaj obraz, keyingi so'nggi sahifalarda essenavisning o'zi bosh qahramon sifatida ko'rinish beradi. CHunonchi asar boshlanishida ob'ektiv kuzatuvchi Uchkun Nazarovga bag'ishlangan qismda anchagina faol qahramon darajasiga ko'tarilgan. SHartli ma'noda yozuvchining bevosita esseda ishtirokini quyidagicha formulada berishimiz mumkin: sof muallif -> muallif-hikoyachi -> muallif-personaj obraz -> muallif-bosh qahramon. Bu formula "Binafsha hidlang, amaki" essesinde turli o'rinlarda turfa shaklda almashinib turadi.

O'lmas Umarbekov obrazi. Xotiralarning markaziy qahramoni O'lmas Umarbekov essening dastlabki sahifalaridan to oxirigacha 60-yillar avlodining

boshini biriktiruvchi, do'stlari o'rtasida juda katta hurmat va e'tiborga ega muloyim tabiatli. o'ta madaniyatli shaxe sifatida tasvirlanadi YOzuvchi "Binafsha hidlang, amaki" essesida ko'shimcha izohlar, tafsilotlar, kuzatuv asosidagi mulohazalarga berilib ketmaydi. essenini yakunlaydi. U o'zining real turmush va ijodiy gurunglari tafeiloti va xarakterlarini uyushtirib beruvchi markaziy kahramoniga urg'u berib boradi: "Umarbekov oshni damlab, yuvib-artib keldi"(167-bet). Ziyofat tugagach, ijodkor do'stlar mashinalarga bo'linib ketishadi. SH.Xolmirzaev O'.Umarbekov mashinasida ketar ekan, o'zaro suhbat davom etadi. essenavis hikoyalarga xos sodda va jo'n jumla tuzish uslubini esselarida xam kuzatish mumkin. Xususan, yozuvchi O'.Umarbekov bilan mashinada ketishini bitta jumla bilan ifodalaydi: "Jo'nadik." SHu bilan birga muallif o'zining mashinadagi o'ylarini ham beradi. Bunday ruhni kechinmalar bayoni, erkin fikr-mulohazalar tavsifi 60-yillar avlo- dining millat uchun chekkan iztirobi yagona ekanligiga urg'u beruvchi vosita bo'lib xizmat etadi.

"Binafsha hidlang, amaki" essesining davomi "Avlod safida" qismida U.Nazarovning SH.Xolmirzaev uyiga tashrifi, uning mashinasida er-xotin Saida va SH.Xolmirzaevni radioga olib borishi, u erda asosiy qahramon O'.Umarbekov bilan uchrashuvi, yana ijodkor do'stlarning choyxonadagi gurung-suhbatlari xotiralar mag'zini tashkil qiladi. SH.Xolmirzaev qahramonini kashf etishda ayovsiz davom etadi, goh mulohaza. o'y-kechinmalar, xotira, kuzatuvlarini uzundan-uzoq bayonlarda beradi. Jumladan, xotira-mulohaza: "Bu mulohazaga tagin bir xotira - U.Nazarovning uyida O'.Umarbekovning osh pishirgani, hamda keyinchalik ham guvoh bo'ldimki, bunday o'tirishmalarda uning hech qachon qo'l qovushtirib turmasligini ilova qilishim mumkin"(174-bet). YOki O'.Umarbekov haqida yozuvchining kuzatuv-mulohazalari ham syujet chizigini tashkil qilgan: "Bu mulohazalarga tag'in bir - muhim kuzatishimni qo'shmasam bo'lmas: Umarbekov biznikidan boshqa, kazo- kazolarning davralarida ham qandoq o'tirishni yaxshi bilardi: lof emas, kezi kelganda, naq bek bo'lib ketardi". essenavis xotira-mulohaza, kuzatuv-mulohazalarini yakunlab, O'.Umarbekov haqida umumiy xulosa ham chiqaradi: "Ana endi bu kuzatishu mulohazalarni

yakunlasam shu bo`ladi: bu inson, bu adib, bu arbob - chin ma`noda o`zbekona, ayni chogda ovropacha madaniyatni o`ziniki kilib yuborgan va uning har bir xatti-harakati ana shu madaniyatlar omuxtasiga bo`ysunar edi""(175-bet).

Botir Zokirov obrazi. Qo'shiqchi B.Zokirovga bag'ishlangan esse "Binafsha hidlang, amaki!" turkum esselariga kiradi, bu esselar orasida Botir Zokirovga bag'ishlangan esse-hikoya eng ta'sirchan yozilgan. Ma'lumki, turkumning birinchi qismida Botir Zokirov personaj obraz sifatida ishtirok etadi. U bir chekkada o'z xayollari bilan parishonxotir o'tiradi. Hatto kitobxon uning esseda ishtirokini ilg'amay ham qolishi mumkin. Faqatgina xayol dunyosidan uni o'zaro suhbatga jalb qilgan qahramonlar luqmasi orqaligina Botir Zokirovning ham borligi esga tushadi. Sh.Xolmirzayev uning xayolchan tabiatini quyidagi satrlarda shunday ifodalaydi: "... u kishi qandaydir parishonhol ko'rinar, hamsuhbatining gapini tinglamayotganga o'xshar, illo nuqul nari-beriga qandaydir nuqtalarga qarar-tikilar, ammo aftidan suhbatdoshining deylik, so'roqlariga aniq-aniq javoblar qaytarardi"(153-bet).

Essenavis esse-xotiralarida kuzatganimizdek, aksariyat xotiralar ekspozistiyasi kutilmagan tashrif, favqulodda tadorik yoki kulminatsion nuqta bilan boshlanadi. Chunonchi, Botir Zokirov haqidagi esse xonandaning vafoti haqidagi yarim tundagi telefon qo'ng'irog'idan boshlanadi. Demak, esse to'g'ridan-to'g'ri yechim bilan boshlangan. Bemahal telefon qo'ng'irog'i asarga fojeiy tus, ohang bergan. Xususan: "Telefon jiringlashidan uyg'onib ketdim... soatga qarab oldim. To'rt yarim... Tabiiy jahlim chiqqan: kim u - shunday paytda bezovta qilgan? Qishloqdan bo'lsaydi: tiichlik bo'lsin-da...". Albatta, kitobxon bunday favqulodda bir holatga duch kelib, voqeaning davomiga qiziqib qoladi. Bu fojining mashhur xonandaning oila a'zolariga, qolaversa do'stlariga ta'sirini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Sh.Xolmirzayev esse janrining xolislik va haqqoniylik prinstipiga binoan Botir Zokirovning sevgan ayollari haqida ham oshkora hikoya qiladi. Xotira-esseda xonandaning tug'ma noyob qobiliyati bilan jismoniy dardi ham yozuvchi tomonidan e'tirof etiladi. Og'ir qismatga

qaramasdan o'zida yashashga kuch, matonat, iroda topa olgan qahramonning saboq bo'lishga arzigulik hayoti kitobxonni larzaga soladi.

"Avlod safida" essesda B.Zokirov obrazining keng dunyoqarashi, SH.Xolmirzaev va B.Zokirovning do'stona munosabatlari, shuningdek esse voqealarini bitta joyga uyushtiruvchi qahramon O'.Umarbekov bilan B.Zokirov munosabatlari esse-xotiraning asosini tashkil qiladi. "Umarbekov buni bekorga ardoqlamasa kerak: albatta! Unday mehri daryo yigit, va-ay sevadi-da bunday samimiy - san'atkor insonni! Umuman, Umarbekov baxtli yigit..."(178-bet). Xotirana muallif his- hayajonli uslub orqali B.Zokirov bilan O'.Umarbekov munosabatlariga yuqoridagicha izoh beradi.

O'.Umarbekovga bag'ishlangan "Binafsha hidlang, amaki" essesda yozuvchi garchand o'nga yaqin ijodkorlarning guruh-suhbatlarini hikoya qilgan bo'lsada, birok kolgan uchta esseda ham O'.Umarbekov obrazi voqealarni harakatlantiruvchi asosiy kuch asosiy shaxe sifatida xotiralarda chuqur iz qoldiradi.

"Farg'ona yo'llarida" essesi "Binafsha hidlang, amaki" turkumining uzviy davomi sifatida vujudga kelgan. esseda U.Nazarov, O'.Hoshimov, N.Komilov, SH.Xolmirzaevning Vodilga safari voqealari hikoya qilingan. essening ekspozitsiyasida ko'rinish bergan O'.Umarbekov shaxsi xotiraning voqealar rivoji, tugun, kul'minatsiyasida mutlaqo ishtirok etmaydi, ammo essening echimida arazlashib qolgan do'st - U.Nazarov bilan SH.Xolmirzaevni yarashtirib qo'yadi. To'rtta ijodkor dust - U.Nazarov, O'.Hoshimov, N.Komilov, SH.Xolmirzaev xotira boshlanmasida Vodilga safarni rejalashtirishadi. Rejaga muvofiq T.Azizovga safar haqida bildirmaslikka kelishishadi. SHu tariqa T.Azizovni nima uchun safarga olib ketishmaganligi haqidagi qisqirgan epizodik voqeani bayon etadi.

Mazkur epizodik kistirmalar xotirada T.Azizovning nima uchun katta xurрак otib uxlashi izohlanadi. Bu esa ayni paytda ijtimoiy- psixologik ta'sir tufayli xotira qahramonining shunday uxlashga majbur bo'lganini izohlab bergan. SH.Xolmirzaev esselarida kutilmagan tashrif, voqea, tafsilot, izoh, shaxsiy

mulohazalar beriladi. Bir qarashda bular essening kompozitsion tuzilishida muhim emasdek ko`rinadi. Sirtidan qaraganda asoslidek ko`ringan bu fikr zum o`tmay, asossiz bo`lib qoladi. Chunki aslida SH.Xolmirzaevning har bir essesinde mavzudan uzoqlashgandek ko`ringan voqealar, mulohazalar tafsiloti, aksincha, esse qahramonlarini, xarakter va voqealarni bitta joyga uyushtiruvchi komponent bo`lib xizmat qilganligini kuzatish mumkin. SHu ma`noda "Farg`ona yo`llarida" essesinde T.Azizov haqidagi qistirma epizodik voqeadan so`ng SH.Xolmirzaev batafsil tasviriylik tamoyiliga amal qilib Vodilning tabiati, odamlari, ularning muloyim xakteri, mehmondo`st shinavanda xalq ekanligini quyidagicha tasvirlaydi: "Ammo Vodilning chinorlari - ayricha bir mo`jiza ekan. SHu o`rinda bu o`lka odamlarining bir shinavandaligi xaqida gapirmay bo`lmas; chinor tagida deng, uzun-uzun stollar, rastalar. Rastalarda turli nav piyozu... unday joyda-kanoraga ilig`lik turli darajadagi go`shtlar... Aftidan, bular hammasi palovga atalgan. Ammo sho`rvabop masallig`lar ham serob... Hu, unday joyda - o`choqlar, choyxona..."(189). Demak, SH.Xolmirzaev vodil odamlarining shinavandaligini bozor rastalari, choyxonalari misolida ta`riflaydi. essenavis Vodil tasvirini Surxondaryo tasviri bilan kontrast usulda muqoyasa qilish yo`li bilan kitobxonga yanada yorqin tasvir beradi. YA`ni essenavis oldin Vodil chinorlari, chinorlar ostidagi rastalar, odamlari haqida gapirib, keyin Surxon chinorlari tasvirini chizadi: "Bizning Boysun chinorlari tagida shamol izg`iydi. Qora mollar soyalab yotadi. Sayrob chinori ostida oshxona-restoranda o`risi xo`raklar. Kabob bor. Ammo narxi osmonda... Kimb-o`tirib-buyurib esang e, bo`lmasam yo`lingdan qolma! Ko`ngling tusagan ovqatni uying- da ersan".

Vodiy va Surxondaryo tabiati, odamlari, ularning xakteri qiyoslangan bu tasvirlarni o`qish jarayonida kitobxon yuzida nimtabassum paydo bo`ladi. SH.Xolmirzaev qiyosiy tahlil uchun chinor detali orqali qiyosiy-tahliliy tasvir uslubiga erishgan.

Vodiy odamlarining quvnoq tabiatli, samimiy inson bo`lishini Hayitboy Azimov haqidagi qistirma xotira-tafsilotlar orqali dalillab beradi.

SH.Xolmirzaev ayrim o`rinlarda ortiqcha emotsiyaga berilib ketgan o`rinlar ham uchraydi. Uzida tugilgan shaxsiy his-hayajonlarini ritorik so`zlar bilan ifodalaydi: "YAshasin O`tkir! YAshasin kotib! (Ay, ismlari nimaydi? SHunda...)". Nazarimizda, essedagi bunday erkin tasvirlar janrning keng imkoniyatlaridan yozuvchi mahorat bilan foydalanganligidan dalolat beradi. essenavis "Farg'ona yo'llarida" essesda arziyas sabablar tufayli paydo bo`ladigan dilxiraliklar bois do`stlikka putur etishi mumkin bo`lgan ishonarli, hayotiy voqealarni hikoya qiladi. Xotiralar bayonida U.Nazarovning tegmanozik, kibrli, hukmronlikka o`ch xarakteri ochiladi. Umuman, esse asosini U.Nazarov bilan SH.Xolmirzaev o`rtasida kechgan konfliktli munosabatlar tashkil qiladi.

Ma`lumki, essening qahramoni va hikoyachisiga aylangan SH.Xolmirzaev U.Nazarov bilan munosabatlarini yaxshilashga urinayotgan do`stlarining harakatlarini kuzatishda davom etar ekan, ekspozitsiya qismida T.Azizov haqidagi tafsilotlar ilovasiga yana qayta murojaat qiladi. Va do`stlik haqida essenavis shaxsiy mulohazalarini bayon etadi: "Do`stingni ko`nglini topish uchun o`ylar ekansan-a? Ajab... Uning ranjigani - seniyam dilgir qilar ekan...

- SHunda hayrat ila Turg'un Azizovning mehmonxonada cho`zilib xurrak otayotganiyu do`stlarining uni uygotmasdan balkonda chekib o`tirganlari esimga tushib ketdi.

- Vo-oo... Ana ran qaerda! SHoshma, biz haqiqatdan ham do`st bo`lib ulgurdikmikan? Do`stlik deganlari shumikan?"¹.

Ko`rinadiki, SH.Xolmirzaev esse xotira sahifalarini ortiqcha tafsilotlar, mulohazalar yoki voqealar bayoni bilan bezamaydi. Aksincha, tafsilotlar - yuz berayotgan voqealar mohiyatiga chuqurroq razm solishga xizmat qiladi. Zero, yuqoridagi parchada yozuvchi Turg'un Azizov, Uchqun Nazarov bilan bog`liq voqealarni mushohada qilar ekan, u do`stlik haqidagi tushunchaga teran ma`no beradi.

YOzuvchi do`stlar o`rtasida kechgan konfliktli munosabatlarni boshidan kechirar ekan, turkum xotiralarning markaziy qahramon O`lmas Umarbekovning

¹ Холмирзаев Ш. Фарғ'она йўлларида // Туркистон. -1999.- 18 сент. -Б. 5.

ovozi xayolida yangraydi: "... va goyibdan... O'lmas Umarbekovning nimadir deb zarda qilgani eshitilgandek bo'ldi: xudo haqqi, shunday tuyuldi. Men darhaqiqat jim bo'lishni ma'qul bilib, boshimni egdim". Demak, SH.Xolmirzaev hagto esse-xotira janrida xayoliy kechinmalar tasviridan ustomonlik bilan foydalanadi. "Binafsha hidlang, amaki" turkum esselarida ko'pincha yozuvchining shaxsiy xayollari, kechinmalari yoki qahramonlar o'rtasidagi o'zaro suhbat mashina ichida beriladi. Nazarimizda, aynan shunday makon va zamon chegarasi SH.Xolmirzaev esselarining o'ziga xosligini ta'minlagan.

SH.Xolmirzaev "U kishim ustoz, men-shogird" xotira-essesida Ustozining hayotini tasvirlar ekan, uning asarlari, Adabiyotga munosabati, haqiqiy yozuvchilar ijodini qadrlay olishi (masalan, A.Qahhorni «jivoy klassik», Oybekni «mutlaqo original adib» deya yuksak baholagani), iste'dodli yoshlarga e'tiborini diqqatidan qochirmaydi. eng avvalo, shogirdni Ustozining shaxsiyati, qanday odamligi qiziqtiradi. SHu bois hamma joyda, hatto uning uyiga borganda ham, ikkalovlari ovga chiqqanda ham Ustozini sinchiklab kuzatishdan charchamaydi. Kuzatishlari asosida M.Qo'shjonovning tashqi portretini ham chizadi: «...Keyin qo'shotarni elkasiga ilayotgan Matyoqub akaga behad-behisob minnatdorchilik bilan boqdim: «voy, qanday yaxshi odam-a – bu o'rta bo'y, jingalaksoch olim, O'zbekning Belinskiysi!». Qanchalar mard, to'g'riso'z va qo'rqmas ekanini ushbu ko'rinishi ham isbotlayotgandek edi».

2.3. esseda portret yaratish mahorati.

Professor Izzat Sulton portret yaratish masalasida shunday xulosa qiladi: "Portretni ikki yo'l bilan yaratish mumkin: 1) qahramonning tashqi qiyofasi hikoyaning boshilayoq chizib beriladi; 2) qahramonning tashqi qiyofasi asar davomida detallar vositasida tasvirlanadi"¹. Shukur Xolmirzaev kichik nasriy asarlarida ko'proq ikkinchi yo'ldan foydalanib, portretni tasvirlaydi. Bu holatni esselarida ham kuzatish mumkin. Bu uslub murakkab bo'lib, tasvirlanayotgan inson portretini o'quvchi ongiga singdirish maqsadida adib bu borada o'ziga xos tajriba va individual uslubga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Ayni paytda "badiiy

¹ Иzzат Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент. 1980. 181-бет.

asarda inson tasviri uchun, eng muhimi, uning ichki dunyosidir” deb yozadi I.Sulton. Haqiqatan ham asar qahramonining gap-so’zi, nutqi va fikrlari uning portreti to’g’risida yaqqol tasavvur uyg’ota oladi. Sh.Xolmirzaev O’.Umarbekov, M.Qo’shjonov va boshqalar portretini tasvirlashda xuddi shu yo’ldan boradi. Esseni o’qish jarayonida ularning o’ziga xos ijodkor va haqiqiy inson ekanliklari yorqin namoyon bo’la boradi. Xulosa qilib aytganda, shu jihatdan Shukur Xolmirzaevning milliy portret yaratish borasidagi tajribasi o’ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi esselarda ham yaqqol namoyon bo’lgan.

SH.Xolmirzaev hikoya va qissalarida qahramon portretini yaratishda o’ziga xos yo’ldan boradi. Ta’kidlash joizki, SH.Xolmirzaev hikoyalaridagi kabi qahramon portretini asarning ma’lum bir joyida batafsil chizmaydi, asar davomida turli xil o’rinlarda sochma tarzda ifodalaydi. YOzuvchi qahramonlarning birorta xarakatini nazardan chetdan qoldirmaydi.

“Binafsha hidlang, amaki” essesinde adib O’.Umarbekov portretini yaratar ekan, uni tabiiy berishga harakat qiladi: "Uchqun o’rik tagiga etmasdan eshikcha ochilib, Umarbekov... kirdi. Urfdagi engi kalta, ok ko’ylakda, bo’ynida (deyarli uzilmaydigan) bo’yinbog’. O’rta buy, ixcham, xuddi, o’ynoklab turgan tulporday. Zinadan tez tusharkan, uydan chiqkan onaxonga yo’liqdi. Onaxon bir qo’lini sal ko’tardi. Umarbekov sal egilib, kiftini tutdida, keyin anchagina so’rashdi. Nihoyat, Uchkun sari yurdi va ular chakkalarini bir-biriga tegizib ko’rishdilar. (Ajab odatlar!) Keyin Uchqun shart qayrilib, meni ko’rsatdi.

- Tanivossizmi?

Umarbekov kulimsirab menga tikildi-da, birdan qovoqlari beo’xshov chimirildi.

- SHukur emasmi? SHukur Xolmirzaev "To’lqinlar"ning avtori! - so’ng savoliga javob kutmay men tomonga ildam jildi. (Holbuki men jilishim kerak edi.)

- O’sha, - dedi Uchqun orqada qolib. - Tanishvolinglar. YAxshi yigit. O’zimiz katori.

- Juda yaxshi-da, o’zimiz qatori bo’lsa!

- E, biz hali ancha...

Gapim og'zimda qoldi. Umarbekov kelib, qo'limni oldi. Uning kafti, panjalari ham gavdasiga yarasha-bakuvvat, miqti edi. Ammo yuzidan (ont ichaman!) nur yogilayotganga o'xshar, go'yoki, meni ko'p yillardan beri izlab yurgan edi-yu, ittifoqo uchratib qolgan edi"(149-bet). essenavis qahramonning eshikdan kirib kelishidan tortib, kiyinishi, gavdasi, yuzi va harakatlarini bir so'z bilan aytganda, tashqi portretini chizadi. Xususan, O'.Umarbekovning eshikdan kirib kelishi, zinadan tu shishi, shu iayt uydan chiqqan onaxon bilan so'rashishi, nihoyat U.Nazarov bilan chekkasini chekkasiga tekkizib ko'rishganligini batafsil tasvirlaydi. Xotira muallifi shu o'rinda ikkita erkak kishining ko'rishishiga munosabatini, ajablanishini kavs ichida berib ketadi: (Ajab odatlar!) SHu kichik bir jumlada, yozuvchining holatga shaxsiy, erkin munosabati ifodalangan. SH.Xolmirzaev xotira qahramonlari nutkida Toshkent shevasini o'z holicha beradi. Bu bilan yozuvchi essening haqqoniylik va jonli tasvir uslub me'yorini saqlab qoladi. Qahramonning yuz ifodasidagi holatni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Jumladan, "Umarbekov kulimsirab menga tikildi-da, birdan qovoqlari beo'xshov chimirildi" yoki "... oshxona oldida stolda tik turguncha savzi sanchib qimirlatar, ruschalab allanimalar der..."(165-bet). O'.Umarbekovga tegishli yukoridagi real tasvirda qahramonning tik turguncha sabzi to'g'rashi, qo'lidagi pichokka sabzini sanchib qimirlatib suhbatlashishi harakatni jonlantirgan.

Bundan tashqari SH.Xolmirzaev boshqa bir qahramonning fikrlari orqali ham O'.Umarbekov portretini, xarakterli xususiyatlarini chizishga, yoritishga intiladi. Masalan, U.Nazarov nigohida: “- O'lmas hikoya qilib yozsin. U o'ylay boshladi...Siz Gulchi qizni uning o'ziga o'xshatgan ekansiz-a? Xursand bo'pti. Umuman, O'lmas yaxshi odamlarni yaxshi ko'radi. Lozim paytida yomon jihatlarini yashiradi, o'zini ko'rmaganga soladi...SHukur, bu- juda yaxshi fazilat!”(180-bet).

M.Qo'shjonovga bag'ishlangan essening kitobxonni qiziqtiruvchi yana bir tomoni bor: unda nafaqat Ustoz M.Qo'shjonovning portreti yaratiladi, balki

yozuvchi o`zining ham avtoportretini chiza boradi. «Sevgi va Adabiyot», «Davomi..» fasllarida yozuvchining shoirtabiat, erkinlikka intiluvchi fe`li ochila boradi. Bu sahifalarni o`qib, ko`z oldingizda xalq sevgan adib SH. Xolmirzaevning qalbingizga yaqin, asarlari kabi samimiy qiyofasi gavdalanadi. Siz ijodkorga yanada yaqin bo`lib qolganligingizni sezmay qolasiz. Asarning shu qismida chegara bilmas samimiy tasvirlar, essegga xos erkinlik, ilmiy va badiiy tafakkurning uyg'unlashuvi, muallifning «men»i ayniqsa, bo`rtib ko`rinadi. Biroq shuni ham aytib o`tish kerakki, ba`zida adibning xayollari haddan ziyod cho`zilib ketadi.

esseda adib do`stlari A.Oripov, e.Vohidov, N.Xudoyberganov, M.Safarov kabi ijodkorlarning xarakteriga xos chizgilar beradiki, bu ham kitobxon bilan yozuvchilar, munaqqidlar orasidagi masofani yaqinlashtirishga yordam beradi. Asar qahramonlarining deyarli barchasi adibga tanish, yuragiga yaqin odamlar, shuning uchun bo`lsa kerak, uning samimiy xotiralarida bu kishilarning butun hayoti ko`z oldimizda yaqqol gavdalanadi.

«Binafsha, xidlang, amaki» essesi sahifalarida Botir Zokirovning ichki va tashqi portreti boshqa esse qahramonlariga nisbatan ancha tiniq tasvirlanadi. Uning ko`rinishi, qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi, qiziqishlari, hikoyalar mashq qilgani, rassomchilik bilan shug'ullangani haqidagi ma`lumotlar xonanda to`g`risida qo`shimcha noyob ma`lumotlar etkazadi.

SH.Xolmirzaev xonandaning serqirra iste`dodini quyidagicha ifodalaydi: "... nazarimda bir emas - bir necha odamga o`xshar, aniqrog'i, bir emas, bir necha iste`dodlarga nasib etishi mumkin bo`lgan qobiliyatga ega shaxe ediki, ko`ngli tusagan tomonga nazarini qaratar - bu yo`rigda u bag'oyat erkin-ozod inson edi". YOki "aytmoqchi, Botir Zokirov – estrada qo`shiqchisi, o`zbek estradasining asoschisi, M'yuzik-xoll yarataman deb armonda ketgan (u yaratgan ham edi, keyin kimlardir tarqatib yubordi) ulug' san`atkor...maqom kuylarimizni jon-dilidan yaxshi ko`radi" (254-bet).

SH.Xolmirzaevning "Takdir bashorati" (SHukur Burhonov portretiga chizgilar) esse-xotirasi alohida ajralib turadi. esse boshlanmasi "Bir oqshom

suhrati"ga o'xshash uslubda, ya'ni qahramon portretiga chizgilar bilan boshlanadi: "SHukur Burhon yoshligida ham g'o'labir, jingalaksoch, ko'zlari serma'no, harakatlari so'ziga mos, faqat biz hozir ko'rib turgan SHukur Burhonning kichik nusxasi edi"(7-bet). esseda ikkita syujet chizig'i ko'rinadi: birinchi syujet chizig'ida SHukur Burhonning hayoti va ijodi bo'lsa, ikkinchi syujet yo'nalishida, o'zbek teatr san'atining 1926 yillardan to 1968 yilgacha bo'lgan tarixi yoritiladi. Demak, mazkur esse-xotirada muallif shaxe tabiati, hayoti va ijodini keng miqyosda ochib berishda xotira janrining muhim komponentlaridan biri xronologiyaga qattiq amal qiladi. SH.Xolmirzaev teatr dargohi sirlarini, bu sirli olamga kirib kelgan yosh SH.Burhonning ilk qadamlaridan tortib, "SHoh edip" tragediyasidagi edip rolining ijrosigacha bo'lgan davr aks eggiriladi. "Binafsha hidlang, amaki" essesda asosan, yozuvchi-shoirilar davrasi kashf qilingan bo'lsa, "Taqdir bashorati" essesda aktyorlar. rejissyorlar va dramaturglarning qizg'in olami kashf etiladi. Jumladan, o'zbek dramaturgi sifatida tan olingan Hamzadan tortib, Komil YAshin, Tuyg'un, Ziyo Sayd, Nazar Safarov, Zinnat Fatxullin singari ijod- korlarning dramatik asarlari ham sanaladi. Ayniqsa, shular orasida Komil YAshinning sa'y-harakatlari, teatr rivojiga qo'shgan munosib hissasi atroflicha yoritiladi.

SHukur Burhonning san'at olamiga kirib kelishiga otasi qarshilik qiladi. Xuddi shu hayotiy ziddiyatdan SH.Xolmirzaev xotiralar bayonida ota-bola konfliktidan unumli foydalanadi. SH. Xolmirzaevning bu essesi SH. Bo'taevning "SHayx", Z.Muhammadjonovning "Sirli qalb" esselari bilan uzviy bog'liqlikni tashkil etadi.

SH.Xolmirzaev hikoya janridagi mahorati singari esselarida ham qahramon portretini bitta o'rinda batafsil chizmaydi. Voqealar bayonida kahramonning tashqi ko'rinishi, kiyimi, haqida izohlar beradi: "Abdullajon ham tushib keldi. Bir ko'lida kanop bilan bog'langan bir taxlam kichik-kichik kitoblar, bir qo'li cho'ntagida - shu qo'lining qo'ltig'ida konspekt daftarlarni qisib olgan, plashining oldi ochiq, yiroq safarga otlangan ziyolini eslatadi". Bu portret chizgilari esse- xotiraning boshlanmasida beriladi. Keyinrok "Lekin bu uzun

plash tagida, bu shlyapa ostida hayron-hayajonli tikilayotgan ko'zlar tubida o'sha siymo yashirinligi ham aniq edi"; yoki "... ikkovlon - yana plashda, shlyapada, qo'ltiqlarda kitob-daftarlar bilan..." va h. k.

Ro'zi CHorievga bag'ishlangan esse matnida SH.Xolmirzaev portret, dialog, izohlash, avtor nutkidan o'rni-o'rni bilan unumli foydalangan. Suhbat jarayonida rassomning serzahmat ijodiy mehnatda kechayotgan hayotidan voqif bo'lamiz. eng muhimi, rassomning o'ziga xos xarakteri, u yaratgan kartinalarda tasvirlangan qahramonlar va vatan manzaralari, ranglar mo'jizasi, bevosita uning shaxsiy hayoti, bolalik yillari bilan chambarchas bog'liqligi, ranglarning rassom hayotiga uygun jihatlari ochiladi. Ko'pgina kartinalar R.CHoriev tug'ilib o'sgan ona yurti Surxondaryo tabiati, odamlari, voqeligi bilan bog'liqligi, bu vohani o'ziga xos manzaralarini, rangin nafasi hukmronligini sezamiz. Xususan, "Surxondaryo taronalari", "Janoza", "Surxondaryo madonnasi", "Boysunliklar", "Surxondaryo odamlari" asarlarining yaratilish jarayonlari ona yurt bilan bog'liqligi ta'kidlab o'tiladi. Qolaversa, xotiralar mag'ziga singdirib yuborilgan yozuvchining yon- daftar qaydlari beixtiyor kitobxonni rassomning ijodiy laboratoriyasiga olib kiradi. SHuningdek, rassom shaxsning kechinmali, hissiy tafakkur olami bilan tanitamiz. Bu satrlarda rassom shaxsning hayot va san'at haqidagi mulohazalari, hayotiy, shaxsiy kuzatishlari ochiladi. SHu bois rassomning jo'shqin, bolatabiat, jaydari, biroz to'pori tabiatini, xarakter qirralarini essenavis to'laligicha ochgan.

Uning "Yo'llar ayro tushdi, ammo..." essesi ijodkor do'sti Abdulla Oripov haqida yozilgan bo'lib, unda muallif kursdosh do'sti bilan bog'liq talabalik yillarini xotira-kechinma shaklida hikoya qiladi (131-bet).. Sarlavhadagi "yo'l" so'zi essening ramziy ma'no yo'nalishini belgilab bergan. Binobarin, "Yo'llar ayro tushdi, ammo..." sarlavhadagi ko'p nuqtalilik yozuvchi va shoirning badiiy adabiyotning ikki turi - nasr va nazm yo'lidan ketganligini ifoda eteada, ammo xalq dar- dini, hayotini aks ettirishdagi qurol bitta ekanligini bildiradi.

Sarlavhadagi sirlilik va joziba ko`p nuqta zimmasiga tushgan. Asar shunday satrlar bilan yakunlanadi: "Abdullajon shu erdan o`ngta burilib, favvora tomoi ketdi. Men avtobusga o`tirib, to`g`riga yo`l oldim.

Yo`llarimiz ajrashdi... Ha, ramziy ma`noda ham shu...

Demak, esseda yo`l ramzi xotira tuzilishining o`ziga xosligini ta`minlagan. Binobarin, boshqa esselardan farqli jihat barcha voqealar ana shu timsol atrofida uyg'unlashadi, jiislashadi.

SH.Xolmirzaev asosan, esselarda I shaxs "men" tilidan xikoya qiladi: "Plashimning yoqasini ko`tarib, zinadan tushayotgan edim"(131-bet). Muallif-qaxramon o`zining ichki kechinma o`ylariga, bolalik xotiralariga, tafeilotlarga, batafsil tasviriylikka keng o`rin beradi. Xususan, "Kayfim chog`: "adabiyot to`garagi"da "YOmg`ir tomchiladi" degan hikoya - "yaxshi" baho oldi, to`garak rahbari - dorilfununda ilk bor ma`ruza o`qiy boshlagan nozikta`b olim (marhum akademik) Matyokub Qo`shjonov hikoyamni maqtash bilan cheklanmay, meni o`rnimdan turg`izib qo`yib, kimmanu kaysi yurtlardan ekanimni-da surishtirdi, boz ustiga - uyiga taklif etdi: "Ovdan xabardor bo`lsang, ondatra oviga chikamiz. Xotinko`prikning tagidan o`tadigan nahr bo`ylarida botqok, qamnshzorlar ko`p..."(309-bet). YUkoridagi esse matnida muallif- qaxramon kayfiyatining nima uchun a`loligini izohlaydi va olim Matyokub Qo`shjonov bilan o`zaro munosabatlariga izoh berish yo`li bilan batafsil tasviriylilik, izohlash uslubidan keng foydalanadi.

esse matnining turli o`rinlarga sohib berilgan tabiat tasvirlari ham ramziy ma`no tashigan: "Kuz. Kech kuzakning dag`algina shamoli esib turar, yo`l bo`yidagi o`ris daraxtlardan qovjiroq yaproklar uchar, seniyam bir taraflarga uchging kelar edi - turnalar kabi"(287-bet). Matndagi kuz faslining tasviri, ya`ni daraxtlardan uchib tushib, osmonda gir- gir aylanib, sollanib tushayotgan bargning ijobiy ma`no ottenkasi essening yosh va navqiron talabalariga o`zgacha kayfiyat bagishlaydi. YA`ni muallif-qahramon ham yaproq singari, yoxud kuzda issiq o`lkalarga uchib ketuvchi turnalar singari qaerlargadir, oliy manzillar sari uchib ketgisi keladi. Aniqrog`i, talaba SH.Xolmirzaev bilan A.Oripov hayot

ostonasida uchirma qush kabi turishibdi. SHu o`rinda sof muallif o`zi va do`sti A.Oripovning aynan o`sha vaqtdagi axvoli, talabalar va adabiyot ahli orasidagi tutgan obro`yi hakida ham izohlar, kolaversa, qistirma epizodik voqealarni hikoya qiladi.

Professor Izzat Sulton portret yaratish masalasida shunday xulosa qiladi: “Portretni ikki yo`l bilan yaratish mumkin: 1) qahramonning tashqi qiyofasi hikoyaning boshilayoq chizib beriladi; 2) qahramonning tashqi qiyofasi asar davomida detallar vositasida tasvirlanadi”<sup>1</sup>. SHukur Xolmirzaev kichik nasriy asarlarida ko`proq ikkinchi yo`ldan foydalanib, portretni tasvirlaydi. Bu holatni esselarida ham kuzatish mumkin. Bu uslub murakkab bo`lib, tasvirlanayotgan inson portretini o`quvchi ongiga singdirish maqsadida adib bu borada o`ziga xos tajriba va individual uslubga ega ekanligini ta`kidlash lozim. Ayni paytda “badiiy asarda inson tasviri uchun, eng muhimi, uning ichki dunyosidir” deb yozadi I.Sulton. Haqiqatan ham asar qahramonining gap-so`zi, nutqi va fikrlari uning portreti to`g`risida yaqqol tasavvur uyg`ota oladi. SH.Xolmirzaev O`Umarbekov, M.Qo`shjonov va boshqalar portretini tasvirlashda xuddi shu yo`ldan boradi. essenini o`qish jarayonida ularning o`ziga xos ijodkor va haqiqiy inson ekanliklari yorqin namoyon bo`la boradi. Xulosa qilib aytganda, shu jihatdan SHukur Xolmirzaevning milliy portret yaratish borasidagi tajribasi o`ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi esselarda ham yaqqol namoyon bo`lgan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda bo`lgani kabi esseda ham portret yaratish va uning mukammal chiqishi ijodkorning iste`dodi va tajribasiga bog`liq. Ikkinchidan, badiiy asarda ham, esselarda ham portret uchun asosiy masala va talablardan biri uning ichki dunyosi tasviridir. Uchinchidan, SH.Xolmirzaev barcha asarlarida, jumladan, esselarida ham portret yaratishda qahramonning ma`naviy dunyosini tasvirlash bilan uning tashqi qiyofasini ko`rsatishga alohida ahamiyat beradi. To`tinchidan, adib mazkur masalada til imkoniyatlari (lahja, sheva, jargon kabi hodisalar), detallar, tasviriy vositalar va kezi kelganda adabiy izohlardan oqilona foydalanadi.

¹ Иzzат Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент. 1980. 181-бет.

Ushbu bobga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, SH.Xolmirzaev – essenavis adib sifatida turli mavzularda qalam tebratar ekan, ularning barchasi adib xotiralaridan sizib chiqadi. Adib oʻziga yaqin insonlar obrazini yaratar ekan, bevosita oʻzining kuzatishlariga, xotiralariga tayanib ish koʻradi, shu bilan birga obraz yaratishda realizm tamoyillariga sodiq qoladi. Adib qaysi obrazni yaratmasin, u Oʻ.Umarbekov boʻldaimi, M.Qoʻshjonov boʻladimi, yoki doʻstlari boʻladimi, bundan qatʼi nazar ularning har bir harakatini mayda detallargacha kuzatishdan, ulardan xulosa chiqarishdan charchamaydi. Natijada tasvirlanayotgan har bir obrazning oʻziga xos portreti chiziladi, kitobxonda maʼlum tasavvur, taassurot uygʻota oladi. Bu fazilat adib esselarini yanada qiziqarli, u yaratgan obrazlarni yanada jozibali qilib tasvirlashga yordam beradi.

III BOB. SH.XOLMIRZAEVNING eSSENAVISLIKDAGI MAHORATI MASALASI

3.1.Esselarda muallif “men”i talqini

esselar turli xil shaklda namoyon boʻlsa-da, ularga yaxlit estetik butunlik baxsh etuvchi narsa, bu sanʼatkor “meni”, ijodkor dunyoqarashidir. “Ana shu sanʼatkor “meni” nuqtai nazaridan estetik baholangan voqelik jarayonlarini,

adabiy hodisalar mohiyatini anglaymiz. Bunda ma'naviy-intellektual tayyorgarligimiz ham hal qiluvchi rol' o'ynaydi. SHu boisdan ham turlicha tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilarda birgina essening o'zi turfa tahayyullar uyg'otmasa-da, turlicha ta'sir ko'rsatishi, o'y-mushohadalar uyg'otishi tabiiydir",-deb yozadi N.Rahimjonov¹.

Munaqqidning ijodkorlar haqidagi essesi XX asrning 70-yillarida alohida yo'nalishda rivojlana boshladi. Ularda san'atkorning tabiati, ijodining nozik jihatlari, o'ziga xos qirralarini ilg'ab, obrazli va ilmiy tafakkur chig'irig'idan o'tkazib berish tamoyili kuchli. Bu xususiyat, ayniqsa, esse-romanda yorqin aks etgan. Ilmiy tadqiqot bilan badiiy asar oralig'ida shunday bir adabiy-tanqidiy janr borki, uni esse -roman deb atash mumkin. Tanqidchi A.Rasulov uni "ilmiy-ommaviy, tanqidiy-biografik asar" deb ataydi. Roman-badiiy asar sifatida yozuvchining obrazli tafakkuri hosilasi, esse-roman esa - tanqidiy asar, to'g'rirog'i, ilmiy tadqiqot bilan badiiy tadqiqot o'zaro uyg'unlashgan oraliq shakldir.

Evropadan farqli o'laroq, bizda ham ancha ilgari avliyolar haqidagi manqibalar, adib va tarixiy shaxslar haqida ("Makorimul-axloq", "Temurnoma") memuarlar shaklidagi asarlar mavjud edi. Aslida madaniyat arbobi, ijodkor shaxs haqidagi roman tipi Evropa adabiyotida o'tgan asrda shakllangan, unga frantsuz yozuvchisi Andre Morua asos soldi. XX asrning 30-yillarida M.Gor'kiy taklifi bilan bir qator yozuvchi va olimlar shu tipdagi adabiy tarixiy-biografik romanlar ijod qila boshladilar. SHu tariqa "Ajoyib kishilar hayoti" seriyasiga asos solindi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham XX asrning 60-yillarining oxiridan yuzaga kela boshlagan bunday esse-romanlarda ilmiy-nazariy tadqiqotchilik yo'nalishi bilan birga ilmiy-ommaboplik va ma'rifiylik xususiyatlari ustuvor. SHu ma'noda "Ajoyib kishilar hayoti" turkumidagi asarlarda adabiyotshunoslik va tanqidchilik "fikrlari kamolining yorqin izlari" ko'rinadi.

Sof belletristik esse hajman chegaralanmagan, erkin kompozitsiyali, sinkretik tarzda yaratiladi. Ammo adabiy-tanqidiy mavzuda yoziladigan esse,

¹ Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилolari. Тошкент. "Фан", 1991. 44-бет.

ayniqsa, esse-roman ham sinkretik hususiyatga ega, ammo unda ko`pincha kompozitsiya qat`iy bo`ladi. Tanqidchining barcha mulohazalari, ular erkin, xayolotga to`yingan bo`lsa-da, aniq bir yozuvchining hayoti va ijodi muammolari atrofida jipslashadi. essening o`ziga xos etakchi fazilati - erkin va bemalol fikr mulohaza yuritish tamoyiliga ega bo`la turib, mustaqil syujet yo`nalishi va qahramonga ega ichki lavha - epizodlar asosida tarkib topishidir. Bu xususiyat, ayniqsa, esse-romanda yaqqol namoyon bo`ladi. SH.Xolmirzaevning M.Qo`shjonovga bag`ishlangan asarini esse-roman deb atash mumkin.

Haqiqatan ham bu silsiladagi asarlar orasida SH.Xolmirzaevning esse-romanlarida janrga xos xususiyatlar etakchidir. Oldingi fasllarda ta`kidlab o`tilganidek, adabiyotshunoslikda XX asrning 70-80-yillarigacha yaratilgan tanqidiy-biografik yo`sindagi tadqiqotlarda ijodkorning asarlariga ko`proq e`tibor qilinardi. Asarni yaratgan ijodkor shaxsning inson sifatidagi, tabiatidagi muhim xususiyatlar, ijodkor sifatida shakllanishiga ta`sir ko`rsatgan muhitning o`ziga xosligi, ijodkor ruhiyati bilan bog`liq masalalarga kam e`tibor berilardi. Mustaqillik yillarida yaratilgan esse-romanlarda bu kamchiliklar ma`lum darajada tuzatilayotganligini ko`rish mumkin.

SH.Xolmirzaev akademik M. Qo`shjonovga bag`ishlangan essisini e`lon qildi (adibning o`zi uni esse-qissa deb atagan). O`zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi haqida adabiy portretlar, esse, esse-romanlar, tanqidiy-biografik ocherklar, monografiyalar ko`plab yaratilgan. Ammo o`zbek munaqqidlari ijodi haqida bu fikrni aytish qiyin. I. Sulton, H.YOqubov, M.Qo`shjonov, O. SHarafiddinov, N.Karimov, U.Normatov singari ulkan olimlarning hayoti va ijodiga doir turli janrlarda ko`plab asarlar yaratish imkoniyati bo`lsa-da, tanqidchilik bu sohaga kam e`tibor berib keldi. Bu adabiy-tanqidiy esse-roman hisoblanadi.

Adib boshidanoq o`z oldiga aniq maqsad qo`yadi: «U holda, «Bu odamning o`zi kim? Qanday shaxsu qanday adabiyotshunoski, bunchalar Ustozlik qilgan bo`lsa? degan savol tug`ilmasmi? Tug`ilar-ov... Nihoyat meni yanada chuqurroq o`ylashga majbur etgan hol - Olimning Olamga-yu Adabiyotga

qarashi, ya'ni bu boradagi aqida-yu qanoatlarining o'z hayotida - umrguzaronligida namoyon qilishi (pirovardi, ularning bir-biriga chirmashib bir butunlik hosil qilgani), alqissa, Uning menga bo'lgan munosabatlarida ham, demak, bu holning namoyon bo'lishi tarzida esse yozishga qaror qildim».

Asardagi essegga xos -chegara bilmaslik, erkin fikr yuritish kabi xususiyat uning sarlavhasidanoq ko'zga tashlanadi. « U kishim- ustoz, Men- shogird» deb nomlangan asarda bosh qahramon M.Qo'shjonov va yozuvchining o'zi bo'lsa ham, esse adibning hayotdagi boshqa ustozlari: SHukur Burhondan tortib, N Fozilov, T.Jalolov, maktabdagi adabiyot o'qituvchisi, otasi, onasi, qalbiga yaqin kishilar haqidagi xotiralarga o'ralgan samimiy mulohazalar, eng muhimi, Mehr, Ustozlarga ulkan ehtiromdan iborat.

essegga xoslik fazilatlaridan biri hayotdagi kishilar bilan yozuvchi orasida «kechgan- kechirmishlar»ning tabiiy tasviri bo'lib, u asarga joziba baxsh etib turadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ham o'zgacha: 8 qism va ular ham o'z sarlavhalariga ega kichik-kichik fasllardan iborat. Bu usul o'quvchi diqqatini o'ziga tortish xususiyatiga ega ekanligini birinchi «O'zbek Belinskiysi» degan sarlavha bilan boshlangan fasldayoq ko'rish mumkin. Bu sarlavhani o'qigan bilan M.Qo'shjonovning qanday olim ekanligi va adabiyot oldidagi xizmatlari qay darajada ekanligini darhol anglab etadi.

esseneng boshidayoq M.Qo'shjonov portretining muhim chiziqlari tortiladi. Asarni o'qigan sari olimning qiyofasi ko'z oldingizda yuksalaveradi. SHogirdning Ustozga munosabati, unga havas qilishi, har bir gapiga, qilig'iga e'tibor berishi kabi epizodlar tasviri juda tiniq va tabiiy chiqqan. SHu bois essenavis qalamidan chiqqan so'zlar sehri qalbimizga yaqin bo'lib qoladi. SH.Xolmirzaev Ustozining hayotini tasvirlar ekan, uning asarlari, adabiyotga munosabati, haqiqiy yozuvchilar ijodini qadrlay olishi, iste'dodli yoshlarga e'tiborini diqqatidan qochirmaydi. eng avvalo, shogirdni Ustozining shaxsiyati, qanday odamligi qiziqtiradi. SHuning uchun hamma joyda, hatto uning uyiga borganda ham, ikkalovlari ovga chiqqanda ham Ustozini sinchiklab kuzatishdan charchamaydi. Kuzatishlari asosida M.Qo'shjonovning tashqi portretini ham

chizadi. Ustozu shogird qaerda, qay vaziyatda bo`lmasinlar hamisha ijod haqida, Adabiyot haqida suhbatlashishadi.

Ustozu shogird qaerda, qay vaziyatda bo`lmasinlar hamisha ijod haqida, Adabiyot haqida suhbatlashishadi. M.Qo`shjonov talabasiga shunday deydi: «Bilishing kerak. YOzuvchi uchun tabiatni bilish- hayot mamot masalasini bilish bilan tengdir, degim keladi. Tabiatning bir bo`lagimiz-da, o`zimiz ham SHukurvoy». Ustozining so`zlariga amal qilgan shogird tabiat haqida eng zo`r yozadigan o`zbek yozuvchilaridan biri bo`lib etishgani bugun hammaga ayon. Bunda M.Qo`shjonovning ta`siri ulkan ekanligi ko`rinib turibdi.

“Ayni chog`da barcha esselarda yozuvchining "men"i - shaxsi ham "mana men" deb bo`y ko`rsatib turibdi. Tilga olingan har bir voqea-hodisada adibning sinchkov nigohi yaqqol seziladi”<sup>1</sup>. SHu bois asarning barcha o`rinlarida- darsda, repititsiyada, qishloqda, kvartirada-qaerda bo`lishidan qat`i nazar- hamma joyda SHukurning-shogirdning o`y-xayollari doimo Ustozi bilan, Adabiyot bilan bog`liq holda kechadi: repititsiya paytida salobatli, o`z so`ziga ega, teatr jonkuyari SHukur Burhon bilan M. Qo`shjonovga xos mushtarak tomonlarni qiyoslaydi; qishloqda ham, qaerda bo`lmasin, shunga bog`liq holda ustozining gaplarini eslab yuradi, tafakkur chig`irig`idan o`tkazadi. Adabiyot bilan bir umrga bog`liq ekanini ham yozuvchi sifatida tanilmay turib his etadiki, bu ham buyuk inson- M.Qo`shjonovning iste`dodli shogirdiga ishonchi natijasidir.

SH.Xolmirzaev bir adabiy suhbatida esse janrining «yozuvchiga behad keng erkinliklar berishi haqida gapirgan edi, bu haqda yuqorida to`xtalgan edik. Haqiqatan adibning o`zi ham tasvirlanayotgan voqea-hodisa haqida fikr yuritar ekan, o`z ko`nglida tug`ilgan his-hayajonini, shaxsiy mulohazalarini ham bemalol bayon etish yo`lidan boradiki, bu so`zlar barcha shogirdlarning sevimli Ustozlariga qalb ehtiromi sifatida namoyon bo`ladi, u shogirdlar qalbida Mehr, Hurmat kabi insoniy tuyg`ular uyg`otishga qodir.

¹ Шодмон Отабек. Кўрсатилган манба -Б. 113.

Ilmiy tadqiqot bilan badiiy asar oralig'ida bir tanqidiy janr borki, uni esse-roman deb atash mumkin. Tanqidchi N.Xudoyberganov uni "ilmiy-ommaviy, tanqidiy- biografik asar" deb ataydi. Avvalo roman bilan esse-roman o'rtasida qanday farq bor degan savolni echish zarur. Roman-badiiy asar, yozuvchining obrazli tafakkuridir. esse roman esa - tanqidiy asar, to'g'rirog'i, ilmiy tadqiqot bilan badiiy tadqiqot o'zaro uyg'unlashgan asar oralig'idagi shakldir. "Mashhur kishilar hayoti" turkumida yaratilgan esse - romanlar o'zbek adabiyotida juda ko'plab yaratilayapti. Ularning yuzaga kelishi tarixiy, ilmiy va ma'rifiy ahamiyatga ega. SHu nuqtai nazardan qaraganda SH.Xolmirzaevning mazkur asari esse-roman janrida yozilgan deb hisoblagan ustozimizning qarashlariga qo'shilamiz. Haqiqatan ham asarda obrazlar ko'lamining kengligi, voqea-hodisalar tasvirining keng diapazonda berilishi, makon (voqealar Surxondaryoda, Toshkentda, Xorazmda tasvirlanishi), zamon (o'tmish va bugun) nuqtai nazaridan ham asarni esse-roman deyish imkoniyati kuchli.

3.2. Adib uslubiga xos xususiyatlar ifodasi.

Badiiy asarlarda ijodkor uslubi qanchalik aks etsa, esseda ham yozuvchi-tanqidchining betakror qiyofasi aniq aks etib turadi. Munaqqid asarida ilmiy mantiq aniq sezilib turadi. YOzuvchi essesida adabiy tanqidning san'atlik xususiyati yarq etib ko'zga tashlanadi.

SH.Xolmirzaevning "Binafsha hidlang, amaki" asari alohida syujet va kompozitsiyaga ega bo'lgan to'rtta essedan iborat: "Binafsha hidlang, amaki" (O'lmas Umarbekov haqida), "Farg'ona yo'llarida" (Uchqun Nazarov haqida), "Binafsha hidlang, amaki" (Botir Zokirov haqida), "Issiq jon" (SHukur Xolmirzaev bilan Abdulla Oripov haqida). Bu esse-xotiralarda O'lmas Umarbekov obrazi markaziy o'rinda turadi. "Binafsha hidlang, amaki" turkum esse-xotiralar syujeti kontsentrik va retrospektiv syujet tizimiga ega. CHunki xotiralarning boshidan oxirigacha O'lmas Umarbekov maishiy, ijodiy voqealarni, gurung suhbatlarni bitta joyga uyushtiradi. SH.Xolmirzaev 90- yillarda turib, 60-70-yillarda bo'lib o'tgan voqealarni eslaydi. Demak, yozuvchi orqaga, ya'ni

o`tmishga qaytadi. Mazkur xususiyatga ko`ra, bu esse-xotiralar retrospektiv syujet asosiga kurilganligini qayd etish mumkin.

Bu turkum esselarda yozuvchi esse-xotiralari uslubiga xos jihatlardan biri - eng mayda detallargacha erinmasdan tasvirlash. X.Do`stmuhammedov "Hozirgi o`zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi" mavzusidagi iomzodlik dissertatsiyasida yozuvchi SH.Xolmirzaevning so`nggi yillarda yaratgan hikoyalari tahlilida batafsil tasviriylik printsipini qo`llayotganligini ta`kidlab o`tadi. Aynan shu fikrni SH.Xolmirzaevning esselariga nisbatan ham qo`llash mumkin. Hatto yozuvchi ayrim o`rinlarda qavs ichida shaxslarga, hatto mayda predmetlarga izoh beradi. Jumladan, "SHu bo`yi shkaf ustidagi (tug`ilgan kunimda Umarbekov sovg`a qilgan) soatga qarab oldim" - SH.Xolmirzaev yarim tunda qaragan soatining turgan joyini, hatto uni kim sovg`a qilganligini izohlaydi. Albatta, bu bilan essenavis O`.Umarbekov bilan o`zi o`rtasidagi samimiy do`stlik munosabatlariga urg'u beradi. Bu tipdagi o`rinlar esseda juda ko`p uchraydi: "Botir bizning uyimizga (u konservatoriyaning orqasida yashardi, biz esa yo`lning bu betda...), ... men esa Botirning behad hurmat qiladigan rafiqasi erkli Malikboeva bilan adabiyot haqida (u kishi ayniqsa Paustovskiyni yaxshi ko`rar edi.) suhbatlashardik...", To`lan Qo`ziboevning ("Tabassum"ning eski muharriri) to`yiga borib edik", "Ertasi tabiiy, Turg'un Azizov rulda (moshina Umarbekovniki edi)..." va h. zo.

SH.Xolmirzaev uslubining ikkinchi jihati qahramonlar harakatini jonli tarzda go`yoki hozir yuz berayotgandek tasvirlashida ko`rinadi. Jumladan: "Qaltirab nima qilishimni bilmay turganimda, yotog`idan xotinim ko`zini uqalab peshonasi tirishib chiqib keldi"(247-bet). SHu tasvirni "Telefon qo`ngirog`idan xotinim ham uyg`onib ketib, yotog`idan turib-chiqib keldi" - desayam bo`lardi. Ammo bunday tasviriy ifodada yarim tundagi besaranjomlik, vahimali holat maromiga etmagan bo`lardi. Kitobxonga ham ta`sir doirasi kam bo`lib qolardi. Uyquda yotgan odamning yarim tundagi telefon chaqirig`idan peshonasi tirishib, afti bujmayib, uyqusiragan ovozda chiqib kelishi tabiiy holat.

"Bir vujudda ikki jon" essesda tuzum etkazgan jarohat tufayli shaxsiy hayoti yo`kotilgan ayollar fojeasi kichik xotira lavhalarda mohirona aks ettirilgai.

esse-xotirada boychechak detali katta ramziy ma`noni ifodalagan. essening ekspozitsiya kismida yozuvchi oiasiga bir dasta boychechak terib kelganligini, ukasi Xayrullo bilan bo`lgan bir og`iz suhbatidan buni bilib olamiz: "-O`g`lingga ayt, mashinani yuvsii. Bagajda ul-bul narsa bor, ol. Bir dasta boychechak xam bor". SHu bilan butun boshli esse matnida boychechak umuman esga olinmaydi. esse echimida Xayrulla akasi keltirgan boychechakni momoga uzatadi. "- Mang, muni iskang! Boychechak. Akam terib kelgan ekan sizga deb... Oling-e!

- ebi, boychechak-ku! - oriqliq barmoqlari bilan olib goziga bosib hidladi. - Omonliq, omonlik...". Boychechak - detali esseda chiroyli bir echim bo`lib xizmat qilgan. Boychechak — bu dunyoning soxta e`tiqodlaridan poklanish, soxta va yolg`onlardan yuz burib, yangilik tomon talpinish ramzlarini ifodalagan. Xullas, esse syujet chizig`ida boychechak detali mantiqiy uzviylikni tashkil etgan. esseda ikkita syujet chizig`i ko`rinadi. Birinchisi, bu asosiy syujet chizig`i bo`lib, Oysha momo bilan bog`liqlik voqea, xarakterlar tasvirini o`z ichiga oladi. Ikkinchi, syujet chizig`i - yozuvchining bolaligi va ulg`aygan davri. M.Qo`shjonov, O.SHarafiddinov kabi adabiyotshunos olimlarimiz ta`kidlaganidek, SH.Xolmirzaev ijodida tabiat, jamiyat va inson uzviy aloqadorlikda tasvirlanadi. Adabiyotshunos I.Mirzaev o`zining doktorlik dissertatsiyasida bu haqda shunday deydi: "Umuman, SH.Xolmirzaev ijodida jamiyat va tabiat munosabatlarining markazida xamisha inson obrazi, uning murakkab kechinmalari va ezgu ideallari turadi. ... Tasodifiy emaski, adib yaratgan turli obraz va personajlarning tabiatga, go`zallikka karashlari o`rtasida katta o`xshashlik mavjud"¹.

Ma`lumki, SH.Xolmirzaevning bolalik va o`smirlik yillari Surxonning Boysun tumanida kechgai. Uning ijodida Boysun tog`lari, tabiati, ayniksa, ovchilik bilan bog`liqlik lavhalar nafaqat esselarida, kichik nasriy hikoyalaridan

¹ Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ўзбек насрининг тараққиёт йўллари. ДДА. 1991. –Б. 35.

tortib, yirik polotnodagi roman va kissalarida ham mahorat bilan chiziladi. Ayniqsa, yozuvchi tun, oy, archalar, so`qmoklar tasvirini mehr bilan aks ettiradi: "Tun, oy, archalar, so`qmoklaru qirlar - meniki edi:

Bulardan - ko`rqish.

O`zingnikidai ham qo`rqasanmi kishi? Bularga tobora mehrim ortar edi".

Birinchi turkum "Binafsha hidlang, amaki" essesi yozuvchining favqulodda kutilmagan tadorik tasviri bilan boshlanadi. YAngi kitob nashri muiosabati bilan U.Nazarov uyidagi ijodkor do`stlar O`.Umarbekov, A.Oripov, B.Zokirov, T.Azizov, N.Komilov, M.Burhonov, Dilbar (U.Nazarovnnig xotini), A.Maqsudov, SH.Xolmirzaevlar yig'ilishib osh qilishadi. Osh pishguncha bo`lgan jarayonda o`zaro suhbat va gurunglar "Binafsha hidlang, amaki" turkum esse-xotiralarning syujetini tashkil etadi. SH.Xolmirzaev ilk bor U.Nazarov uyidagi o`z davrining "adabiy yulduzi" bo`lgan O`.Umarbekov bilan tanishib, suhbatlashish baxtiga muyassar bo`ladi. essenavis turkum xotiralarda O`.Umarbekov xarakteri, ijodiga urg'u berib boradi, o`zining hayajonlarini, o`sha gurung va davralarda tug'ilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oshkoro ifodalaydi. Hatto ijodkorlarning ijodiy qiyofasi haqida izoxdar ham beradi. SH.Xolmirzaev essening ekspozitsiya qismida U.Nazarovning O`.Umarbekov bilan telefon orqali muloqotini bayon etar ekan, bevosita o`zining shaxsiy kechinmalarini ifodalaydi: "Men Uchqunning jasoratidan (ha, uning bu murojaatlari mening uchun jasorat edi) hayratda edim. O`lmas Umarbekovni "O`lmas" deb atadi. Buning ustiga bemalol gaplashdi" (145-bet). Muallif U.Nazarovning O`.Umarbekov bilan samimiy munosabatlariga xavas qiladi. SHuning uchun qavs ichida U.Nazarovning katta bir adib bilan erkin muloqotini "jasorat" deb ataydi. Hatto yozuvchi kavs ichida ta`kidiy izoh ham berib o`tadi. essenavis O`.Umarbekovning 60-yillar adabiyotida tutgan o`rniga alohida to`xtaladi: "... U o`shanda adabiyotga kirgan yangi avlodning oldi yozuvchisi, xususan, "Sevgim, sevgilim", qissasi uni mashhur qilib yuborgan, bundan tashqari, u radiokomitetda mas`ul lavozimda ishlardi""(145-bet). SH.Xolmirzaev mashinada keta turib ham bu ijodkor xaqidagi xotira-xayollarini, O`.Umarbekov bilan tanishishdagi

shodliklarini va hayajonlarini ifoda etadi: "Biroq bu shodlikning naryog'ida boshqa bir qizg'in quvonch ham bor edi: Umarbekov bilan o'tiraman. Qanday yaxshi! Tanishaman. O'tirishda o'zini kanday tutar ekan? ... Ko'cha-ko'yda juda jiddiy ko'rinadi. So'zga chiqqanda ham kulmaydi. SHu harakatlaridan biroz sun'iylik ham seziladi..."(146-bet). YOzuvchi adib bilan tanitnuvini xayol qilarkan, xatto O'.Umarbekov itaxsi haqidagi shaxsiy taassurotlarini xam, xususan, uning harakatlarida sun'iyliklar sezilishini ochiq aytadi. Bu esa esse-xogira yozishning xolislik va haqqoniylik tamoyilini o'zida aks ettirib turibdi.

essenavis U.Nazarov hovlisidagi har bir tasvirni, holatni, xarakatni erinmasdap batafsil tasvirlaydi. U o'zining markaziy qahramonini eshikdai kirib kelishidan boshlab batafsil tasvirlaydi: "Ko'chada "Volga" signal berdi. Keyii ko'cha eshik ogzida to'xtagani bilindi" (147-bet). SH.Xolmirzaev hovlida o'tirib, tashqaridagi xarakatni ichki intuitsiya bilan O'.Umarbekovga diqqatini qaratadi. Nihoyat, kutilgan mehmon - O'.Umarbekov hovliga kirib kelishini xotirnavis qanday ko'rgan bo'lsa shunday tasvirlaydi.

CHoyxonadagi suhbat asosida O'.Umarbekov qalamiga mansub "Qiyomat qarz" asarining yaratilishiga sabab bo'lgan omillar haqida ham ma'lumot olamiz. Hatto SH.Xolmirzaev shu davrada U.Nazarovda "Qiyomat qarz" hikoyasini fil'm qilish badiiy nnyat sifatida tug'ilganligini e'tirof etadi. essenavis bu turkum esselarda o'z ijodiga ham xolis yondoshib, ilmiy mulohazalarini beradi: "... Kechagi kun — kecha" dedik. Nima u? O'sha: kechagi kun - kechada, u - bugun bo'lolmaydi. YOxud "yovvoyi gul" madaniy gullar orasida o'sa olmaydi: so'liydi-quriydi. YOxud: har kim o'z o'rnida bo'lgani yaxshi-da...". Ko'rinib turibdiki, SH.Xolmirzaev xotiralarda xotira bayon uslubining turli xil turlaridan foydalanadi: xotira-mulohaza, kuzatuv-mulohaza, ilmiy- mulohaza. Aslida bular psixologik tasvir vositasining ichki monolog turiga yaqin keladi. Qaysidir ma'noda, esse-xotiralardagi muallif bayoniga tegishli o'rinlardagi o'ziga xos ichki monolog deyish mumkin.

Hatto ayrim o'rinlarda SH.Xolmirzaev essening markaziy qahramoni O'.Umarbekovga taqlidan xatti-harakatlar qilganligini ham ta'kidlab o'tadi:

"Men ham Umarbekovga taqlidan qo`limdagi tesha bilan o`tinga ishora qilgan bo`lib jilmaydim". essenavis butun diqqat-e`tiborini O`.Umarbekovga qaratgani holda, esse-xotiralarda o`ziga xos o`ringa ega bo`lgan boshqa qahramonlarning harakatini, holatini, ular haqida shaxsiy mulohazalarini ham ifodalashda ham davom etadi. Ammo xotiralar markazidagi qahramon O`.Umarbekov xarakter va voqealarni ulovchi vosita bo`lgan. Xususan: "mening xayolim asosan, O`lmas Umarbekovda esa-da, uning — chin bir o`zbek yigiti, mahalla bolasi sifatida bermalol savzi to`g`rayotganidan zavqlaiganim holda Botir Zokirovga ham e`tibor qila boshladim..." Demak, yozuvchi O`.Umarbekovga bo`lgan kuchli e`tiborini ta`kidlab, boshqa shaxslarni ta`riflash va tavsiflashga o`tadi. Xotiralar muallifi suhbatlar jarayonida O`.Umarbekovniig xatti-harakatini ichki intuitsiya bilan kuzatadi: " - Ja, shinavandasiz-de, Anvar, - dedi Umarbekov (sezib turibman) chin dildan"(164-bet). essenavis shaxsiy his-tuyg`ularini, kuzatuvchanligini qavs ichida izohlaydi. O`. Umarbekovniig Anvarga murojaati, ular o`rtasidagi o`zaro suhbatdan so`ng SH.Xolmirzaev A.Maqsudov shaxsiga to`xtaladi. SHu o`rinda A.Maqsudov, O`.Umarbekov, T.Azizov, U.Nazarov, B.Zokirovlarning moddiy ahvoli xakida qistirma shaxsiy mulohaza va kuzatishlarini hikoya qiladi. O`zining o`sha davrdagi moddiy ahvoli, oilasi, ijodiy ishlari haqida ham qisqacha ma`lumotlar beradi. Bunday qistirma epizodik tasvir va mulohazalar essegga yopishmagandek, muhim emasdek ko`rinishi mumkin. Biroq bu yuzaki taassurot. Aksincha, esse-xotiralardagi bunday kistirmalar, epizodik tasvirlar qahramonlar xarakteri va fe`l-atvorini, hayotini o`rganishda muhim manba. SHuningdek real hayotiy-maishiy, ijodiy voqealarini ulovchi kompozitsion butunlik sifatida ishtirok etadi.

SH.Xolmirzaev mazkur esseda davraga O`.Hoshimov, A.Oripovlar kirib kelishi, O`.Umarbekov U.Nazarovning yangi kitobini ko`liga olib zavqlanishini bayon etar ekan, A.Oripov haqida qisqacha ma`lumotlar beradi, yana xotirana vis diqqatini O`.Umarbekovga qaratadi: "Umarbekov yana kitobni qo`lga olib, o`rnidan turdi... SHu narsani yana ta`kidlashni istar edimki, bu ijodkor yigitlarning Umarbekovga muomalasini keyinchalik ham beixtiyor kuzatib

ko`rdim-bildim: aksar hollarda u kishining rayiga qarashar va o`zaro hal bo`lib bo`lgan narsalar xakida ham unga maslahat solishar, Umarbekov ham unga ular muomalasining qadriga etar va ulardan oshirib dildorlik ko`rsatar edi. Bundoq davralarda esa birinchi so`z, albatta, O`lmas Umarbekovga berilardi""(178-bet). Demak, SH.Xolmirzaev esse-xotiraning markaziy qahramoni O`.Umarbekov va umuman 60-yillar avlodi munosabatini yillar davomida kuzatadi. esse-xotiraning avj nuqtasida O`.Umarbekov bilan SH.Xolmirzaev osh qilishadi, qozonboshida adabiyot haqida, xususan, O`.Umarbekovniig "Gulchi qiz" hikoyasining badiiy-g'oyasi xususida o`zaro fikr almashishadi. YOzuvchi esse-xotiralarda real maishiy, ijodiy gurunglarni bayoi etar ekan, ularda muallif hikoyachi, kuzatuvchi, kichik personaj kaxramon sifatida ko`rinish beradi, O`.Umarbekov bilan xotirana vis muloqoti jarayonida har ikkalasining keng dunyoqarashi, o`ziga xos xarakteri ochiladi: "- Lekin menga shu hikoyaning yoqinkiramagan joyi ham bor edi, - dedim-u, yozuvchiiing yuziga qaradim. Uning manglayi tirishib ketgan. Bu achchiq-alamdan ko`ra, pinhona uyalishning iztirobli ajinlari edi...". YUz ifodasiga qarab, xotira muallifi kahramonning psixologik portretini yaratadi.

SHodmon Otabek: SH.Xolmirzaev memuaristikasi, "Saylanma" kitobning IV jildi hakida: "SHukur aka qaysidir maqolasida "Adabiyotda bo`lsin, hayotda bo`lsin umrim yo`lida iz qoldirgan shaxslar haqida bir-bir esse yozib koldirishni ilgaritdan o`ylab yurardim", deb yozgan edi. CHindan ham bu kitobda adib turli xil shakllarni uzok yillar mobaynida kuzatishi natijasida yorqin xotira asarlar yaratdi. Darhaqiqat, essenavis hikoyalaridagi sinalgan ijodiy tajribasini esselarida ham qo`lladi. "Binafsha hidlang, amaki" esse-xotiralarida izohlash, batafsil tasviriylkidan unumli foydalanadi: "Ha, ha, keyinchalik ham ko`p marta sezdim: Umarbekov asari biron bir kitobxonga ma`qul bo`lmaganini eshitsa ham, qattik aziyat chekar, ko`p vaqt qovog'i ochilmay yurardi. SHuning uchun Uchqun ham: "O`lmas bilan avaylab gaplashish kerak", der edi-da, keyin: "O`lmas juda orli, ko`ngli nozik adib, - deb qo`yardi. - Tagi beklardan chiqqan-da. Toshkent beklaridan. Aristokratligiyam shundan. Qo`li ochiqligiyam. Mardligiyam. Genlarida bor-da...". essenavis

qahramon xarakteridagi noziklikni xotiradagi boshqa kahramon mulohazalari bilan ham dalillaydi. Bu qismda ziyofat chog'idagi gurunglar, davraga M.Burhonovning kirib kelish tasviridan so'ng markaziy qahramoni O'.Umarbekovni yana kuzatishda davom etadi: "Piyolalar bo'shagach, Uchqun O'lmas Umarbekov bilan o'choqboshiga ketishdi". YOzuvchi asar oxirigacha o'z maksadidan chalg' olmaydi, qahramonini tinimsiz "ta'qib etadi". U 60-yillar avlodi hakidagi shaxsiy ichki kechinmalarini bayon etar ekan, shu usulda yana O'.Umarbekovga urg'u beradi: "Ha, bu avlod vakillari bilan o'tirish, tanishish, engil va og'ir mavzularda gurunglashish, ularni bilish men uchun qanchalik zavqli, faxrli bo'lmasin, baribir o'zimni tortibroq yurishni dilimga tugdim. Va shu damning o'zidayoq munglanib, go'yo hayot kamsitgan muiglig kishi holatiga tusha boshlagapimni sezdim: axir kanday uzoqlagay - o'zim yaqinlashishni orzu qilganlarimdan, xususan, O'.Umarbekovdan?"(158-bet).

SH.Xolmirzaev tasvirlarni bo'rttirib tasvirlash maqsadida ayol kishining ro'molidan detal' sifatida juda yaxshi foydalangan. "Bir vujudga ikki jon" essesida onasining shol ro'molining hilpirab, shamolda o'ynab osilib kelishi tasvirni yanada kuchaytirgan. esse-xotiralardagi individual tasvir va bayon uslubiga ko'ra SH.Xolmirzaev har bir predmetni erinmasdan izohlaydi. U shunchaki, onamning shol ro'moli osilib kelar edi, demaydi. Aksincha, muallif "Totor dugonasi to'qib bergan shol ro'mol" deb ta'kidlaydi. esse qahramoni Oysha momo nutqida sof Surxon shevasi qo'llanilgan: "- Dog'ingdi ko'rmayin. SHunday- shunday kep turmaysanmi, balam? O'tir. Xayri, ko'rpacha to'sha, xoda juttingma?".

Adib "U kishim ustoz, men-shoigrd" essesida turli-tuman: lirik chekinish, o'z-o'ziga murojaat, retrospektiv tasvir, qahramonlar nutqi orqali portret chiziqlarini chizish kabi usullarni mohirlik bilan qo'llaydi, o'y-xayollari orqali ustozga ehtirom ko'rsatish yo'lidan boradi, bular birlashib Ustozining mukammal qiyofasini yaratishga xizmat qiladi. Hayotda tirik bo'lgan Ustoz haqidagi tirik xotiralar yurakdan chiqqani uchun tabiiy ko'rinadi. SH.Xolmirzaev

Ustozining «Badiiy mahorat masalalari» maqolasini o`qigandagi holatini shunday tasvirlaydiki, go`yo «O`tgan kunlar»ni o`qib hayratga tushgan kitobxonni ko`rganday bo`lasiz. Bu «Adabiyot- hayot ko`zgusi» degan iborani jo`n tushungan talabaning munaqqid so`zining sehridan hayratlar va go`zalliklarga oshno bo`lgandagi qalb ifodasidir.

YOzuvchi SH.Xolmirzaev uslubiga xos bir ajib xususiyat uning esselarida ham yorqin ko`rinadi: yuqorida aytganimizdek asarda bosh qahramon M.Qo`shjonov bo`lsa-da, ba`zi qismlarda adibning o`z hayoti, sevgisi yoki SHukur Burhon bilan bog`liq voqealar, do`stlari bilan kechirmishlarini ham zavq bilan o`qiymiz. Ayniqsa, Saida bilan bog`liq lavhalar badiiy asardagidek o`quvchini o`ziga tortadigan darajada jozibali chiqqan.

Adabiyotda yozuvchi maktublari borki, ular ijodkor hayotida muhim o`rin tutadi. SHu bilan birga shogirdning ustozga, ustozning shogirdga maktublari ularning ijodida katta ahamiyat kasb etishi mumkin ekan, bundan tashqari ularning maktublari orqali ijod jarayoni ustidagi ishlari, mahorat sirlari va boshqa juda ko`p jihatlarni o`rganish mumkinligini yuqoridagi xatlar yorqin ko`rsatib turibdi.

Abdulla Qahhorning yosh iste`dodli ijodkorlarga yozilgan hajman qisqa, bo`lsa-da, ular ijodi uchun katta ahamiyat kasb etgan maktublari mavjud. Uning SH.Xolmirzaevga yozgan maktubi haqida essening «Ana yangilik, mana yangilik» qismida adib to`xtaladi. A.Qahhorning maktubi qisqa va aniqlikka ega: «Hurmatli SH.Xolmirzaev!

«SHarq yulduzi»da bosilgan «To`lqinlar» povestingizni o`qidim. Povest` yaxshi taassurot qoldirdi. Ma`murjonni boshda tabassum bilan tasvir etasiz. Butun asar davomida qisqalikka intilasiz. YOzuvchilikda ko`zingiz ochilib kelayotganligi ko`rinib turibdi. Nazarimda, povestning nomi to`g`ri emas.

Keyingi ishlaringiz baroridan kelsin!

Salom bilan Abdulla Qahhor»¹

¹ Абдулла Қаҳгор. Ёшлар билан суҳбат. Тошкент. «Ёш гвардия». 1968. 3-бет.

Bu xat va e'tiborning SH.Xolmirzaev ijodi va hayotida qanchalik katta o'rin tutganligini keyinchalik ham, esseda ham yozuvchining o'zi ham e'tirof etadi. Ustozi M.Qo'shjonovning Til va adabiyot institutiga direktor bo'lib tayinlangani, Saidaning unga turmushga chiqishga rozilik bildirgani uning uchun natijalar bo'lib hisoblanadiki, adib xursandligidan "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasini yozayotganligini ham aytib o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, adib esselarida badiiy kuchli bo'yoqlarda beriladi, uning hikoya, qissa va romanlari kabi esselar ham yozuvchi dunyoqarashini, samimiyatini tabiiy tasvirlashi jihatidan SH.Xolmirzaevning essenavislik mahoratini ko'rsata oladi. Ayniqsa, M.qo'shjonovga bag'ishlangan esseda shogirdning ustozga bo'lgan samimiy hurmati juda yuksak pardalarda tasvirlangani o'quvchi e'tiborini tortmay qolmaydi.

3.3. YOzuvchi mahoratining esse tilida aks etishi

SH.Xolmirzaev hikoya, qissa, romanlarida tilga alohida e'tibor bilan qaraydi. YOzuvchi asarlarida o'zi tug'ilgan vohaning milliy koloriti, ruhi, barcha qadriyatlari til orqali namoyon bo'ladi. Adibning esselarida ham bu xususiyat yorqin namoyon bo'lganini ko'ramiz.

SH.Xolmirzaev esse-xotiralarida qahramon nutqida dialekt xususiyatlaridan, dialog, ichki monolog, avtor bayoni singari badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanadi. essenavis qahramon xarakterini ochishda batafsil tasviriylilik tamoyiliga amal qiladi. (SH.Xolmirzaev "Binafsha hidlang, amaki").

SH.Xolmirzaevning "Farg'ona yo'llarida" essesida tasvirlanayotgan voqealarda Uchqun Nazarovning rejissyorlik va yozuvchi sifatidagi qiyofasi, shuningdek, uning fe'l-atvoriga xos bo'lgan cho'rtkesarlik va keskin xarakterlilik tasvirlanadi. Bu turkum esselarda yorqin anglashiladigan xarakter - qahramonlarning o'zaro suhbatida ruscha so'zlarning haddan ziyod ko'p ishlatilishi. Ayniqsa, bu holat O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Botir Zokirov, Mutal Burhonov kabi qahramonlar nutqida bo'rtibroq ko'rinadi.

Albatta, bu SH.Xolmirzaev tanlagan xos uslub. Chunki o'sha paytdagi davr va muhit 60-yillar avlodiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan, ular bolaligidan rus maktablarida tahsil olgan, oilada, do'stlar davrasida, jamoa joylarda ham rus tili orqali muloqot kuchaygan bir davr bo'lgan. SHularni anglab etgan essenavis ularning nutqidagi jargon va dialekt, o'zga til unsurlarini hayotda qanday bo'lsa shundayligicha kitobxonga takdim etadi. Fikrlarimizni isbotlash uchun SHukur Xolmirzaev bilan Botir Zokirov suhbatidagi bir parchaga e'tibor beraylik:

" - Hikoya menga yokdi, - dedim. Gapim shu. Qanday qabul qilsangiz shu, o'zingiz bilasiz.

- Neujeli?

-Da" (165-bet).

YOki O'lmas Umarbekov nutqidan:

"... Nizom, Abdullajon, bizziyam bitta kitobni U.Nazarovnikiga o'xshatib chiqarib beringlar. Duo qilamiz. Botir, chto s toboy?". Kompozitor Mutal Burhonov nutqida esa ruscha ibora va jumlar haddan ziyod ko'p qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Xususan:

"- Vsyo taki nado borot'sya! Za pravdu, za spravedlivost'! Za svobodu!"

esse qahramonlaridan O'lmas Umarbekov, Botir Zokirov, O'tkir Hoshimov nutqida esa Toshkent shevasi ustunlik qiladi.

SH.Xolmirzaev adabiy til me'yoriga amal qilmaydi, ya'ni "sabzi"ni "savzi" shaklida ishlatadi. Sababi qahramonlar mahalliy vakil - toshkentliklar, yoki viloyatdan shaharga kelib toshkentliklashib ke- tishgan.

SH.Xolmirzaev ijodida tabiat va hayvonot dunyosiga murojaat katta o'rganish manbai bo'la oladi. esse matnida metofora, metonimiya, o'xshatish, sifatliga singari badiiy tasvir vositalarini kuzatish mumkin. CHunonchi: "50-yillarda onam, demak, o'gay otamni boshiga pana qilgan edi". Oysha momo nutqida: "Peshonam tor ekan, nima qilay?" - deydi. Peshona - metonimiya hodisasi bo'lib, u o'zining asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda, ya'ni peshona - taqdir ma'nosida istifoda etiladi. SHuningdek, frazeologizmlardan ham keng foydalanilgan: bir yoqadan bosh chiqarmoq, ensasi kotmoq, ko'ngli

yumshab ketmoq, aqlini jeb ketmoq va h. k. YOzuvchi xalk maqollarining Surxon viloyati shevasidagi variantidan o`rinli foydalanadi: enkayganga enkaygin - boshing jerga tekkincha, qakqayganga qaqqaygin - boshing ko`kka jetgincha; birovga o`lim tilagandan ko`ra, o`zingga umr tilamaysanmi?; tug`ishgandan tutingan abzal; birovga choh qazsang, o`zing jig`ilasan va h.k. SHuningdek, original o`xshatish va sifatlashlardan foydalangan: "oltmishinchi-etmishinchi yillardan chiqib kelayotgandek", "o`tmishdan chiqib kelgan ajabtovur mehmonlar", "etmishinchi yillar bag`ridan chiqkanga o`xshab..." kabilar. Oysha momo timsolida poydevori bo`sh jamiyat uchun fidoiylarcha mehnat qilgan, xizmatlari uchun ordenu medallarga aldangan shaxe fojeasi ko`rsatilgan. Qolaversa, tashki va ichki "men" o`rtasidagi kuchli kurash jarayonini yoritgan ajoyib esse namunasi hisoblanadi. Qarama-qarshilik kechayotgan inson ruhiyati SH.Xolmirzaev esse va badi`alarida ijodkorlar, adabiyotning tom ma`nodagi jonkuyarlarining hayoti va ijodi, qismatida muhrlangan.

"SHimol yog`dusi" essesida Surxondaryolik jurnalist va yozuvchi Zoyirjon Mamajonovning ziddiyatli hayoti aks ettirilgan. SHimol — oppok koru muzliklar makoni bo`lishi bilan nurlik va pokizalik ram- ziga o`xshatiladi. SHu ma`noda, SH.Xolmirzaev o`z kahramonini shimol yog`dusiga o`xshatadi. Go`yoki u oppoq tuyg`ular, tilaklar singari atrof- dagilarni o`ziga tortadi.

essenavisning bir turkum Surxon jamoat arboblari bag`ishlab yozilgan esselarida qahramonni o`z tilidan gapirtirish uslubidan foydalangan. Xususan, "Arbob armoni" turkum esselarida bu holat yakkol ko`rinadi.

Iste`dodli jurnalist SHodmon Otabek "Adabiyot kismet bo`lsa..." maqolasida o`zbek essechiligida barkali ijod qilgan SH.Xolmirzaev haqida shunday deydi: "... SHukur Xolmirzaev esselarini xotira sifatida yozilgan memuar adabiyotning ajoyib namunalari deynsh mumkin. e`tirof etish kerakki, yozuvchi hnkoyachilikda qanday maktab yaratgan bo`lsa, esse janrida ham o`ziga xos bir

yo`nalishni boshlab berdi<sup>1</sup>. Darhakikat, SH.Xolmirzaev 60-yillardan boshlab o`zbek memuar adabiyotini o`zining 20 dan ziyod esse-xotiralari bilan boyitdi. "Binafsha hidlang, amaki" turkum esselarida 60-yillar avlodi hayotini xolis va haqqoniy kuzatdi. Ba`zi esse-xotiralarida adib qahramonlarini o`z tilidan gapirtirdi. Jumladan, "Bir oqshom suhbat" essesi rassom bilan suhbat asosiga qurilgan.

Tabiat tasviri esse-xotirada etakchi komponent sanaladi. Xotirada, SH.Xolmirzaev badiiyat unsurlaridan bo`lgan peyzaj vositasiga murojaat etish bilan o`zbek essechiligida yangicha ko`rinishdagi esse-xotira yaratdi. Chunki esseda peyzaj tasvirlari qahramonlar ruhiyatga monand aks ettirishi bo`lib, bu epik turning hikoya, roman, qissalardagi kabi badiiylilikni, obrazli ifodani esga soladi. Avvalo, peyzaj tasviri esseda qahramonlarning kayfiyatini ochishga karatilgan. "Ro`paradagi daraxtlar biram qalin, xuddi kech kuz nafasi bularga kor qilmagandek, anhor ham sovub ulgurmagandek bosik shovullar, goho-goho shoxlar orasidan elib o`tgan sho`x shabada yon tomondan urilar, u ham yoqimli edi"<sup>63</sup>. SH.Xolmirzaev bilan A.Oripov o`rtasidagi suhbat ham kuzning shabadalari singari mayin va yokimli, ayni paytda samimiy va do`stona kechadi. Ikkala do`st o`rtasidagi o`zaro suhbatdan so`ng muallif-qahramon ilk bor A.Oripovning ijod qilishini, unda shu kungacha sezgan she`riyatga bo`lgan salohiyatini aynan shu do`stona suhbatda kashf etadi. esse-xotira ikkita talaba o`rtok kuzning xazon faslida, yoqimli shamollari bag`rida suhbatlashishadi. essenavis aynan kuz fasliga doir badiiy detallarni mantiqiy davom ettirib, asar echimida shunday jumlar bitadi: "Kuz havosi ham bezovta, kechagi shamol yana kuchaygandek, endi yo`l bo`yidagi o`ris daraxtlarning so`nggi barglarini uchirib tushirardi"(189-bet).

Bizningcha, muallif kuz havosining bezovtaligini, shamolning kuchayganligini, daraxtlardagi so`nggi barglarni uchirib tushirganligini ta`kidlash bilan yangi chinakam iste`dodning ko`z ochganligiga ishora kiladi. Zero, inson

¹ Шодмон Отабек. Адабиёт қисмат бўлса.../ Ш.Холмирзаев замондошлари хотирасида, Т., G'.G'улом номидаги Матбуот нашриёт уйи, 2010. -Б. 112.

umrining yoshlik davrida shoshqin, hissiyotlarga beriluvchan, ruhan tetik, hayotga, bilimga va muhabbatga chanqoq bo`ladi.

Umuman, esse-xotirada tabiat lavhalari sochma holda ruhiyat holatlariga mutanosib ravishda berilgan. Asarda kuzning yoqimli shamollari qo`ynida ketayotgan ikki qahramon tabiat bilan uyg`unlikda tasvirlanadi: "E-e, SHukurjon, - dedi u shlyapasi qoshiga tushgan boshini egib shamolni suzgandek". Bu xotirada ajib tarzda aks ettirilgan vaziyat va kayfiyatga esh tasvir hisoblanadi. SH.Xolmirzaev bunday tabiat tasvirlarini chizar ekan, qahramon xarakterida ham samimiyluk va beg`uborlikni ko`radi: "Endi o`ylab qarasam, qanday pokiza damlar ekan - o`sha damlar! O`sha shamol ham o`zgachadek, plashlarimizning etaklari elpinishi ham, surilib - shamolni suzib olg`a jilishimiz ham..."

SH.Xolmirzaev do`stining she`r yozilgan daftarini o`qib chiqar ekan, aynan "Kuz" she`ri diqkatini o`ziga tortadi. Muallif shoirning "Kuz" she`ri haqida mulohaza yuritganida, tanlangan she`r xotira matnida mantiqiy izchillik va xotira-kechinma real voqealarni ma`lum bir tizimga keltirishda fokus vazifasini o`tagan. SHu o`rinda essenavis esse janrining paradoksli mulohazakorlik xususiyatidan unumli foydalanib, she`rdagi "erinchoq kuyosh", "sovuk yaltirayotgan xazonlar" haqidagi obrazli fikrlarini bayon etib, o`z shaxsiy, erkin munosabatini bildiradi.

Xulosa shuki, "Yo`llar ayro tushdi, ammo ..." essesida kuz peyzaj tasviri birinchidan qahramon kayfiyati va holatini ochishga xizmat qilsa, ikkinchidan asardagi holat va vaziyatga mutanosib ravishda voqealar mantiqiy izchillikda yoritilib, falsafiy-ramziy ma`no kasb etgan.

Kuzatganimizdek, SH.Xolmirzaev qator esse-xotiralarida qahramon haqida to`liq tasavvur paydo qilish maqsadida badiiy tasvir vositasi bo`lgan portret, peyzaj unsurlaridan xam mahorat bilan foydalanadi. Xotiralar kundalik hayotning quruq bayonlaridangina iborat emas. Unda shaxsiyatlar ochiladi. SHaxslar biografiyasi, jamiyatga ko`rsatgan foydali xizmatlari, o`ziga xos xarakteri, fe`l-atvorini yorqin ifodalash maqsadida essenavislar xotira janriga xos hujjatlilik, xronologik bayoi elementlarini badiiy, obrazli tasvir bilan boyitishdi. Natijada,

esse-xotiralar mazmuni quyuqlashib, shaxslar talqini bo`rtib ko`rinadi. Bundan tashqari, yozuvchi qahramon nutqida Surxon va Qashqadaryo dialektini ham qo`llaydi: "- Xo`p deng, - tazyiqmi-zulmimi qilib - xullas, unga dovib dedim..." (Surxon shevasidan).

Umuman "Yo`llar ayro tushdi, ammo..." essesda tabiat lavhalari kahramon kayfiyati va holatini ochishdan tashqari, xotira kechinmalar tizimini bitta joyga ugoshtiruvchi muhim komponent sifatida ishtirok etadi.

SH. Xolmirzaev esse-xotiralari, ko`pincha favqulodda kutilmagan tadorik bilan boshlanib, ularda yozuvchi kuzatuv, mulohaza, xotira, tafsilot, kontrast tasvir vositalaridan unumli foydalanib, pishiq va puxta kompozitsiyali xotiralar yaratadi. "Binafsha hidlang, amaki", "Yo`llar ayro tushdi, ammo...", "Takdir bashorati" kabi esselari ana shular jumlasidan sanaladi.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek adabiyotida esse janri o'zining taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqda. O'tgan yillar davomida uning turli shakllari, ko'rinishlari yaratildi. SHuni e'tirof etish zarurki, o'zbek adabiyotida essenavislik taraqqiyotida ilmiy, badiiy-publitsistik, falsafiy esse namunalari ham yaratilganini ko'rish mumkin. Jumladan, P.Qodirov, A.Muxtor. Zulfiya, Mirtemir, e.Vohidov, I.G'ofurov singari ijodkorlarimiz adabiy o'ylari ham esse janriga mansub. SH.Xolmirzaev esse-xotiralaridai farqli ravishda P.Qodirov, I.G'afurov esse va badiialarida yozuvchi fikri bosh qahramon sifatida zuhurlanadi (P.Qodirov "O'ylar", I.G'afurov "Dil erkinligi"). Ularda shaxslar emas, masala, mulohaza bosh qahramon sifatida ko'rinish beradi. Bular ilmiy, badiiy-publitsistik esse namunalari bo'la oladi.

1. SH.Xolmirzaev esa ta'kidlaganimizdek, asosan esse-xotira janrini yuksak cho'kqiga ko'tardi. SH.Xolmirzaev 60-yillardan boshlab, o'zbek memuar adabiyotini o'zining 20 dan ziyod esse-xotiralar bilan boyitdi.

SH.Xolmirzaevning barcha esselari mavzu jihatdan quyidagicha tasnif qilinib, tahlilga tortildi:

- 1) San'at ahli haqidagi esselar.
- 2) Jamoat arboblari haqidagi esselar.
- 3) Tarixiy-ijtimoiy mavzudagi esselar.
- 4). Publitsistik esselar.

2. O'zbek esse-xotiralarida mashhur shaxslarning hayoti, dunyoqarashi, fe'l-atvori, madaniy saviyasi, xarakteri yozuvchi nuqtai nazari bilan ochiladi. SH.Xolmirzaev "Binafsha hidlang, amaki", "Ay, SHuxrat akam-a...", "Yo'llar ayro tushdi, ammo...", "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro'zi CHoriev", "Odil aka haqida o'ylasam...", "U kishim - ustoz, men - shogird", "Abdulla Qahhorni eslab..." singari esselarida buyuk san'atkorlar qiyofasini namoyon eta oldi Adib O'.Umarbekov, U.Nazarov, O'.Hoshimov, A.Oripov ("Binafsha hidlang,

amaki"), O.YOqubov ("Odil aka hakida o`ylasam..."), SHuxrat ("Ay, SHuxrat akam-a"), A.Oripov ("Yo`llar ayro tushdi, ammo..."), Usmon Azim ("Kashf etmoq zavqi"), rassom R.CHoriev ("Bir oqshom suhbat yoki do`stim Ro`zi CHoriev"), aktyor SHukur Burhon ("Takdir bashorati"), jurnalist Rahimjon ("SHaydolik"), jurnalist va yozuvchi Z.Mamajonov ("SHimol yog`dusi"), arxeolog Mengziyo Safarov ("Oldi ortingga kara") sipgari san`at axllari hakida betakror esse-xotiralar yaratdi.

3. Adib tasvirlanayotgan voqea-hodisa haqida fikr yuritar ekan, o`z ko`nglida tug`ilgan his-hayajoni, shaxsiy mulohazalarini bemalol bayon etish yo`lidan boradi. essening kitobxonni qiziqtiruvchi yana bir tomoni bor: unda nafaqat ustoz portreti (M.Qo`shjonov) yaratiladi, balki yozuvchi o`zining ham avtoportretini chiza boradi. Ba`zi fasllarda yozuvchining shoir tabiat, erkinlikka intiluvchi fe`li ochila boradi. Bu sahifalarni o`qib, ko`z oldingizda sevimli adibning qalbingizga yaqin asarlari kabi samimiy qiyofasi gavdalanadi. Bu orqali kitobxon ijodkorga yanada yaqin bo`lib qoladi.

4. esselarda chegara bilmas samimiy tasvirlar, essega xos erkinlik, ilmiy va badiiy tafakkurning uyg'unlashuvi, muallifning "men"i ayniqsa, bo`rtib ko`rinadi. Biroq ba`zida adibning xayollari haddan ziyod cho`zilib ketadi. esseda adib do`stlari - ijodkorlarning xarakteriga xos chizgilar beradiki, bu kitobxon bilan yozuvchi, munaqqidlar orasidagi masofani yaqinlashtirishga yordam beradi. Asar qahramonlarining deyarli barchasi adibga tanish, yuragiga yaqin odamlar, shuning uchun bo`lsa kerak, uning samimiy xotiralarida bu kishilarning butun hayoti ko`z oldimizda yaqqol gavdalanadi.

5. esse yirik hajmli, o`ziga xos janr bo`lib, uning alohida belgisi – muallif "men"ining erkin mulohazalariga asoslanishi, turli-tuman dalillarning keltirilishi, tanqidchining badiiy xayolotga va fantaziyaga boy qarashlari asosida yaratilishidir. esse-roman esseistikani rivojlantirish bilan birga yozuvchi, shoir ijodini chuqur va har tomonlama o`rganishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. SHu bilan birga ularda ulug` insonlarning shaxsi, hayoti tavsiflanadigan asarlarga muhim o`rin ajratish, adabiyot yoshlarni noma`lum o`tmish bilan tanishtirib, jiddiy madaniy-tarbiyaviy

rol' o'ynashiga e'tibor qaratish imkoniyati katta. Shu jihatdan qaraganda, adib esselari katta ilmiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

6. Keng ko'lamli va yirik janrlardan sanalgan esseda muallifning his-tuyg'ulari jo'shib, satrlarga sochiladi, shuning uchun u ko'proq erkin mulohazalarga asoslanadi. Unda falsafiy, badiiy, publitsistik, ilmiy uslublar sintezlashtiriladi. Tahlil etganimiz, Sh.Xolmirzaevning esselari ilmiy va obrazli tafakkur namunalari bo'lib, ko'pincha biror bir ijodkorning obrazini yaratishga xizmat qiladi.

7. Shukur Xolmirzaev esselari insonda mehr-muhabbat, hurmat-izzat, o'zlik, mustahkam e'tiqod, hayotga teran nigoh bilan qarash, qadr-qimmatni anglash kabi insoniy tuyg'ularni uyg'otishga qodir. Shu bilan birga bu esselar adabiyotni chin dildan his etishga, adabiyot ahlini yana-da e'zozda tutishga, ularning ma'naviy dunyosini yaqindan tushunishga o'rgatadi. Zero, real hayotning badiiy tasvirlanishi hech bir adabiyot ixlosmandining nazaridan chetda qolmaydi, aksincha, haqiqiy hayot tajribasidan aniq xulosalar chiqarishga ko'maklashadi.

Kelajakda Sh.Xolmirzaev hakida biografik esse, ilmiy-adabiy portret yaratishda ko'l keladigan adibning bolalik, talabalik yillari, ijodiy yo'li haqidagi muhim ma'lumotlarni uning esse-xotiralaridan bemalol olib foydalanish mumkin.

Sh.Xolmirzaev asarlari, shu bilan birga esselari ma'naviy qadriyatlarimizning zamonaviy shakli sifatida xalq ma'naviy dunyosini boyitib, madaniyat taraqqiyotiga xizmat qila oladi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

Huquqiy - normativ hujjatlar:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) . Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:O'zbekiston. 1997.

II. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари:

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:O'zbekiston. 1997.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 24 июлдаги ПФ – 4456 - сон “Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2012 йил, 18 декабрь, 2405 - сон Магистратура тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида буйруғи.

a. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti

I.A.Karimovning asarlari:

5. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент. «Ўзбекистон». 2000.- 345 б.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. Т.”Ўзбекистон”. 2005. – 173 б.
7. Каримов И. А. Адабиётга эътибор- маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2010. – 39 б.

1. IY. Asosiy adabiyotlar:

b. Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar:

8. Абдулла Қаҳҳор. Ёшлар билан суҳбат. Тошкент. «Ёш гвардия». 1968. 3-бет.
9. Адабиётимизнинг ярим асри. Мақолалар тўплами. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976.- 342 б.
10. Адабий турлар ва жанрлар. 3-жилдлик. 1-жилд. Тошкент. «Фан». 1993.- 456 б.
11. Адабиёт назарияси. Издат Султон. Тошкент. «Ўқитувчи» 1989.- 378 б.
12. Асқад Мухтор. Ёш дўстларимга. Тошкент. 1986.
13. Белинский В. Адабий орзулар. Т. 1987.- 262 б.
14. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
15. Дўстқораев Б. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Тошкент, 1989. – 22 б.
16. Жўракулов У. Худудсиз жилва. Т. 2002.
17. Йўлдошев Б. Адабий жараён: танқидчи услуби ва маҳорат муммолари. Тошкент. «Фан». 2002.- 167 б.
18. Каримов Н. Чўлпон. Тошкент. «Фан». 2004.
19. Каримов Н. Мақсуд Шайхзода. Тошкент. 2010.
20. Мамажонов С. Теранлик. Адабий жараён ва адабий танқид. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987.- 267 б.
21. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т. : Ўзбекистон, 2000, - Б 65.
22. Миртемир. Дўстлар даврасида.*****
23. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Тошкент. “Тафаккур қаноти”. 2012.- 412 б.

24. Назаров Б. Ҳаётийлик –безавол мезон. Тошкент.» Ёш гвардия». 1984.
25. Норматов У. Етуклик. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. – 367 б.
26. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2007. –351 б.
27. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. – Т.: 1979. Т.14.– 438 б.
28. Отаёр. Миртемир. Тошкент. 1986.
29. Отаёр. Мен қуёшни кўргали келдим. Тошкент. 1990.
30. Расулов А. Таҳлил, талқин, баҳолаш. – Тошкент, 2006. – 275 б.
31. Расулов А., Худойбергандов Н. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. Тошкент.»Ўқитувчи», 1990.
32. Расулов А. Бадиийлик - безавол янгилик. Тошкент. Шарқ НМАК. 2007.232 б.
33. Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилolari. Тошкент: Фан, 1991, – 64 б.
34. Саъдий Маҳмуд. Теран томирлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 159 б.
35. Сафаров О, Йўлдошев Б., Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилиги. Бухоро, 2003.- 385 б.
36. Содик Санжар. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 319-324.
37. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – 477 с.
38. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент. “Маънавият”, 2004.- 432 б.

- 39.Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. Тошкент. 1978.
- 40.Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. Тошкент. 1989.
- 41.Шодмон Отабек. Адабиёт қисмат бўлса... / Ш.Холмирзаев
замондошлари хотирасида. Т. 2010. –Б. 112.
- 42.Шукур Холмирзаев замондошлари хотирасида. Т.2010.
- 43.Фитрат А. Танланган асарлар.3 жилдлик. – Тошкент: Маънавият,
2000. 2-жилд. – Б. 25-189.
- 44.Холмирзаев Ш. Тоғларга қор тушди. – Тошкент. “Ёш гвардия”. 1987.
– 161-169.
- 45.Шукур Холмирзаев: Эссе – эркин ижод // Ўзбекистон адабиёти ва
санъати.. 2003-йил, 16-сон.
- 46.Холмирзаев Ш. Сайланма. 2 -жилд. Тошкент. “Шарқ”
НМАК.Тошкент. 2004.
- 47.Холмирзаев Ш. Сайланма. Эсселар. 4-жилд. Тошкент. “Шарқ”
НМАК.Тошкент. 2007.
- 48.Холмирзаев Ш. Сайланма. 3 -жилд. Тошкент. “Шарқ”
НМАК.Тошкент. 2005.
- 49.Холмирзаев Ш. Фарғона йўлларида // Туркистон.- 1999.-18 сентябрь.
–Б.5.
- 50.Ўзбек адабий танқиди тарихи. Тошкент. Фан, 2-том. Тошкент, 1987.-
329 б.
- 51.Ўтаев Ў.Танқид ва услуб. – Тошкент: Фан, 1978. – 76 б.
- 52.Қурононов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. – 226
б.
- 53.Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги
Адабиёт ва санъат нашриёти. 1977. -245 б.

54.Қўшжонов М. Дийдор. Тошкент. 2004.

55.Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – 195 б.

56.Ҳаққулов И. Эътиқод ва ижод. Тошкент. Фан, 2007.

57.Ҳаққулов И. Ижод иқлими. Т. 2008.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar:

Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:

58.Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидининг жанрий таркиби. -
Ф.ф.докт.....дисс. Тошкент. 2008. 286-бет.

59.Дўстмуҳаммедов Х. "Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий
тафаккурнинг янгиланиши" .- Филол.фанлари
номзодл....дисс.Тошкент. 1999. 154 б.

60. Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ўзбек насрининг тараққиёт йўллари.
ДДА. 1991. –Б. 35.

61. Палуанов Б. Қорақалпоқ адабиётида эссе жанри. Филол. фанлари
номзоди дис. ... автореф. Нукус, 2002. – 23 б.

62.Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек адабиётида эссе жанри. Филол. фанлари
номз. ... дис.автореф. – Тошкент: 2004. – 23 б.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

63. Раҳимжонов Н. Бадеа ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –
Тошкент, 1983, - № 5, – Б. 19-22.

64. Қўчқорова М. Эссе жанри ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, –
Тошкент, 2004. - № 2. – Б 23- 25.

65.Қўшжонов М. XX аср менинг тақдиримда // Жаҳон адабиёти.
Тошкент, 2001. -№ 1. – Б.13-17.

66.Қодиров П. Тил, тарих, муҳаббат... // Ёшлик. – 1989. - № 5. – Б. 2, 40-
42.

67. Шарафиддинов О.Адабиёт мангу яшайди.// "Жаҳон адабиёти",1998,1-
сон, -Б.4.

68. Имомова Г. Ҳикояда узок ўтмиш ва янги замоннинг синтезлашиш масаласига доир // ЎТА, 2006, 3-сон, 58-60- бетлар.

69. Ҳамидова М. Рухиятдаги инқилоб // Шарқ юлдузи. 2000, 5-6-сон. 114-116-бетлар (Ш.Холмирзаевнинг “Олабўжи” романи ҳақида).

Lug’atlar:

70. Краткая литературная энциклопедия. – М., 1968. Т. 5. – С.895.

71. Литературный энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1987. – С. 375.

72. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 299 б.

73. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча - ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 375.

V. Internet saytlari:

74. [www. Ziyo/ net](http://www.Ziyo.net)

75. [WWW. nuqf. intal. Uz](http://WWW.nuqf.intal.Uz)

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida o'zbek adabiyotining etuk vakili, adib SHukur Xolmirzaev yaratgan esselarni monografik tarzda o'rganish maqsad qilib olingan. Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni echish belgilandi: o'zbek adabiyotida yozuvchi essenavisligi taraqqiyotini, esse janriga oid nazariy qarashlarni o'rganish, SH.Xolmirzaevning essenavislikda tutgan o'rni ko'rsatish; yozuvchi esselarining mavzular va obrazlar olamini tadqiq etish; adibning esselarini tasnif qilish; adib esselarini tahlil etish jarayonida uning o'ziga xos uslubini belgilash; adib asarlariga, xususan, esselariga mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan baho berish; adib ijodiga, essenavisligiga xos xususiyatlarni aniqlash, uning uslubi va mahoratini o'rganish orqali mahoratini ochib berish.

SH. Xolmirzaevning essenavislik faoliyati o'zbek adabiyotshunosligida yaxlit holda tadqiq etilib, etuk adibning esselari va maqolalari mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan monografik tarzda yoritib baholanmoqda. Birinchi navbatda, mazkur ish SH.Xolmirzaevning ko'p jihatdan to'laqonli ilmiy biografiyasini yaratishga xizmat qilishi bilan muayyan qiymat kasb etadi. Bularning barchasi ishimizning mustaqil jiddiy tadqiqot sifatidagi ilmiy yangiligini belgilaydi.

REZYUME

MUNDARIJA:

Ishning rasmiylashtirilishi_____

KIRISH_____

Ishning umumiy tavsifi_____

I BOB. O`ZBEK ADABIYOTIDA YOZUVCHI ESSENAVISLIGI TARAQQIYOTI._____

1.1.Esse janriga oid ilmiy-nazariy qarashlar talqini_____

1.2. Adibning hayot va ijod olamiga bir nazar_____

1.3.Sh.Xolmirzaev esselari tasnifi _____

II BOB.SH.XOLMIRZAEV – ESSENAVIS ADIB SIFATIDA_____

2.1. Sh.Xolmirzaev esselarining mavzular olami. _____

2.2. Esselardagi obrazlar olami, muallifning obraz yaratish mahorati_____

2.3. Esseda portret yaratish masalasi _____

SH.XOLMIRZAEVNING ESSENAVISLIKDAGI MAHORATI _____

3.1. Esselarda muallif “men”i talqini_____

3.2. Adibning uslubiga xos xususiyatlar ifodasi_____

3.3. Yozuvchi mahoratining asar tilida aks etishi_____

UMUMIY X U L O S ALAR_____

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati_____

